¹ Baştürk, M. Parmaklari sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sira sayi sisteminin oluşumu. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.1995, 3-sayı. [Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi » Makale » parmaklari sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sira sayi sisteminin oluşumu \(dergipark.org.tr\).](http://dergipark.org.tr)

Dostonlar: Alpomish dostonida *oq, qora, qizil* ranglar va *uch, qirq* sonlari muhim ramziy belgi sifatida ishlatiladi.

Dunyo tillarida rang va son nomlari turlicha ramziy manmunlarni kasb etadi. Dunyoning boshqa tillari kabi o‘zbek tilida ham son va rang konseptlarini milliy madaniyat, tabiat va xalq tafakkuri orqali shakllantirib, o‘ziga xos va boy tizim yaratgan. Zamonaviy o‘zbek tilida rang reklama, san’at, moda va dizaynda faol qo‘llaniladi, masalan, yashil - ekologik toza kabi. Sonlar esa statistik va texnologik jihatdan muhim (masalan: bir – birlik, nol – kompyuter kodlari uchun).

XULOSA. Ushbu tadqiqot asosida o‘zbek lingvomadaniyatida rang va son konseptlarining tarixiy va madaniy taraqqiyoti, ularning xalq tafakkuri va madaniyatidagi o‘rni o‘rganildi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan tortib, zamonaviy o‘zbek tilidagi qo‘llanilishigacha bo‘lgan jarayonlar tahlil qilindi. Tadqiqotdan quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

Qadimiy turkiy toshbitiglarda 11 ta asosiy rang nomi aniqlangan: *oq, qora, qizil, ko‘k, yashil, sariq, boz (kulrang), torug (qirmizi), ürüng (kumush rang), yağiz (to‘q rang)*. Ushbu ranglar tarixiy davrlarda turli ramziy va semantik ma’ nolarga ega bo‘lgan. O‘zbek lingvomadaniyatida yetti asosiy rang (kamalak ranglari) milliy mentalitet bilan bog‘liq. Masalan: *oq* – poklik va sof niyat, *qora* – buyuklik va salobat, *yashil* – tabiat va yangilanish, *qizil* – jo‘shqinlik va jasorat ramzi. Ranglar xalq og‘zaki ijodida, marosimlarda va kundalik hayotda faol qo‘llanilgan: *oq yo‘l, qora kun, yashil tabiat*.

Qadimiy turkiy toshbitiglarda 97 marta son birliklari uchragan bo‘lib, ularning 73 tasi sanoq son, qolganlari tartib son va jamlovchi son ko‘rinishlarida ishlatilgan¹. O‘zbek madaniyatida sonlar ramziy va diniy ahamiyat kasb etgan. Masalan: *bir* – birlik va yagonalik, *uch* – tugallik va muqaddaslik, *yetti* – to‘liq mukammallik, *yetti avlod, yetti kun, qirq* – muhim o‘tish bosqichi: *qirq kunlik marosim, qirq yigit* va boshqalar. Sonlarning tahlili tarixiy davrlarda turli lingvomadaniy va semantik yuklamalarni aks ettiradi.

Rang va son nomlari o‘zbek lingvomadaniyatida insonning tabiatni idrok etishi va ramziy ma’no berish jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Ranglar va sonlar xalqning kognitiv tafakkuri, etnik identifikatsiyasi va milliy madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Ranglar qadimiy turkiy tildan boshlab, o‘zbek tilida semantik jihatdan boyigan. Masalan: *oq* va *qora* ranglar qadimgi turkiy madaniyatda ilohiy va siyosiy ramz bo‘lgan.

Sonlar turkiy xalqlarda uzoq tarixga ega bo‘lib, ayniqsa, *bir, uch, yetti, qirq* kabi sonlar muqaddas va ramziy ma’ nolarni anglatgan. Xalq og‘zaki ijodi va yozma manbalarda sonlarning qo‘llanilishi milliy qadriyatlarni aks ettiradi.

Rang va son nomlarining tarixiy ildizlari, semantik tahlillari va etimologik o‘zgarishlari aniqlanib, lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlar yoritildi. Qadimiy toshbitiglar, yozma manbalar va zamonaviy o‘zbek tili orqali rang va sonlarning uzluksizligi isbotlandi. O‘zbek tili darsliklari, lingvomadaniy tadqiqotlar va milliy madaniy merosni o‘rganishda qo‘llash uchun tayanch ilmiy baza yaratildi. Rang va sonlarning semantik va ramziy tahlillari xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, san’at va marketing sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda xalq shevalarida rang atamalarining o‘ziga xos xususiyatlarini, turkiy xalqlar tilida va barcha yozma manbalarida sonlarning tarqalishi va semantik o‘zgarishlarini mukammal tahlil qilish mumkin. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik metodlarini qo‘llab rang va son nomlarini inson ongidagi mental xaritalar asosida o‘rganish, milliy madaniy kodlarini tadqiq qilish yetarlicha ilmiy samara beradi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

¹ H.Şirin. Eski türk yazıtları söz varlığı incelemesiçTDK yayınları. Ankara. 2020, 494-497-betlar.

1. Апресян Ю. Лексическая семантика. -М.: Наука, 1995. -С.44.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: антология / под ред. проф. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997, -269 б.
3. Bacanlı E. Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemi. (99+) "[Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemleri](#)", *Bilim ve Teknik* (Kasım-2012), 56-58. | [Eyüp Bacanlı - Academia.edu](#)
4. Baştürk, M. Parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.1995, 3-sayı. [Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi » Makale » parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu \(dergipark.org.tr\)](#).
5. Baynazarov Z. O‘zbek tilida sonlar va ularning tarixiy-tadrijiy tarqqiyoti. JUSR. Volume-2, Issue-6. -S.376-391.
6. Baynazarov Z. Toshbitiglarda ifodalangan ranglar, ularning tarixiy va lingvomadaniy xususiyatlari. SamDU ilmiy axborotnomasi. 2024/4(146/1)-soni. -B.28-36.
7. Ercilasun A.B.Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara.2009.
8. Eren H. Turk dilinin etimoloji sözlüğü. Ankara: 1999, -S.60.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Georges_Ifrah
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamlar> (sentabr 2022).
11. https://www.researchgate.net/publication/373165939_Til_Ta'lim_Tarjima_-_10-2022/stats
12. Mish, Frederic C., Editor in Chief Webster's Tenth New Collegiate Dictionary Springfield, Massachusetts, U.S.A.:1994--Merriam-Webster Page, 197.
13. Qayumova N.R. Sonlarning hayotda ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/sonlarning-hayotda-ahamiyati> (2022, sentabr).
14. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tilli tarixi. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2009. -B.124-125
15. Şenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016.
16. Şirin H. Eski türk yazıtları söz varlığı incelemesi. TDK yayınları. Ankara. 2020. -S.677.
17. Sitwala, ImendaIs. There a Conceptual Difference between Theoretical and Conceptual Frameworks? //Journal of Social Sciences, 2014, 38 (2), -185-195 c.
18. Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashri, 2009 yil.
19. Toshqulova Z. Rang-tus sifatlarining lingvomadaniylarda tutgan o‘rni. Journal of Innovations in Scientific and Educational Research Volume-6, Issue-5. 2022. -B.185-189.
20. Turk dilinin etimologik sözlüğü. Ankara. 1999. -B.54.
21. Xudayberganov R. Rangshunoslik asoslari. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. -B.35-40.
22. А.Х.Мерзлякова. Семантическое поле «Вкус» (на материале английского, французского и русского языков)//Сопоставительные исследования 2005 -Воронеж: Истоки, 2005. – 220 с. -С.30-37.
23. Г.Д.Ибрагимов. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(I).
Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000, 600 б.

O‘ZBEK TILIDA MODAL SO‘ZLAR MASALASI VA ULARNING ETIMOLOGIYASI

HATAMOV Ziyodin Mamadullayevich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 1-bosqich doktoranti (O‘zbekiston)

E-mail: xatamovziyodin@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2815-1997

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning tasnifi, xususiyatlari va etimologiyasiga oid ilmiy qarashlarga bag‘ishlangan. Sobiq ittifoq davrida o‘zbek tiliga bag‘ishlangan bir nechta darslik-qo‘llanmalar va maqolalarda, alohida ilmiy tadqiqotda tilimizdagi modal so‘zlar o‘rganilgan, ta’rif va tasniflari amalga oshirilganiga qaramay, ularda nisbatan turlicha ilmiy qarashlar va tasniflar mustaqillik davrida ham kuzatiladi. Muallif o‘zbek tilidagi so‘z turkumlari bo‘yicha qilingan ilmiy qarashlar asosida modal so‘zlarni aniqlaydi va tasnifini amalga oshiradi. Ma’lumki, zamonaviy o‘zbek tilshunosligi kattagina davrni bosib o‘tdi. So‘z turkumlari tasnifiga oid yangicha mezonlar ishlab chiqildi. Umuman, so‘z tushunchasi haqidagi ilmiy qarashlar o‘zgardi. Tilshunoslik markazida turuvchi lingvistik paradigmalarda o‘zgarishi va modallik kategoriyasining yuqori mavqega ko‘tarilishi natijasida modal so‘zlarga bo‘lgan ilmiy qarashlar ham o‘zgardi. Maqolada xuddi shu jarayon ham qisqacha izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek lingvistikasi, so‘z turkumlari, modallik kategoriyasi, modal so‘zlar mohiyati, kirish so‘zlar, subyektiv modallik, modal so‘zlar chegarasi va tasnifi, modal so‘zlar etimologiyasi.*

ПРОБЛЕМА МОДАЛЬНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ЭТИМОЛОГИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрены научные взгляды о классификации, особенностях и этимологии модальных слов в узбекском языке. Несмотря на то, что в ряде учебников-пособий и статей, отдельных научных исследованиях, посвященных узбекскому языку в постсоветский период, модальные слова нашего языка были изучены, определены и классифицированы, в них прослеживаются относительно разные научные взгляды и классификации. Автор определяет и осуществляет классификацию модальных слов, опираясь на научные взгляды о частях речи в узбекском языке. Как известно, современная узбекская лингвистика пережила немалый период. Разработаны новые критерии классификации частей речи. В целом, изменились научные взгляды о частях речи. В статье также кратко объясняется этот процесс.

Ключевые слова: *современная узбекская лингвистика, части речи, категории модальности, суть модальных слов, вводные слова, субъективная модальность, границы и классификация модальных слов, этимология модальных слов.*

THE ISSUE OF MODAL WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR ETYMOLOGY

Abstract: This article is devoted to scientific views on the classification, features, and etymology of modal words in the Uzbek language. Even though several textbooks and articles were devoted to the Uzbek language in the post-Soviet period, modal words in our language were researched, defined, and classified in separate scientific research. They show relatively different scientific views and classifications. The author defines and classifies modal words based on scientific views on the categories of words in the Uzbek language. As is known, modern Uzbek linguistics has gone through a considerable period. New criteria for classifying words have been

developed. In general, scientific views on the concept of the word have changed. The article also briefly explains this process.

Key words: *Modern uzbek linguistics, categories of words, categories of modality, boundaries and classification of modal words, etymology of modal words.*

Kirish. Ma'lumki, so'nggi davrlarda o'zbek tilshunosligi markazida turuvchi paradigma o'zgardi. Tilni undan bevosita foydalanuvchi – inson bilan bog'liq holda tadqiq e'tishga qaratilgan ilmiy qarashlar, g'oyalar paydo bo'ldi. Buning natijasida yangi tilshunoslik fanlari: sistem tilshunoslik, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi yo'nalish va sohalar paydo bo'ldi. Ularning barchasi u yoki bu darajada modallik tushunchasi bilan bog'lanadi. Inson ifodalaydigan har qanday gapda, nutq parchasida (matnda) modallik mavjuddir [1, 44]. Shunday ekan, ularda modal so'zlar ham o'rganiladi. Kognitiv tilshunoslikni olaylik. Inson kognitiv faoliyatda turli voqea hodisalarga hissiy yoki mantiqiy baho beradi. Bunday baholar turli juda ko'plab til vositalari bilan ifodalanishi mumkin. Ularning kattagina qismi bizning ona tilimizda aynan modal so'zlar orqali anglatiladi. Ular nutq jarayonida fikrga tafakkuriy yoki hissiy baho berish vazifasini o'taydi. Modal so'zlar tilimizda subyektiv modallikni ifodalovchi eng asosiy vositadir. Fikrimizni so'nggi yillarda modallik haqidagi tadqiqot muallifining ushbu fikri ham tasdiqlaydi: “Ingliz va nemis tillari kabi Hind-Evropa tillarida sub'ektiv modal ma'nolar ifoda urg'usining modal fe'llarga tushishi orqali ifodalansa, o'zbek tilida bunday ma'nolar urg'uning modal so'zlar va modal so'z vazifasini bajaruvchi leksik birliklar qismiga to'g'ri kelishi orqali namoyon bo'ladi” [14, 62].

Shuningdek, mustaqillik davriga kelib tilni sistema sifatida talqin qilish kuchaydi. So'z turkumlari til sistemasi ichidagi sistemadir. Modallar ham shu tizim ichidagi boshqa so'z turkumlari kabi mikrosistema bo'lib, alohida tizimni – paradigmani tashkil etadi. Modallar paradigmasi o'z ichida boshqa kichik paradigmatic qatorlarga birlashadi. Ularning til sistemasidagi o'rnini, mavqeyini belgilash ham juda muhim ahamiyat kasb etdi. Tilni sistema sifatida talqin etgan olim Sh. Rahmatullayev modallarining leksik ma'no ifodalamasligi, umuman, o'ziga xos grammatik mazmun tomonini inobatga olib “so'z” deb ataladigan doiradagi birliklardan ajratib oladi. Ularni bog'lovchi, yuklama va undovlar bilan bir qatorda umumlashtirib “grammatik birliklar” deb nomlaydi [8, 129].

Shu o'rinda, o'z-o'zidan, tilshunoslikning yana bir jihati o'rtaga chiqadi. Mustaqillik davrigacha til va nutq hodisalari bir-biridan aniq ajratilmagan. Bu holat so'z turkumlari chegarasini aniqlashda qiyinchiliklarni, turli chalkashliklarni keltirib chiqargan. So'z juda ko'p funktsiya bajaradigan, ko'pqatlamli birlik sanaladi. Shubhasiz, ma'lum bir so'zni turkumga ajratishda, uning haqiqiy maqomini belgilashda kontekst juda muhim ro'l o'ynaydi. Tilshunos olim N. Turniyozov ta'kidlaganidek: “so'zning qaysi ma'noda, qanday funktsiyada ekanligini biz faqatgina nutq jarayonida u konkret qo'llanganda belgilay olamiz” [9, 10]. Lekin nutqda ma'lum bir funktsiya bajarayotgan so'z boshqa o'rinda boshqa vazifada ishlatilishi mumkin. Masalan, yaxshi so'zi ham aniqlovchi, ham modal ma'no bildirib modal so'zlar kabi kirish so'z vazifasida kela olishi singari. Ma'lumki, modal so'zlar xuddi yordamchi so'zlar kabi mustaqil so'z turkumlaridan ajralib chiqish natijasida vujudga kelgan. Ya'ni ular dastlab nutqiy jarayonda ishlatilib keyin til birligiga aylangan.

O'zbek tilshunosligida modal so'zlarga oid materiallarni o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularning chegarasi hanzu aniq belgilanmagan. Shuningdek, ularning tasnifi borasidagi qarashlar ham turli xil ekanligining guvohi bo'ldik. Buning asosiy sababi sobiq ittifoq davrida

tabiiy ravishda modal soʻzlarga, umuman, boshqa soʻz turkumlari rus tilshunosligi ilmiy nazariyalari asosida talqin qilinganligida edi. Yangi davrga kelib esa oʻzbek tiliga mos va zamonaviy gʻoyalar oʻz aksini topgan mezonlar ilgari surilgan ilmiy tadqiqotlar paydo boʻldi [4, 3].

Shu bilan birga, soʻzni modal soʻz oʻlaroq belgilashda uning etimologiyasiga ham alohida eʼtibor berish zarur koʻrinadi. Binobarin, ular boshqa soʻz turkumlarining modallarga koʻchishi mahsulidir. Mashhur rus tilshunos olimi A.A. Vinogradov ham oʻz tadqiqotlarida aynan shu masalaga, yaʼni modallarning etimologiyasiga alohida eʼtibor qaratgan edi. U rus tilidagi modal soʻzlarni yoki boshqa soʻz turkumlaridan, yoki maʼlum soʻz birikmasi va gaplarning qisqaruvidan kelib chiqqanini alohida taʼkidlab, ularning kelib chiqishini oʻrganish muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlagan edi [10,606]. Gachi tilimiz rus tiliga umuman oʻxshamasa-da, oʻzbek tilidagi modallar ham rus tilidagilar bilan bir xil funktsiya bajaradi va xuddi shunday holatlar kuzatiladi.

Asosiy qism. Biz oʻrganayotgan modal soʻzlarni ham yuqorida aytganimizdek yangicha, ona tilimiz tabiatiga mos yondashuvlar asosida qayta koʻrib chiqish, ularning chegarasi aniq belgilanishi zarur. Biz ularni tekshirish va tasnif qilishda tilshunos olim J.Eltazarovning soʻz turkumlari haqida ilgari surgan funksional-semantik va funksional-sintaktik mezonlarga tayanish lozim deb hisoblaymiz [3,10]. Chunki modal soʻzlarning ikki muhim jihati mavjud. Biri ularning maʼnosi, ikkinchisi shu maʼnodan kelib chiqib bajaradigan sintaktik vazifasidir. Kirish soʻzning sintaktik vazifasi modal soʻzlarning umumiy grammatik maʼnosini belgilaydi: ular muallifning oʻz fikriga baho berish uchun ishlatiladi va aksincha, modal soʻzlarning funktsiyasi ularning oʻziga xos semantikasiga asoslanadi. Ishimizning birinchi faslida guvohi boʻldikki, modallar haqidagi eng yirik tadqiqot muallifi R. Kamiljanova ularga faqat funksional sintaktik tomondan yondashadi, natijada modal soʻz va kirish soʻz tushunchalari deyarli ayni bir xil tushunchaga aylangan deyish mumkin. Modal soʻzlar chegarasi esa haddan ortiq kengaytiriladi, natijada ularning chegarasi mavhumlashadi. Yaʼni modal soʻzlarga qaysi soʻzlar kirishi aniqlikdan koʻra mavhumlikka tomon siljigan. Tan olish lozimki, modal soʻzlar bevosita nutq jarayonida, yaʼni qurshovda aniqlanadi va taʼrif-tavsif qilinadi. Ammo jumla tarkibida modus vazifasida kelayotgan barcha soʻzlar modal soʻz turkumi paradigmasiga oid boʻlavermaydi.

Modal soʻzlarning oxirgi davrlarda alohida ahamiyatga ega til vositalari ekanligi rus tilshunosligida ham alohida eʼtrof etilgan. Xususan, rus tilidagi subyektiv modallikni maxsus oʻrgangan olim E. Orexova subyektiv modallikni tilda “eng muhim funksional-semantik kategoriya”, modal soʻzlar hamda modal iboralarni esa rus tilida bu kategoriyani ifodalovchi eng asosiy vositalar ekanligini alohida taʼkidlab oʻtadi [12, 17-19].

Demak, ona tilimizdagi modal soʻzlarning stilistik va pragmatik, lingvomadaniy va umuman boshqa turli xususiyatlarini aniqlash uchun, avvalo, ularga qaysi soʻzlar kiradi degan muammoni hal etish zarur. Biz yuqorida aytilgan faktorlarni inobatga olgan holda oʻzbek tilida uchraydigan barcha modal soʻzlarni umumlashtirishga hamda ularni quyidagi maʼno turlariga boʻlib tasniflashga harakat qildik.

1. Aytilayotgan fikrning aniqlik darajasini ifodalaydigan modal soʻzlar. Ular oʻz ichida quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1) fikrning realligini, qatʼiy ishonchliligini bildiruvchi modal soʻzlar: *albatta, shaksiz, shak-shubhasiz, shubhasiz, beshak, soʻzsiz* kabilar;

2) fikrning aniqligini, rostligini tasdiqlashni bildiruvchi modal soʻzlar: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat, darvoqe, rostdan, chindan;*

3) fikrning yuzaga chiqish tabiiyligini ifodalovchi modal soʻzlar: *tabiiy, tabiiyki, oʻz-oʻzidan* kabilar;

4) fikrning toʻgʻriligini taʼkidlovchi: *aslida*.

2. Aytilayotgan fikrning, voqelik faktining noaniqlik darajasini bildiruvchi modal soʻzlar. Modallarning ushbu ikkinchi katta guruhini oʻz ichida quyidagi semantik guruhlarga boʻlish mumkin:

1) fikrning noaniqligini, taxminiy ekanligini bildiruvchi modal soʻzlar *chamasi, aftidan, shekilli, taxminan, chamamda, nazarimda, hoynahoy, mazmuni, gʻolibo*;

2) fikrning gumonli, shubhali ekanligini, biroz kuchsizroq ekanligini bildiradigan modal soʻzlar: *ehtimol, balki, mabodo, ajabmas*;

3) fikrning aniqligiga gumon yoki ishonchni ifodalovchi modallar: *har qalay, har holda, har nechuk, haytovur, ishqilib*.

3. Soʻzlovchining oʻzi tomonidan aytilayotgan voqelik faktiga hissiy (emotsional) munosabat ifodalaydigan modal soʻzlar ikkinchi katta guruhni tashkil etadi. Ushbu modal soʻzlar gap tarkibida ishlatilganda soʻzlovchining oʻz fikridan koʻra jumla orqali ifodalanayotgan voqelik, fakti-hodisa muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1) subyektning oʻzi bildirilgan voqelik faktiga quvonch, mamnunlik kabi munosabatni bildiruvchi modal soʻzlar: *xayriyat, xayriyatki, hartugul, baxtinga, yaxshiki, yaxshiyamki, haytovur*;

2) jumla orqali berilgan voqelik faktiga afsuslanishni, achinishni ifodalovchi modal soʻzlar: *afsuski, attang, taassuf, taassufki, esiz, nachora, vodarigʻ*;

3) voqelik faktiga nisbatan hayratlanish, taajublanishni ifodalovchi modal soʻzlar: *ajabo, tavba*;

4) soʻzlovchining istak-xohishini ifodalaydigan modallar: *qani endi, qaniydi, koshki, koshkiydi, zora, goʻrga, shoyad, shoyadki, ishqilib, yaxshisi*.

4. Modallarning keyingi guruhida soʻzlovchining mantiqiy yoki hissiy munosabati aniq sezilib turmaydi, lekin soʻzlovchi subyektivlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayrim fikrlariga fikrning subyektiv manbayini ifodalash, fikrni umumlashtirish va xulosalash yoki yakunlash, soʻzlovchi tomonidan fikrning tartibini bildirish, fikrning subyektiv dalillanishi, qoʻshimcha fikrlarni eslash-eslatish yoki soʻzlovchining qoʻshimcha axborot berishi kabi vazifalarni bajaradi. Ularni quyidagicha umumlashtirish va tasniflash mumkin.

1) fikrning manbayini bildiruvchi modal soʻzlar: *menimcha, bilishimcha, uningcha, sizningcha, bizningcha, aytishlaricha*;

2) fikrni umumlashtirish, xulosalash, yakunlash uchun ishlatiladigan modal soʻzlar: *xullas, umuman, demak, xullas, shunday qilib, pirovardida, nihoyat, oxiri, koʻrinadiki*;

3) fikrning tartibini bildiruvchi modal soʻzlar: *avvalo, avvali, avvalambor, dastlab, dastavval, birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan*;

4) fikrning dalillanishini, izohlanishini bildiruvchi modal soʻzlar: *jumladan, xususan, masalan, chunonchi, aytaylik, deylik, boringki*;

5) eslatish-eslatishni, qoʻshimcha maʼlumot berishni bildiruvchi modal soʻzlar: *aytganday, aytmogʻchi, darvoqe, aytganicha, shuningdek, qolaversa*.

5. Oxirgi guruhni semantik xususiyatiga koʻra modal maʼno anglatadigan, lekin yuqoridagilardan farqli gap tarkibida koʻpincha oʻzi mustaqil kesim yoki murakkab kesim tarkibida keladigan va zarurat, ehtimollik obyektiv modal maʼnolarini bildiruvchi *kerak, lozim, darkor, mumkin, majbur, shart* (funktional modal soʻz sifatida) shuningdek, *dargumon* kabi soʻzlar kiradi. Ushbu soʻzlarning ham tildagi asosiy funksional-semantik vazifasi gapning modus

qismini shakllantirishdir. Qolaversa, ularning ma’nosi butun gapga tegishli bo’ladi, yuklamalar kabi so’z yoki gapning bir qismiga emas. Shu sababli ularni modal so’zlar sifatida e’tirof etilishini tog’ri deb hisoblash lozim. Bulardan tashqari **baribir, hech bo’lmasa, aqalli, odatda** kabi so’zlar ham jumlar boshida kelib subyektiv modal ma’nolar ifodalaydi va gapda modal so’zlar kabi kirish so’z vazifasini o’taydi.

Umuman, modal so’zlar aytilayotgan fikrga yo mantiqiy yoki hissiy baho beradi. Boshqacha aytganda “modus ishning mental va psixik holatini o’z ichiga oladi” [15, 141]. Shu jihatdan ularni mantiqiy modallar va hissiy modal so’zlar kabi ikki turga umumlashtirish ham mumkin. Ammo tilshunoslik uchun inson ongida kechayotgan mantiqiy yoki hissiy tushunchalarning qaysi lisoniy birliklar bilan ifodalanishi, ularning semantik xususiyatlari, ma’no xilma-xilligi va tilda qo’llanishi muhimroqdir. Bu kabi tushunchalar tilda turli-tuman birliklar bilan ifodalanadi. Biz yuqoridagi tasnifimizni to’liq va yakuniy deb hisoblashdan yiroqmiz. Modal so’zlar mavjud turkumlarning so’z turkumi sifatida tan olingan oxirgi vakillaridan biridir. Ularning shakllanishi darrov sodir bo’lmaydi, ma’lum bir davrni o’z ichiga oladi va “lingvistik idrok etish jarayonidan o’tadi” [12,21]. Biz ularning chegarasi va tasnifi masalasiga to’liq va yakuniy yechim topamiz deb da’vo qilmaymiz, lekin modal so’zlarni bugungi kun nuqtayi nazaridan alohida so’z turkumi sifatida aniqlab, tasniflash va tushunishga oid bir qancha fikrlarni bildirishimiz maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Ayrim modal so’zlar bir emas, ikki xil ma’no anglatishi mumkin. Umuman olganda, ma’lum bir modal so’zning ma’nosi nutqda qo’llanganda, nutq vaziyatida ma’lum aniq namoyon bo’ladi. Lekin ayrim modal so’zlar bir-biridan mutlaqo farqli ikki ma’noga egadir. Xususan, **darvoqe** modal so’zi tilimizda ikki ma’noli modal so’z hisoblanib bir o’rinda fikrning haqiqatligini, ishonchligini bildirib *haqiqatan, darhaqiqat* modal so’zlari bilan sinonim bo’ldi. *Darvoqe, qishloq hayotida katta o’zgarishlar qilishga payt kelmadimi?* (P. Tursun, O’qituvchi) Boshqa bir o’rinda eslash-eslatishni anglatib *aytganday, aytmoqchi* modallari bilan sinonim bo’ladi. *Darvoqe, G’ofir, kelinga ayt, xizmat-pizmat qilib tursin.* (Hamza, Boy ila xizmatchi). **Ishqilib, haytovur** kabi modal so’zlarda ham shunday holat kuzatiladi. Haytovur so’zi bir o’rinda **har qalay, har holda** modal so’zlariga sinonim bo’ladi: *Boboxo’ja domla hamma-vaqt bir xilda o’qitar, bir xilda yozdirar, ishqilib, bir amallab vaqtni o’tkazar edi.* (P.Tursun, O’qituvchi) *O’g’lim, hali sen eshitdingmi, yo’qmi, haytovur, biz sening ustingdan bir ish qilib qo’yidik.* (A. Qodiriy, O’tgan kunlar) Boshqa nutqiy vaziyatda **haytovur** so’zi so’zlovchining quvonchini ifodalab **hayriyatki, yaxshiyamki** modallariga sinonim bo’ladi: *Rahim Saidov shoshib telefon kitobini qo’liga oldi. Haytovur, telefoni bor ekan. Trubkani oldi.* (O’.Umarbekov, Yoz yomg’iri) **Ishqilib** so’zi esa muallif istagini ifodalaydi va **qaniydi, koshkiydi** so’zlariga yaqin ma’no bildiradi: *Ishqilib uyda bo’lmasin-da, - deydi umid bilan, so’ng o’zining soddaligidan ichida kuladi.* (S. Siyoyev, Yorug’lik) Aynan shu sababli ham yuqoridagi tasnifda ularni ikki o’rinda modal so’zlarning ikki xil ma’no guruhlariga qo’shishga qaror qildik.

Ma’lum bir so’z bekordan bekorga kirish so’z vazifasida qo’llanilmaydi. Bu modal so’zga o’tishning dastlabki bosqichi bo’lgan deyish mumkin. O’z vaqtida ta’kidlanganidek, “..so’z turkumlarining shakllanishi ularning gapdagi funksiyasiga kelib bog’lanadi” [3, 140]. Ular kirish so’z vazifasida qayta-qayta qo’llanilaverishi natijasida modal so’zlar paradigmatic qatoriga o’tadi. Modal so’zlarning ko’pchiligi nutqqa tegishli bo’lgan kirishlarning modalizatsiya (Modallashish yani modalizatsiya boshqa so’z turkumining modal so’zga o’tishidir) natijasidir. [3, 123]. Aynan shu hodisaga uchragan so’z shakllari bo’lganligi uchun ular o’zlarining tarkibidagi yasovchi hamda grammatik qo’shimchalar – egalik, kelishik, zamon-shaxs va boshqa ko’rsatkichlarini

saqlab qoladi. Modallashgan bunday soʻzlarning tarkibidagi morfemalar koʻchish natijasida oʻz asl vazifasidan uzoqlashib qotib qoladi va maʼnosi xiralashadi. Xususan, *shubhasiz, soʻzsiz, rostdan, chindan, oʻz-oʻzidan, aslida, chamasi, aftidan, shekilli, mazmuni, yaxshiki, goʻrga, yaxshisi, demak, jumladan, aytaylik, deylik, boringki, aytganday, aytmoqchi, shuningdek, koʻrinadiki...* kabi soʻzlarda xuddi shunday holatlar kuzatilgan. Modallar sifatida shakllangan ushbu soʻzlardagi morfemalarni ajratib boʻlmaydi. Ular tarkibidagi yasovchi yoki grammatik shakllar bilan birgalikda modal soʻzlardir. Shuningdek, ularning koʻpchiligining (*aftidan, tabiiy, oʻz-oʻzidan, shaksiz, shekilli, mazmuni, goʻrga, demak, jumladan, aytganday, aytmoqchi, shuningdek, baxtinga* mustaqil soʻz turkumi hisoblanadigan omonimlari mavjud. Ularning leksik maʼnosi ham xiralashgan va modallashish jarayoni nihoyasiga yetgan.

Shuningdek, modallarning bir qismi fors-tojik tilidan (*darkor, zarur, koshki, shoyad*) va arab tilidan (*albatta, haqiqatan, balki, taxminan, masalan, lozim, xususan, ehtimol*) oʻzbek tiliga kirib kelgan soʻzlar ekani takidlanadi [11, 102-119]. Bundan tashqari, ularning etimologiyasi boʻyicha muhim maʼlumotlar bergan Sh. Rahmatullayev *darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, hoynahoy* kabilarning asli arab va fors tojik tillaridan oʻzlashib oʻzbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaralishini taʼkidlab oʻtadi [8, 128].

Ona tilimizda *shubhasiz, esiz, afsus, rostan, chindan, ehtimol, soʻzsiz, taassuf, ehtimol, chamasi, tabiiy, shart, odatda* kabilari oʻz asl leksik maʼnosini saqlagan holda modal soʻz sifatida qoʻllaniladi, yaʼni yuqoridagi soʻzlar kabi leksik maʼnosi oʻzgarmagan. Balki, shuning uchun ham baʼzi manbalarda shu va shu tipdagi soʻzlar modal soʻzlar emas, asli mustaqil soʻzlar ekani taʼkidlangan [13, 156]. Shuningdek, bu turdagi soʻzlarni ayrim olimlar mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqanini, yaʼni shakllanib boʻlganini eʼtirof etishsa, [8, 128], baʼzilari “modallik jilosiga ega soʻzlar” sifatida baholaydilar [3, 165]. Yana shuni ham aytib oʻtish lozimki, ushbu modal soʻzlar alohida yakka oʻzlari olinsa, mustaqil soʻz turkumlaridan toʻliq ajralmagani maʼlum boʻladi. Shuning uchun ham ushbu tipdagi modal soʻzlarni B. Mengliyev “modallashgan” soʻzlar deya baholagan edi [5, 71]. Qanday baholanishidan qatʼiy nazar tilda mavjud va modal soʻzlar oʻlaroq juda faol qoʻllaniladi, biroq ushbu soʻzlarda modal soʻzlarga koʻchish jarayoni toʻliq nihoyasiga yetmagan. Ulardagi mustaqil soʻzlardan ajralib, sinkretik koʻchish usuli asosida modallarga siljigan deyish mumkin. “Sinkretik koʻchishda mazmuniy va formal tomonlari aynan boʻlgan til birliklari ikki yoki undan ortiq maʼno va funksiyaga ega boʻlishi mumkin” [3, 87]. Lekin, aftidan, ularda koʻchish jarayoni toʻliq nihoyasiga yetmagani uchun ham tilimizda ikki funksiyada qoʻllanaveradi. Ushbu tipdagi modallar diaxron emas, sinxron (yani hozirgi davrda) koʻchishga misollar hisoblanadi.

Shuningdek, yaxshiki, boringki, koʻrinadiki singari modal soʻzlarda -ki qoʻshimcha-yuklamasini ham ajratib boʻlmaydi. Umuman, ushbu yuklama modal soʻzlar shakllanishida juda muhim roʻl oʻynaydi va bulardan tashqari koʻpgina modal soʻzlarga qoʻshilib keladi. Baʼzilarida modal soʻzdan ajratish ham mumkin, lekin har qanday holatda oʻzining kuchaytiruv - taʼkid maʼnosini saqlaydi. Buning asosiy sababi modal soʻzning jumlar tarkibida qoʻllanganda oldin ham aytib oʻtganimizdek mantiqiy yoki hissiy urgʻu olishidir. Oʻzbek tilida ifoda urgʻusining modal soʻzlar va modal soʻz vazifasini bajaruvchi leksik birliklar qismiga toʻgʻri kelishi va balandroq talaffuz qilinishi modallikka bagʻishlangan lingvistik tadqiqotda taʼkidlangan [14,62].

Maʼlumki, modal soʻzlarning asosiy semantik-funksional vazifasi jumlar tarkibidagi subyektiv modallikni ifodalash hisoblanadi. Ularning tilda qatʼiy belgilangan sintaktik vazifasi mavjud: kirish soʻz boʻlib kelish. Biroq *kerak, lozim* va shu kabilarning sintaktik pozitsiyasi boshqacha. Bularning boshqa modal soʻzlardan eng yorqin farqi ularning kirish soʻzlari sifatida ishlatilmasligidir. Buning natijasida qayd etilganidek, ushbu soʻzlar obyektiv modallik ifodalaydi

[6,112]. Aslida, obyektiv va subyektiv modallikni o‘zaro ajratish qiyin, ular aslida bir modallik atalmish konseptning ikki tomonidir. S. Boymirzayeva aytganidek, “obyektiv va subyektiv modallik yagona bir kategoriyaning ikki, bir-birini taqozo etuvchi ikki qirrasidir. Ular o‘zaro munosabatda bo‘ladi, lekin bir nuqtada kesishmaydi [2, 15]. Lekin biz nutqimizda ishlatadigan ba‘zi gaplarda ular o‘zaro juda yaqin keladi. Jumladan, *Bugun yomg‘ir yog‘maydi shekilli va Bugun yomg‘ir yog‘masa kerak* gaplari o‘zaro kichik ma‘no ottenkalari bilan farq qiladi. Ularning birinchisida subyektiv modallik ikkinchisida obyektiv modallik mavjud. Ularning o‘zaro sintaktik sinonimlarni hosil qilishi ham obyektiv va subyektiv modallikning bir-biriga juda yaqin tushunchalar ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu gaplarda deyarli bir xil modal ma‘no ifodalanishi ikki so‘zning ham bir turkumdagi so‘z ekanligiga dalildir.

Xulosa. Biz ularning chegarasi va tasnifi masalasiga to‘liq va yakuniy yechim topamiz deb da‘vo qilmaymiz, lekin modal so‘zlarni bugungi kun nuqtayi nazaridan alohida so‘z turkumi sifatida aniqlab, tasniflashga oid bir qancha fikrlarni bildirishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. O‘zbek tilshunosligida modal so‘zlarga oid materiallarni o‘rganish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, ularning chegarasi hanuz aniq belgilanmagan. Ma‘lumki, modal so‘zlarning asosiy semantik-funksional vazifasi jumlar tarkibidagi subyektiv modallikni ifodalash – modusni shakllantirish hisoblanadi. Modal so‘zlar mustaqil so‘z turkumlaridan shakllangan. Lekin ularning etimologiyasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Ma‘nosi tarkibida modal ma‘no ottenkalari mavjud yoki iste‘molchilar tomonidan shunday okkozional ma‘no yuklangan va bu boshqalar tomonidan qabul qilingan so‘zlardan modal so‘zlar shakllangan. Ayrim modal so‘zlar bir emas, ikki xil ma‘no anglatishi mumkin. Umuman olganda, ma‘lum bir modal so‘zning ma‘nosi nutqda qo‘llanganda, nutq vaziyatida ma‘lum aniq namoyon bo‘ladi. Lekin ayrim modal so‘zlar bir-biridan mutlaqo farqli ikki ma‘noga egadir.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Балли Шарль. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: 1955.
2. Боймирзаева С. Матн модаллиги. Монография. – Тошкент: Фан, 2010.
3. Елтазаров Ж. Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. Монография. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
4. Мадраҳимов И.С. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. Фил. фан. ном. диссертацияси. - Тошкент: 1994.
5. Mengliyev V. Hozirgi o‘zbek tili fanidan ma‘ruza matnlari. – Toshkent: 2012.
6. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжайева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992.
7. Кўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар . (Марузлалар матни). II қисм.
8. Rahmatullayev Sh. Hozigi adabiy o‘zbek tili. Darslik – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006.
9. Турниёзов Н., Турниёзова К., Функционал синтаксисга кириш. Монография.-Тошкент: Фан, 2003.
10. Виноградов В.В. Русский язык. – Москва: Висшая школа, 1972 г.
11. Ўзбек тили лексикологияси . Тошкент, ЎзФА Фан, 1981.
12. Орехова Е.Н., Субъективная модальность высказывания: форма, семантика, функции. Автореферат докторской диссертации. Москва, 2011.
13. Ғуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
14. Йигиталиева З. М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши, Фил. фан. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона. 2020.
15. Зеленщиков, А.В. Пропозиция и модальность [Текст] / А.В. Зеленщиков. – СПб.: Изд-во С.-Петербур, 1997.

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

“XAZOYIN UL-MAONIY” TEKSTLARINI O‘RGANISH VA NASHRGA TAYYORLASHNING ASOSIY MASALALARI¹

Hamid SULAYMON

Maqolani nashrga tayyorlovchi:

Oysara MADALIYEVA,

O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, PhD (O‘zbekiston).

E-mail: oysara19@gmail.com

ORCID: [0009-0008-0932-9570](https://orcid.org/0009-0008-0932-9570)

Hamid Sulaymonning (1910–1979) «Alisher Navoiy (1441–1501) lirikasi matnshunoslik tadqiqi» («Tekstologicheskoye issledovaniye liriki Alishera Navoi») nomli doktorlik dissertatsiyasini yozish asnosida bir qancha yirik amaliy ishlarni ham bajarganiga yaqin tariximiz guvohdir. Olimning xorij fondlarida saqlanayotgan nodir qo‘lyozmalarning mikrofilmlarini yurtimizga olib kelishi, ushbu nusxalar asosida «Xazoyin ul-maoniy»ning dastlabki mukammal nashrini amalga oshirishi shular jumlasidandir. E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqola ana shu ulkan xizmatlarning ma’lum qismi haqida ma’lumot bera oladi.

Mazkur maqola «Xazoyin ul-maoniy»ning H.Sulaymon tomonidan tayyorlangan to‘rt tomdan iborat akademik nashriga kirish tadqiqoti sifatida yozilgan. 1959–60- yillarda dunyo yuzini ko‘rgan ushbu nashrning adadi o‘n ming nusxani tashkil etib, ayni paytda noyob kitoblar sirasiga kiradi. Shu ma’noda, nashrning birinchi tomi – «G‘aroyib us-sig‘ar»da 1959-yil H.Sulaymon tomonidan yozilgan «Xazoyin ul-maoniy» tekstlarini o‘rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari» nomli kirish tadqiqoti hozirda sohaning yosh mutaxassislariga ham yetib borishi ko‘zda tutilib, qayta chop etilishi maqsadga muvofiq ko‘rildi.

Ushbu tadqiqot H.Sulaymonning rus tilida yozilgan doktorlik dissertatsiyasining o‘zbek tilidagi qisqartirilgan shakli sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Ammo eslatib o‘tish joiz, mazkur maqolada ochiq qolgan ba’zi masalalar mavjud bo‘lib, ular olimning dissertatsiyasida o‘z yechimini topgan. Shuningdek, maqoladan 1959-yildayoq “G‘aroyib us-sig‘ar”dan to “Favoyid ul-kibar”gacha barcha tomlarning tayyor bo‘lgani, ularning nashriyotdagi tashkiliy ishlari sababgina so‘nggi jild 1960-yilda chop qilingani ayon bo‘ladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot Alisher Navoiy lirikasi tarixi, ushbu she’riyat matnining qo‘lyozma manbalari, ularning qiyosiy tahlili, tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarga o‘z davriga ko‘ra dastlabki va to‘g‘ri yechim ko‘rsatgan mukammal ilmiy ish sifatida baholanishga loyiq.

Maqola sobiq Ittifoq davrida yozilgani bois unda o‘sha davr talabi va ruhiyatini aks ettiruvchi so‘z yoki jumlarlar uchrashi tabiiydir. Biz nashrga tayyorlovchi sifatida muallifning uslubini asliyatdagidek saqlashni, unga dahl qilmaslikni afzal bildik.

Annotatsiya: “Xazoyin ul-maoniy”ning 1959–60- yillarda amalga oshirilgan nashriga kirish tadqiqoti sifatida yozilgan ushbu maqola muallif tomonidan besh qismga ajratilgan. Har bir

¹ Maqola dastlab nashr etilgan manba: Сулаймонов Х, «Хазойинул-маоний» текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари // Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. II том: Фаройибус-сиғар. Тошкент: «Ўз ССР ФА нашриёти», 1959. – Б. V-XXVII.

qismda Alisher Navoiy lirikasi tarixi bilan bog‘liq kamida bir yoki bir necha masalaga oydinlik kiritiladi. Maqolada o‘z yechimini topgan muammolar faqat manbashunoslik va matn tarixi bilan bog‘liq bo‘lmay, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid ayrim muhim masalalarni ham qamrab olgan. Xususan, unda Navoiy lirikasini o‘zida saqlab kelayotgan nodir qo‘lyozmalar haqidagi muhim bahslar, ularga ko‘ra shoir lirikasini davrlashtirish masalalaridan tortib, ushbu lirikaning til xususiyatlari – lug‘at tarkibi, matnning transkripsion va transliteratsion jihatlari, shuningdek, she‘rlarning vazniga tegishli dastlabki ilmiy farazlar va xulosalar bilan tanishish mumkin.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Navoiy lirikasi matnshunosligi, “Xazoyin ul-maoniy”, Navoiy lirikasi tarixini davrlashtirish, Navoiy lirikasi matnini nashrga tayyorlash.*

ОСНОВНЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ И ПОДГОТОВКИ К ИЗДАНИЮ ТЕКСТОВ «ХАЗА’ИН АЛ-МА’АНИ»

Аннотация. Данная статья, являющаяся вступлением к четырёхтомному «Хазз’ин ал-ма’ани», изданному в 1959–60-х годах, разделена автором статьи на пять частей. Каждая часть освещает одну или несколько аспектов из истории лирики Алишера Навои. Рассматриваемые в статье проблемы не ограничивались исключительно сферой источниковедения и историей текста, но также охватывали важные вопросы языкознания и литературоведения. В частности, в ней содержатся важные рассуждения о редких рукописных списках поэзии Навои, выводы о периодизации лирики поэта и её языковых особенностях – лексике, транскрипции и transliterации текста, представлены предварительные научные гипотезы и заключения о стихотворных размерах стихов.

Ключевые слова: *Алишер Навои, текстология лирики Навои, «Хазз’ин ал-ма’ани», периодизация истории лирики Навои, подготовка текста лирики Навои к изданию.*

THE MAIN ISSUES OF STUDYING AND PREPARING FOR PUBLICATION THE TEXTS OF “KHAZA’IN AL-MA’ANI”

Abstract: The present article is a reprint of the research introduction by the prominent scholar-textologist Hamid Suleymanov (1910–1979) to the four-volume work *Khaza'in al-ma'ani*, which was published in 1959–the 60s. The author divided this introduction into five parts, each covering one or more aspects of the history of the lyrics of Alisher Navoi (1441–1501). The problems raised in the article were not limited exclusively to the sphere of source studies and the history of the text but also covered important issues of linguistics and literary studies of the Navoi texts under consideration. In particular, it contained important discussions of rare manuscript folios of Navoi's poetry, based on which H. Suleymanov concluded the periodization of the poet's lyrics and its linguistic peculiarities (lexicon, transcription, and transliteration of the text), as well as proposed preliminary scientific hypotheses and conclusions about the verse sizes of the presented poetic samples.

Key words: *Alisher Navoi, textology of Navoi lyrics, ‘Khaza'in al-Ma'ani’, periodisation of the history of Navoi lyrics, preparation of Navoi lyrics for publication.*

I

Alisher Navoiy (1441–1501) jahon adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. U yuqori kamolot bosqichidagi buyuk aql egasi – chin ma’nosi bilan genial shoir, mutafakkir va ulug‘ gumanist edi. Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining progressiv adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga zo‘r ta’sir ko‘rsatib keldi.

O‘zbek adabiyoti va adabiy tili so‘nggi besh asr ichida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg‘or traditsiyalarini davom ettirdi; o‘zbek adabiyotining deyarli barcha vakillari Navoiy asarlarida tarbiya topgan va ulg‘aygan. Shuning uchun ham adabiyotimiz tarixini yaratmoqchi bo‘lar ekanmiz, birinchi navbatda, Navoiy merosini chuqur o‘rganishimiz, shoir ijodining nazariy masalalarini hal qilish uchun hammadan avval uning asarlarining eng to‘liq va eng ishonchli tekstiga ega bo‘lishimiz kerak.

Mamlakatimizda Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi g‘alaba qozongandan keyingina shoirning hayoti va ijodi chinakam ilmiy asosda o‘rganila boshlandi. Uning asarlarini xalq o‘rtasida keng propaganda qilishga kirishildi. So‘nggi yigirma yil ichida shoirning hayoti va adabiy faoliyati haqida qator ilmiy-tekshirish ishlari va maqolalar e‘lon qilindi¹. Shu jumladan Navoiy haqida o‘n yetti kandidatlik va ikkita doktorlik dissertatsiyasi yozilib yoqlandi². Oqibatda, sovet olimlarining olib borgan samarali ishlari natijasida, oz muddat ichida, Alisher Navoiy haqida yangi yosh fan – navoiyshunoslik yaratildi.

Bugun navoiyshunoslik oldida turgan va, birinchi navbatda, hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalardan biri shoir asarlarining ishonchli va mukammal (akademik) tekstini tuzib, xalqqa va fanga tezroq taqdim etishdir. Chunki shoir asarlarining xatolardan soqit qilingan ishonchli va mukammal nusxasiga ega bo‘lmay turib, uning ijodi ustida jiddiy muhokama yuritish yoki nazariy xulosalar chiqarish qiyindir.

Ma‘lumki, Alisher Navoiyning o‘z qo‘li bilan yozilgan birorta asari (avtografi) hozirgacha topilmagan. Shoir asarlari besh asr davomida turli saviyada bo‘lgan har xil sotsial tabaqa vakillari tarafidan qo‘lda ko‘chirilib, xalq o‘rtasida qo‘lyozma shaklida tarqalgan³. Tabiiy, bu qo‘lyozmalar biridan biri ko‘chirila borgan sari xatolari ham ko‘paya borgan. Ammo bizgacha yetib kelgan Navoiy qo‘lyozma asarlarining eng ko‘pi XIX asrda ko‘chirilgan bo‘lib, son-sanoqsiz xatolarga ega bo‘lsa, qolganlari qadimiy asr yodgorliklari bo‘lib, ularda xatolar kamroq uchraydi.

Oktabrgacha Alisher Navoiy asarlari teksti tanqidiy o‘rganilmagan. Shoir asarlari ustidagi tekstologik tadqiqotlar faqat sovet davrida – qirqinchi yillar o‘rtasida boshlandi. 1944–1953-yillarda Navoiy poetik asarlaridan “Xamsa”ga kirgan uch dostonning ilmiy-tanqidiy teksti tuzilib bitdi⁴. 1948–1958-yillar orasida esa shoirning prozaik asarlaridan “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulub”, «Holoti pahlavon Muhammad», «Holoti Sayid Hasan Ardasher» va “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy tekstlari tuzildi⁵. Shu tanqidiy tekstlar va qator qadimiy mu‘tabar

¹ Сборник, «Мир-Али-Шир», редактор издания академик В. В. Бартольд, Ленинград, 1928 г.; А. Шарафутдинов, «Алишер Навоий» (биографик очерк), Тошкент, 1939 й.; Сборник, «Родоначальник узбекской литературы», Ташкент, 1940г.; Сборник, «Алишер Навоий», под редакцией члена корреспондента Академии Наук СССР проф. А. К. Боровкова, М-Л, 1946 г.; Сборник, «Великий узбекский поэт», под редакцией действительного члена АН узССР АЙБЕКА, Ташкент, 1948 г.; Проф. Е. Э. Бертельс, «Навои», М-Л, 1948 г. va boshqalar.

² Проф. В. Й. Зоҳидов, «Алишер Навоийнинг фалсафий қарашлари», 1946 й. (док. диссертация); проф. А. Г. Саади, «Алишер Навоий ўзбек классик адабиёти тараққиётининг олий чўққиси сифатида» (док. диссертация), Тошкент, 1950 й.; М. Шайхзода, «Навоийда лирик қаҳрамон характеристикаси ва уни очиб бериш прёмлари («Ғаройиб ус-сигар» девони асосида)», Тошкент, 1948 й.; Содиқ Мирзаев, «Навоий арузи», Тошкент, 1948 й. va boshqalar.

³ Sovet Ittifoqi (Toshkent, Leningrad, Stalinobod, Boku, Yerevan, Tbilisi va boshqa shaharlar) va chet el (London, Oksford, Parij, Nyu-York va boshqa shaharlar) fondlarida saqlanayotgan Navoiy qo‘lyozma devonlaridan biz o‘rganganlarning soni hozircha 225 ga bordi. Bular ichida 16 tasi XV asr, Hirot nusxasidir.

⁴ “Xamsa”ning ilmiy-tanqidiy tekstini filologiya fanlari kandidatları G‘. K. Karimov (“Layli va Majnun”, 1944-y.), S. Mutallibov (“Hayrat ul-abror”, 1945-y.) va P. Sh. Shamsiyev (“Sab‘ai sayyora”, 1953-y.) tuzganlar.

⁵ Navoiy prozalarining ilmiy-tanqidiy tekstini filologiya fanlari doktori I. O. Sultonov (“Mezon ul-avzon”, 1948-y.); filologiya fanlari doktori, SSSR Fanlar akademiyasining korr. a‘zosi prof. A. N. Kononov (“Mahbub ul-qulub”, 1948-

nusxalar asosida shoirning ko‘pchilik asarlari hozirgi alifbomizda bir necha martaba nashr ham etildi.

Shuni qayd etib o‘tish zarurki, shoir yaratgan ikki shoh asarning biri – “Xamsa” Oktyabrdan so‘ng turli hajmda bir necha martaba chop etilgan bo‘lsa, ikkinchisi – «Xazoyin ul-maoniy»ning¹ taxminan to‘rt dan bir qismi hajmidagi she‘rlari terma devon shaklida ikki martabagina nashr qilingan xolos². Natijada ulug‘ Navoiy yaratgan o‘zbek tilidagi 3132 she‘rdan sovet kitobxoniga faqat 736 tasigina ma‘lum bo‘lib, qolgan 2396 tasi esa hatto bu kungi adabiyot ahliga ham tanish emas.

Navoiy merosini o‘rganish, xususan, uning lirik asarlari bilan xalqimizni to‘liq tanishtirish maqsadida biz “Xazoyin ul-maoniy”ning ilmiy-tanqidiy tekstini eski o‘zbek grafikasida tuzib, akademik nashrini tayyorlashga kirishdik³. Ayni vaqtda shu tanqidiy tekst asosida bugungi joriy alifbomizda “Xazoyin ul-maoniy” devonlarini to‘rt tomda nashrga tayyorlab, muhtaram kitobxonimizga taqdim qila boshladik.

Navoiy poetik asarlarining qariyb yarmini tashkil qilgan uning o‘zbek tilidagi she‘rlari tekstologik jihatdan hozirgacha hech kim tomonidan o‘rganilmay kelgan. Ma‘lumki, Navoiy o‘zining ko‘pchilik asarlarini hayotining oxirgi yillarida yaratgan. Shular qatorida “Xamsa” ham deyarlik qisqa vaqt ichida yozilib bitgan edi. Lekin shoirning lirik asarlari taxminan yarim asr davomida, ya‘ni Navoiy qo‘liga qalam olgandan boshlab hayotining oxirigacha bo‘lgan davr ichida, yaratilgan deyish mumkin. Modomiki, shunday ekan, hech shubha yo‘qki, shoir hayotidagi kundalik hodisalar, shoirning ruhiy kechinmalari, turmush voqealariga bo‘lgan bevosita munosabatlari, xususan uning hayajonli g‘azallari va boshqa sermazmun, jozibali she‘rlarida izchil ravishda aks etgandir. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, “Xazoyin ul-maoniy” til jihatdan ham shoirning boshqa asarlaridan alohida ajralib turadi. “Xazoyin ul-maoniy”da Navoiy boshqa asarlarida uchramaydigan, o‘z davrining jonli tilidan olingan, xalqqa yaqin bo‘lgan so‘z va iboralarni ko‘p ishlatgan. Demak, “Xazoyin ul-maoniy”ning tekstlarini o‘rganish va nashr qildirish o‘zining ma‘rifiy, tarbiyaviy ahamiyatidan tashqari, shoirning dunyoqarashi, badiiy mahorati va til takomilining tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda katta ilmiy-nazariy ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir.

II

Navoiydek ulug‘ san’atkor tomonidan yaratilgan 55 ming misra atrofidagi lirik she‘rlar (“Devoni Foni” qo‘shilib) dunyo adabiyoti tarixida, na Sharqda va na G‘arbda misli ko‘rilmagan darajada ulkan xazinadir. Besh asr davomida xalqimizning ma‘naviy taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelayotgan bu ulug‘ meros avloddan-avlodga o‘tgan sari turli-tuman o‘zgarishlarga yo‘liqib, dastlabki avtor originalidan tobora uzoqlasha borgan va Navoiydan so‘ng hozirgacha, avtor varianti shakli hech kim tomonidan tiklangan emas, hatto hozirgacha Navoiyning o‘zi, o‘zbek

y.); filologiya fanlari kandidatlar A. M. Salye (“Holoti pahlavon Muhammad” va “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, 1945-y.) va Suyuma G‘aniyeva (“Majolis un-nafois”, 1957-y.) tuzganlar.

¹ Navoiyning o‘zbek tilidagi 3132 she‘rini o‘z ichiga olgan to‘rt devoni xalqimiz o‘rtasida “Chor Devon” nomi bilan shuhrat qozongan. Ammo XIX asrgacha bo‘lgan tarixiy manbalarning birontasida ham “Chor Devon” so‘zi uchramadi. Ayni zamonda shoir o‘zining shu to‘rt devonining ijodiy tarixi haqida yozgan debochasida bu to‘rt kitobdan iborat lirik asarlar majmuasiga “Xazoyin ul-maoniy” deb ot qo‘yganini ochiq aytgan. Shuning uchun, biz Navoiyga hech qanday munosabati bo‘lmagan “Chor Devon” iborasi o‘rniga bundan so‘ng “Xazoyin ul-maoniy” iborasini ilmiy iste‘molga kiritishni to‘g‘ri deb topdik.

² Алишер Навоий, «Чор Девон», нашрга тайёрловчилар Собир Абдулла ва Уйғун, Тошкент, 1939 й.; Навоий, Девон, нашрга тайёрловчилар Содиқ Мирзаев ва Ф. Қ. Каримов, Тошкент, 1948 й.

³ “Xazoyin ul-maoniy”ning eski o‘zbek grafikasidagi, to‘liq ilmiy apparat bilan ta‘minlangan, akademik teksti alohida nashr qilinmoqda.

tilidagi she’rlaridan necha martaba devon tuzgani ham bizning adabiyotshunosligimizda ravshan aniqlanmagan edi.

Navoiy asarlaridan xalq o’rtasida eng ko’p tarqalgani va eng ko’p o’qilgani ham uning devonlari bo’lgan. Biz olib borgan tekshirishlar shuni ko’rsatdiki, haqiqatan shoir asarlari ichida ham kitobot, ham tekstlar deformatsiyasi jihatidan g’oyat chalkash va turli buzilishlarga duchor bo’lgani ham uning devonlaridir. Shu haqda bundan 10 yil avval prof. Ye.E. Bertels Navoiy devonining “qo’lyozmalari mundarija jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. Turli redaksiyalar shoir lirikasining tanqidiy nashrini tayyorlashni ancha qiyinlashtiradi. Afsuski, bu masalada hozirgacha hech narsa qilingan emas”¹ degan edi. Masalaning qanchalik murakkabligi ayni zamonda katta sharaflı ish ekanini to’liq his etganim holda, men 1955-yil boshida prof. Ye.E. Bertels rahbarligida Navoiy lirikasi tekstlarini to’plash va o’rganishga kirishgan edim.

Dastlabki tajribalar shuni ko’rsatdiki, Navoiy she’rlarining tekstini o’rganish va nashrga tayyorlashga kirishishdan avval umuman shoir devonlarining turli redaksiyasi, har qaysi redaksiya mundarijasi va chegaralarini aniqlab olish zarur edi. Boshqacha qilib aytganda, bizga yetib kelgan mavjud qo’lyozma devonlar asosida Navoiy devonlari redaksiyasini klassifikatsiyalashtirishga to’g’ri keldi.

Shoir devonlarining qo’lyozmalari ustida uzoq vaqt ishlash, 200 dan ortiq nusxalarni birma-bir sinchiklab tekshirish, turli asrlarda ko’chirilgan har xil tipdagi devonlarni bir-biriga muqoyisa qilish tajribalari shuni ko’rsatdiki, shoirning o’zbek tilida yaratgan 3132 ta she’ri har xil tartib etilgan, turli hajmdagi o’nlab redaksiyalarni tashkil qilgan devonlarga tarqalib ketgan. Mavjud qo’lyozmalar ichida Navoiy she’rlaridan boshqa shaxslar tomonidan tartib etilgan devonlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun, qo’lyozmalarda Navoiyning o’zi tuzgan yoki Navoiy she’rlaridan boshqa shaxslar tomonidan tuzilgan devonlarni ajratish juda ham qiyindir.

Bu qiyinchiliklarni yengish va shoir devonlarining redaksion klassifikatsiyasini to’g’ri hal qilish uchun tekstologik tadqiqotda yangi metodda ish olib borish zaruriyati tug’ildi. Nihoyat biz qo’lyozmalarni qiyosiy o’rganish metodini qabul qildik. Shu metod asosida, Navoiy devonlaridan tadqiqotlarimiz uchun asosiy obyekt sifatida qabul qilingan “Xazoyin ul-maoniy”ning 3132 ta she’riga bittadan kartochka tuzib, har bir she’rning birinchi (matla’) va oxirgi (maqta’) baytlarini shu kartochkalarga ko’chirib chiqdik. Undan so’ng Navoiy devonlaridan turli asrlarda ko’chirilgan turli tipdagi, eng xarakterli va unikal nusxalardan 20 tasini ajratib, har kartochkadagi matla’ va maqta’lar yoniga shu she’rning 20 nusxada bor-yo’qligini qayd qildik. Qo’lyozmalarda topilgan she’rlarning sra raqami, joylashgan varag’i va baytlar sonini kartochkaga yozdik. Oqibatda Navoiyning o’zbek tilida yaratgan lirik merosining XV–XIX asr qo’lyozma yodgorliklari asosida tuzilgan katta qiyosiy tablitsasi vujudga keldi². Navoiy she’rlarining bu qiyosiy tablitsasi bizning tekstologik tadqiqotlarimiz uchun g’oyat muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo’lgan natijalar berdi. Navoiy merosini o’rganishda hozirgacha fanda ma’lum bo’lmagan yangiliklarni ochdi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Faqat shu qiyosiy tablitsa tufayligina hozirgacha fanda ma’lum bo’lmagan shoirning birinchi devoni “Badoe’ ul-bidoya”, ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya” nusxalari topildi va bu devonlarning mazmuni, mundarijasi, tuzilish prinsiplari aniqlandi.

2. Qiyosiy tablitsa Navoiyning uchinchi devoni bo’lmish “Xazoyin ul-maoniy”ning avtor redaksiyasini batamom tiklashga to’liq imkon tug’dirdi.

¹ Е.Э. Бертельс, Навоий, М-Л., 1948 й., 111-бет.

² Bu qiyosiy tablitsa men nashrga tayorlayotgan monografiya – “Xazoyin ul-maoniy” ustida olib borilgan tekstologik tadqiqotlar»da bosilib chiqadi.

3. Qiyosiy tablitsa yordamidagina Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining shajarasi aniqlandi.

4. Qiyosiy tablitsa Navoiyning o‘zbek tilidagi devonlari redaksiyasini klassifikatsiya qilishga yordam berdi.

5. Qiyosiy tablitsa asosidagina, Navoiy merosini o‘rganishda eng og‘ir problemalardan biri bo‘lgan, Navoiy she‘rlarini xronologik davrlarga ajratish kabi masalada birinchi tajriba o‘tkazish mumkin bo‘ldi.

6. Qiyosiy tablitsa yordamida Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”ga kirmay qolgan 32 she‘ri topildi.

Qiyosiy tablitsa yordamida aniqlangan Navoiy devonlarining besh redaksiyasi ularning xronologik tartibi va qisqa mazmuni tubandagicha:

I Redaksiya – ilk devonlar. Shoirning yoshlik davrida dastlabki yozgan she‘rlari xalq o‘rtasida keng tarqalgani, adabiy suhbatlarda sevilib o‘qilgani, kuylarga solib ashula qilingani ma‘lum¹. Ayni zamonda Hirotning poeziya havaskorlari Navoiyning ilk she‘rlaridan devonlar ham tuzganlar. Shu tipdagi ilk devonlardan bir unikal nusxasi bizgacha kelib yetgan. Bu devon 870=1465/66 yillar o‘rtasida, Navoiy taxminan 25 yoshlarida ekan chog‘ida, Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan².

II Redaksiya – “Badoyi’ ul-bidoya” بدایع البدایه devoni.

Huroson hokimi Abusaid mag‘lubiyatga yo‘liqib, uning o‘rniga Sulton Husayn hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng (1479) Navoiy o‘zining birinchi devoni “Badoyi’ ul-bidoya”ni tuzgan. Londonning Britaniya muzeyida 401-inventar nomeri ostida saqlanayotgan qo‘lyozma devon Navoiyning o‘zi tomonidan birinchi martaba tuzalgan “Badoyi’ ul bidoya” devoni nusxasi bo‘lib chiqdi. Bu nusxa ichida xuddi shu “Badoyi’ ul-bidoya” uchun yozilgan

فصاحت دیوانی نینک غزل سراپلاری طبع مخذنی دین

so‘zlari bilan boshlanadigan debocha ham bor. “Badoyi’ ul bidoya”ning London nusxasi 887=1482/83 yilda ko‘chirilgan, u vaqtda shoir taxminan 41 yoshlarda edi. Qiyosiy tablitsa yordamida “Badoyi’ ul bidoya”ning yana ikki qadimiy Hirot nusxasini aniqlash mumkin bo‘ldi. Bulardan biri Bokuda³, ikkinchisi esa Toshkentda⁴ saqlanayotir.

III Redaksiya – “Navodir un-nihoya” نواذیر النہایه devoni.

O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 1995-inventar nomeri ostida saqlanayotgan Navoiy qo‘lyozma devoni boshqa hamma devonlardan ham mazmun, ham tuzilish jihatidan prinsipial farq qiladi. Tekshirishlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, bu devon “Badoyi’ ul-bidoya”dan keyin tuzilib, o‘z ichiga shoirning taxminan 1476–1486-yillar o‘rtasida yaratilgan ko‘pchilik she‘rlarini oladi. Xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Sulton Husayn xazinasi uchun ko‘chirilgan bu unikal nusxadagi 693 she‘rning birontasi ham “Badoyi’ ul-bidoya” devonida uchramaydi. Demak, bu qo‘lyozma shoir tomonidan “Badoyi’ ul-bidoya”dan so‘ng va “Xazoyin ul-maoniy”dan avval tuzilgan ikkinchi devon – “Navodir un-nihoya” ekaniga qat’iy ishonish mumkin. Devondagi g‘azallar oxirida kotib tomonidan yozilgan shunday bir bayt bor:

Biavnil malikil-majid,

Tugondi devoni jadid.

¹ “Xazoyin ul-maoniy” debochasiga qarang.

² Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi (hozirda Rossiya milliy kutubxonasi – O.M.), qo‘lyozma № 564.

³ Boku, Ozarbayjon Bilimlar Akademiyasining Respublika qo‘lyozmalar fondi, qo‘lyozma № 3010.

⁴ Toshkent, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi huzuridagi adabiyot muzeyi, qo‘lyozma № 84.

Bu baytdan “devoni jadid”, ya’ni “yangi devon” soʻzida bizning fikrimizcha, shoirning ikkinchi devoni – shu “Navodir un-nihoya” koʻzda tutilgan. Afsuski, bu nusxa ichida shoirning shu “Navodir un-nihoya” devoni uchun yozgan debochasi yoʻq¹. Hozircha bizga maʼlum boʻlgan qoʻlyozmalar ichida “Navodir un-nihoya” ning boshqa nusxasi topilmadi.

IV Redaksiya – “Xazoyin ul-maoniy” خزاین المعانی.

1492–1498-yillar oʻrtasida Navoiy oʻzining avvalgi ikki devoni “Badoyi’ ul-bidoya” bilan “Navodir un-nihoya”dagi sheʼrlariga bu ikki devondan soʻng yaratilgan sheʼrlarni qoʻshib, XV asr poyeziyasining buyuk epopeyasi hisoblangan 44901 misradan iborat toʻrt qismli “Xazoyin ul-maoniy” devonini tuzdi. Bu kitobni shoir oʻzi bosib oʻtgan hayot yoʻlining toʻrt davriga (bolalik, yigitlik, oʻrta yosh va qarilik) moslashtirib, toʻrt devonga ajratgan. Birinchi devonni – “Gʻaroyibus-sigʻar” غرایب الصغر, ikkinchi devonni – “Navodir ush-shabob” نوادر الشباب, uchinchi devonni – “Badoyi’ ul-vasat” بدایع الوسط, toʻrtinchi devonni esa “Favoyid ul-kibar” فواید الکبر deb atagan.

Nihoyat Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ning ijodiy tarixini bayon qiluvchi maxsus debocha (kirish soʻzi) yozib, oʻzbek tilidagi lirik asarlari majmuasini tugalladi. Bu debocha

شکر و سپاس اول قادر غه کیم جون عدم آسایشکاهی دین وجود آرایش آکاهلاریغه جلوه بیردی
soʻzlari bilan boshlanadi.

Shoirning qariyb yarim asr davomida yaratgan sheʼrlari umrining oxiriga kelganda hayotning toʻrt davriga moslashtirib, toʻrt kitobga ajratishi tabiiy gʻoyat shartli bir hodisadir. Biroq shunga qaramay, “Xazoyin ul-maoniy”ning toʻrt kitobi oʻz zamonasining devon tartib etish traditsiyalari va qonun-qoidalariga toʻliq rioya qilgan holda zoʻr diqqat bilan tuzilgan va juda puxta kompozitsiyaga egadir.

V Redaksiya – Terma devonlar. Shoir hayot vaqtidayoq uning sheʼrlaridan boshqa shaxslar turli hajm va turli tartibdan devonlar tuza boshlagan. Bulardan tashqari, Navoiy sheʼrlarida tematik fragmentlar (baytlar) toʻplami ham tuzilganligi maʼlum². Ayniqsa, Navoiydan soʻnggi asrlarda uning sheʼrlaridan terma devonlar tuzish adabiyotimiz tarixida maʼlum bir traditsiya tusini olib qoladi.

Shunday qilib, Navoiy devonlarining biz aniqlay olgan besh redaksiyasini yana ikki asosiy gruppalariga boʻlish mumkin: birinchisi, shoirning oʻzi tuzgan devonlar redaksiyasi (II, III, IV), ikkinchisi esa boshqa shaxslar tomonidan (Navoiydan avval va Navoiydan soʻng) tuzilgan terma devonlar (I, V) redaksiyasidir³.

¹ Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” debochasida “Navodirun-nihoya” devoni haqida “... dogʻi ikkinchi devonimkim «Navodirun-nihoya»ga mashhurdir, rabt va tartib berib, debochasida sharx bilan aazzi asʻhob va ajillan ahbob xizmatlarida arz qilib erdim», degan edi. Shu parchadan “Navodir un-nihoya” devoni uchun ham shoirning debocha yozgani bizga maʼlum boʻldi.

² Navoiy baytlaridan tuzilgan «Tuhfatus-salotun» toʻplami (London, Britaniya muzeyi) shular jumlasidandir.

³ Toshkent, OʻzFA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida saqlanayotgan Sultonali Mashhadiy tomonidan koʻchirilgan 790 va 3984 inventar nomerli Navoiy devonlarini prof. A. A. Semenov birinchisini “Gʻaroyib us-sigʻar”, ikkinchisini esa “Chor devon” deb taʼriflagan (Sobraniye vostochnyx rukopisey Akademii Nauk Uzbekskoy SSR, tom II, opisaniye № 1264, 1281). Semenovning bu fikri notoʻgʻri boʻlib chiqdi. Haqiqatda esa bu ikki qoʻlyozma Navoiy zamonasida tuzilgan tipik terma devonlardan boʻlib, shoir devonlarining beshinchi redaksiyasiga kiradi.

S. L. Volin, Navoiy hayotining oxirida “Xazoyin ul-maoniy”ning toʻrt devonidagi eng yaxshi sheʼrlaridan yana bir terma devon tuzib, uning otini “Maxzanul-maoniy” deb atagan, deydi. Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonadagi 558 inv. nomerli qoʻlyozmadagi har gʻazaliga “Gʻaroyib us-sigʻar”dan, “Navodir ush-shabob”dan, “Badoe’ ul-vasat”dan, “Favoyid ul-kibar”dan deb sarlavha qoʻyilgan devon Navoiy aytgan “Maxzanul-maoniy” nusxasi boʻlsa kerak» deydi. (qarang: S. L. C. Л. Волин, Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях, Сборник, Алишер Навои, М-Л., 1946 г., стр. 221). Volinning bu fikrini davom ettirib, prof. Ye.E. Bertels ham «Nihoyat, hayotining soʻnggi yillarida (1498–1499-yillar atrofida) Navoiy yana oʻz lirikasini qoʻlga olib, eng yaxshi sheʼrlaridan terma devon tuzgan» deb tasdiqlaydi (qarang: E.Э. Бертельс, Навои, Москва,

III

Navoiy yaratgan o‘zbek tilidagi she’rlarning ilmiy-tanqidiy tekstini tuzishda shoir devonlarining hamma besh redaksiyasi tekstlaridan foydalanishni to‘g‘ri deb topdik va foydalandik. Ammo tekshirishlarimiz uchun devon tanlash masalasiga kelganda biz shoirning o‘zi tuzgan devonlarigagina suyandik, ular ichidan barcha tekstologik tadqiqotlarimiz uchun to‘rtinchi redaksiya namunasi – “Xazoyin ul-maoniy”ni qabul qildik. Bizning barcha ilmiy xulosalarimiz ham shu “Xazoyin ul-maoniy” asosiga qurildi.

Navoiy hayotining so‘nggi yillarida, shoirning o‘z tili bilan aytganda, “ellik bila oltmish yaqinig‘a yetkanda” umri bo‘yi yaratgan o‘zbek tilidagi she’rlarini bir yerga to‘plab, kelajak avlod uchun yaxlit, tugallangan bir poyetik yodgorlik qoldirishga qaror qiladi. Bu haqda shoir “Xazoyin ul-maoniy”ga yozgan debochasida o‘zining avval tartib etgan ikki devoni – “Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”dan so‘ng “... oz vaqtda ko‘p she’r aytili va har nav nazm tegaramga yig‘ildi”, deydi; bu “... yig‘ilg‘on ash‘orning va nazm silkiga tortilg‘on durri javohirning adadi burung‘i devonlardin ortqon chog‘lig‘ durur, va bu latofat sifat xo‘blar va malohat siymot mahublar bila yana ikki devon tartib bersa bo‘lurdek ma‘lum bo‘ladur”, deb ta‘kidlagan edi.

O‘z-o‘zidan ma‘lumki, Navoiy umri bo‘yi qalbida saqlagan orzu-tilaklari, hayotga, insonga bo‘lgan cheksiz muhabbatining ifodachisi – yuzlab g‘azallari, adolat va mardlikka chaqiruvchi minglab baytlari taqdiriga e‘tiborsiz qaray olmagan. Shoir o‘z she’rlarining kelajak avlodning ma‘naviy taraqqiyoti va tarbiyasi uchun xizmat qilishini istaydi. “Badoyi’ ul-bidoya” bilan “Navodir un-nihoya” devorlaridan so‘ng yaratilgan she’rlarini tartibga solib, ularni ham bir “guldasta” shaklida jam qilish zarurligi, aks holda bu so‘nggi she’rlar hayotning turli ko‘ngilsiz hodisalari bilan sovurilib yo‘qolib ketishi mumkin ekanini ko‘rsatib, o‘z debochasida shoir yana shularni yozgan “Va ikki murattab bo‘lg‘on devonlardin yangi aytilg‘on abyot adadi aksar va har bayti lafz va ma‘ni bilan durjliq gavhar demayinkim, shu‘laliq ozar xotirig‘a kelur erdikim, agar bu avroqqa rabt va tartib berilmasa, har havodis tundbodi esgach, har sahifasini biryon sovurg‘ay va agar bu gul barglarni zebu oyin bila bir guldasta bog‘lanmasa, bir navoyib nasimi yetgach, har varaqni biryon uchurgay”. Natijada Alisher Navoiy avvalgi ikki devoniga kirgan she’rlar yoniga so‘nggi vaqtlarda yozilgan 1396 she’rini qo‘shib katta lirik to‘plam (svod) tuzadi va to‘planning “... otin «Xazoyin ul-maoniy» qo‘yuldi»¹ deydi.

Navoiy o‘zining “Munshaot” asarida ham “Xazoyin ul-maoniy”ning ijodiy tarixiga to‘xtab, bu asar Abdurahmon Jomiy maslahati bilan to‘rt devonga bo‘linganligini aytgan. Ayni zamonda shoir o‘zigacha bo‘lgan adabiyot tarixida to‘rt devondan iborat lirik kitob qoldirgan shoir bo‘lmaganligi, Husrav Dehlaviy o‘z she’rlaridan to‘rt devon tuzgan, degan xabarni eshitgan bo‘lsa ham amalda bunday devon yo‘qligi yoki umuman yaratilmaganligi to‘g‘risida “Xazoyin ul-maoniy” debochasida yana shularni yozgan: “... nazm harimining xoslari va she’r bahrining g‘avvoslari kim ruhparvar navolig‘ anfoslaridan zamona bazmi to‘libtur va xayol daryosidin chiqorg‘on qiymati gavharlaridan davron libosi javohir bila murassa bo‘lubtur, hech qaysi so‘z olarning rub‘i maskunin ola olmaydur va to‘rt gavhardin murakkab bo‘lg‘on bashar xaylining hech qaysisidin to‘rt devon yodgor qolmaydur. Bir o‘z asrida ganji ma‘naviy Mir Hisrav Dehlaviy derlarkim, Sulton Malikshoh Olp Arslon otig‘a to‘rt devon murattab qilmish bo‘lg‘ay va xotimasini aning oti bilan muzayyan etmish bo‘lg‘ay va bu ishi ul zamonning yaxshi-yomoni

1946 г. стр. 111). Qo‘lyozma manba‘lar bu fikrning xato ekanini ko‘rsatdi; Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”dan so‘ng “Maxzanul-maoniy” ismli terma devon tuzgan emas. S.L. Volin ko‘rsatgan Leningrad fondidagi 558-nomerli qo‘lyozma devon yuqorida biz aytgan beshinchi redaksiyaga taalluqli terma devonlardandir.

¹ “Xazoyin ul-maoniy” debochasiga qarang.

qulog‘ig‘a yetmish bo‘lg‘ay, agarchi bu so‘z mazkurdir, ammo ul devonlar ma‘dumdur. Va ul ma‘dumlarning agarchi osomiysi mavjuddur, ammo vujudi noma‘lumdur”. Navoiy o‘z zamondoshi va ustoz Abdurahmon Jomiy maslahati bilan to‘rt devondan murakkab “Xazoyin ul-maoniy” kitobini tuzishga kirishar ekan, bu to‘rt devon uchun o‘z yoshining turli davrlariga moslashtirib qo‘ygan nomlari haqida shunday degan: “To‘rt faslning muqobalasidakim, to‘rt devon voqe bo‘lubtur, har qaysig‘a bir munosib ot dar boist edi. Ul sababdin avvalg‘i devonimkim, tufuliyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzorining bog‘chasining g‘arib chechlari bila orosta bo‘lub erdi, «G‘aroyib us-sig‘ar» deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yigitlik oshuftalig‘ va shabobu olifalig‘ yoziyu dashtida yuzlangan nodir vaqoyi’ bila piyrosta bo‘lub erdi, “Navodir ush-shabob” ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat-ul – hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badii’ nishotlar kayfiyatini yozilib erdi. “Badoyi’ ul-vasat” ot qo‘yuldi. Va to‘rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dardu ranji foyidalarikim, jonso‘z oh urmoqu jon topshurmoqdurkim, anda sabt bo‘lubtur, “Favoyid ul-kibar” laqab berildi».

Navoiy bu to‘rt devonga hayotining to‘rt fasliga moslashtirib nom qo‘yish bilan qanoatlanmagan. Ayni vaqtda u har faslning xronologik chegaralarini yillar bilan ham aniqlagan, ya‘ni har devonga kirgan she‘rlarni qaysi yillar orasida yaratilganligini ko‘rsatib, shoir yana shunday degan:

«Tufuliyat avonikim, yetti-sekkiz yoshdin yigirma yoshqacha chenasa bo‘lg‘aykim, umr fusulining navbahori va hayot gulshanining shukufavu gulzoridur, aning madhida “G‘aroyib us-sig‘ar” bila sarf qildim.

Shabob zamonikim, yigirmadin o‘ttuz beshgacha desa bo‘lg‘aykim, ham bu fusulning yozidururkim, yigitlik chashmasorining hayotbaxshlig‘ining og‘ozidur, aning vasfida “Navodir ush-shabob” bila kechurdim.

Va kuhulat ayyomikim, o‘ttuz beshdin qirq beshga degincha qiyos qilsa bo‘lg‘aykim, bu fusulning xazonidurkim, tiriklik bog‘ining bargrezining nishonidur, aning ta‘rifida “Badoyi’ ul-vasat” bila o‘tkardim.

Va qirq beshdin oltmish yaqinig‘achakim ta‘yin qilsa bo‘lg‘aykim, bu fusulning qishidurkim, kishining xam qad bila adam yo‘lig‘a kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidur, aning duosida “Favoyid ul-kibar” bila nihoyatqa yetkurdum».

“Xazoyin ul-maoniy”ning bizga ma‘lum bo‘lgan 27 qo‘lyozma nusxasining birontasida ham Navoiyning o‘zi tuzgan dastlabki avtor redaksiyasi saqlangan emas. Xatto shoir hayot ekanida Hirotda ko‘chirilib, bizgacha kelib yetgan “Xazoyin ul-maoniy”ning ikki nodir qo‘lyozmasi ham (Leningrad, № 55, Stalinobod, № 1990) juda ko‘p redaksion va tekstual deformatsiyaga egadir. “Xazoyin ul-maoniy” avtor redaksiyasini to‘g‘ri anglashga faqat biz tuzgan qiyosiy tablitsagina yordam berdi. Biz aniqlagan redaksiyaga ko‘ra, to‘rt devondan iborat bo‘lgan “Xazoyin ul-maoniy” lirik to‘plami o‘z ichiga 16 lirik janrda (1-g‘azal, 2-mustazod, 3-muxammas, 4-musaddas, 5-musamman, 6-tarji‘band, 7-tarkibband, 8-masnaviy, 9-qasida, 10-soqiynoma, 11-qit‘a, 12-ruboiy, 13-muammo, 14-chiston, 15-tuyug‘ va 16-fard) yozilgan 3132 she‘rni oladi. Bu she‘rlarning umumiy hajmi 22450,5 bayt yoki 44901 misradan iboratdir. Shu jumladan:

I “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 840 she‘r, 11437 misra.

II “Navodir ush-shabob” devonida 759 she‘r, 10847 misra.

III “Badoyi’ ul-vasat” devonida 740 she‘r, 10840 misra.

IV “Favoyid ul-kibar” devonida 793 she‘r, 11776 misra. (tab.1 ga qarang).

Tablitsa 1

“XAZOYIN UL-MAONIY”NING ANIQLANGAN AVTOR REDAKSIYASI

Navoiy foydalangan lirik janrlar nomi	“Xazoyin ul-maoniy” devonlarining lirik janrlari, she’rlari va baytlari soni				
	“G‘aroyib us-sig‘ar” devonida	“Navodir ush-shabob” devonida	“Badoyi’ ul-vasat” devonida	“Favoyid ul-kibar” devonida	Jami bo‘lib to‘rt devonda
I G‘azal	650 4975	650 4998	650 5001	650 5029	2600 20003
II Mustazod	1 7	1 7	1 7	1 7	4 28
III Muxammas	3 57,5	3 52,5	2 30	2 37,5	10 177,5
IV Musaddas	1 27	1 27	2 42	1 21	5 117
V Musamman				1 28	1 28
VI Tarji’band	1 100	1 103	1 56	1 110	4 369
VII Tarkibband		1 56			1 56
VIII Masnaviy	1 148				1 148
IX Qasida			1 91		1 91
X Soqiynoma				1 458	1 458
XI Qit’a	50 138	50 126	60 127	50 112	210 503
XII Ruboiy	133 266				133 266
XIII Muammo		52 54			52 54
XIV Chiston			10 40		10 40
XV Tuyug‘			13 26		13 26
XVI Fard				86 86	86 86
“Xazoyinul-maoniy” she’rlarining umumiy hajmi 22450,5 bayt yoki 44901 misra	840 5718,5	759 5423,5	740 5420	793 5888,5	3132 22450,5

Izoh: har katakdagi raqamlarning yuqoridagilari she’rlar, tagidagilari esa baytlar sonini ko‘rsatadi.

“Xazoyin ul-maoniy” devonlarining tuzilish prinsiplari va uning puxta kompozitsiyasi shuni ko‘rsatdiki, shoir bu lirik epopeyaning arxitektonikasi ustida yillab ishlagan bo‘lishi kerak. “Xazoyin ul-maoniy”dagi har bir she‘r mustaqil va tugallangan asar bo‘lishiga qaramasdan, ulardan birontasini ham o‘z o‘rnidan qo‘zg‘atish yoki tushirib qoldirish mumkin emas. Asarning ichki tuzilish tartibi shu darajada pishiq va o‘ziga xos qonuniyatlariga egaki, agar undan biror she‘r olinsa, muhtasham bir saroyning bironta g‘ishti ko‘chirilgandek, darhol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa to‘rtta devonga alifbo tartibida joylashtirilgan 2600 ta chuqur realistik, ishqiy, falsafiy va didaktik g‘azallar soni to‘rtala devonda ham har bir harfda son jihatidan bir xilda bo‘lishi¹, qola bersa hikmatli so‘zlar xazinasini bo‘lgan ruboiy, qit‘a va fardlarning o‘ziga xos tartibda joylashtirilishi “Xazoyin ul-maoniy”ni madaniyatimiz tarixining yemirilmas, monumental yodgorligi darajasiga ko‘targan. 500-yillik tarix buni tasdiqlaydi.

Alisher Navoiyning o‘zbek tilidagi devonlari redaksiyasining klassifikatsiyasi, ilmiy-tanqidiy teksti va transliteratsiyasi uchun foydalanilgan qo‘lyozmalar va ularning qiyosiy tablitsadagi xronologik tartibi shulardan iborat:

I Redaksiya — Ilk devonlar nusxasi.

1. Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, inv. № 564, 870=1465/66 yil. 143 varaq. Kolofon:

حرره العبد سلطان على مشهدى فى شهر سنه سبعين و ثمانمائة فى ايام الشيب

Sulton Ali Mashhadiy bu kitobni sakkiz yuz yetmishinchi yil bahor oylarida (ko‘chirdi) yozdi.

II Redaksiya – “Badoe’ ul-bidoya” nusxalari.

2. London, Britaniya muzeyi, inv. № 401, 887=1482/83 y. 234 varaq, ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

تم الديوان بعون الملك المنان فى شهر رنع الاول سنه سبع و ثمانين و ثمانمائة

Devon (ko‘chirilib) tugadi... rabbiul-avval oyi, sakkiz yuz sakson yettinchi yil².

3. Boku, Ozarbayjon Ilmlar akademiyasining respublika qo‘lyozmalar fondi, inv. № 3010, 889=1484, 190 varaq, qo‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

تم هذا الديوان فى خامس عشر شهر جمادى الاولى سنه ٨٨٩

Bu devon (ko‘chirilib) tamom bo‘ldi, jumodul-avval oyining 15-nchisi, 889 (yilda).

4. Toshkent, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining adabiyot muzeyi, inv. № 84, 891=1486-yil, 215 varaq

Kolofon:

فى عشر الوسط من شهر جمادى الاول سنه احدى و تسعين و ثمانمائة بلدة هراقم

Sakkiz yuz to‘qson birinchi yil, jumodul-avval oyining o‘ninchisida, Hirot shahrida (bu devon ko‘chirilgan).

III Redaksiya – “Navodir un-nihoya” nusxasi.

5. Toshkent, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 1995, XV asr, 205 varaq. Kolofon:

¹ G‘azallarning to‘rt devondagi alifbo tartibini ko‘rsatuvchi maxsus tablitsa «Favoyidul-kibar» devoni ilovasida berilgan (Qarang: Алишер Навоий «Хазойинул-маоний» // «Фавойидул-кибар», ИВ том. X. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. – Тошкент: «Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти», 1960. – 853 б. – О.М).

² Ricu, Catalogue of the Turkish Manuscript in the British Museum, London, 1888 p. 294, № 401.

کتابه العبد المذنب سلطان علی مشهدی غفر الله له بدار السلطنة هراة براسم خزانه ميرزا سلطان حسين

Buni (devonni) gunohkor qul Sulton Ali Mashhadiy, poytaxt shahar - Hirotda, Sulton Mirzo Husayn xazinasi uchun (ko‘chirdi) yozdi.

IV Redaksiya – “Xazoyin ul-maoniy” nusxalari.

6. Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, inv. № 55, 904=1498/99 yil. 264 varaq, ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

تاریخ توقوز یوز تورت دا قوی یل زوال حجه ای نینک یکرما ایکی سی دا غرابب الصغر دیوانی توکاندی

Tarix to‘qqiz yuz to‘rtida, qo‘y yil, zulhijxa oyining yigirma ikkisida “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni (ko‘chirilib) tugandi.

7. Stalinobod, Tojikiston SSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik shu‘basi, inv. № 1990, 905=1499/50 yil. 254 varaq. Ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

توکاندی تورتالاسی دیوان

بعون الملك المنان

فی شهر سنه ۹۰۵

Tugandi to‘rttalasi devon,

Biovnil-malikil-mannon.

905 (yil).

8. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 677, XVI asr, 244 varaq, so‘nggi varag‘i yo‘q.

9. Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, inv. № 558, 1001-1004=1592/93-1595/96 yillar. 260 varaq.

Kolofon:

قزل آقاج آذربيجان كمترين نظر علی فايسى ۱۰۰۱ ۱۰۰۴

Qizil oqoch, Ozarbayjon...(kotibi) kamtarin Ali Fayzi 1001–1004 (yillar).

10. Boku, Ozarbayjon Ilmlar akademiyasining Respublika qo‘lyozmalar fondi, inv. № 2377, 1052=1642/43 yil. 229 varaq.

Kolofon :

تمت الديوان ۱۰۵۲

Devon (ko‘chirilib) tugandi, 1052 (yil).

11. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 1486, XVII asr, 261 varaq, so‘nggi varag‘i yo‘q.

12. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 1315, XVIII asr. 634 varaq, ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan. Tarixi ham yo‘q.

13. Burxonpur, Hindistonda ko‘chirilgan nusxa, shaxsiy kutubxonadan 1120=1708/9 y. 650 varaq, ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

تمت بتاريخ نهم رجب المرجب روز جمعه سنه هزار و يكصد و بيست و يكروز در لشكر بهادر شاه برلب اب ايدل آباد وقت آمدن هندوستان از دكن نزديك برهانپور بسر اسميكيهاي تمام

Bir ming bir yuz yigirmanchi (yil) rajab (oyining) tuqquzinchisida, Bahodirshoh lashkarida, Idilobod suvining qirg‘og‘ida, Dakandan Hindistonga kelgan chog‘da, Burxonpur yaqinida, Ismikiyoy boshida (bu asar ko‘chirilib) tamom qilindi...

14. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti, inv. № 752, 1251= 1835/36 yil, 493 varaq.

Kolofon:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب في يدالضعيف النحيف
الحقير العباداعنى محمد صابر ابن نيازباباباى استر وشنى ١٢٥١

Bu asar... Istaravshanlik kamtarin va ojiz bandalardan Muhammad Sobir ibn Niyozboboboy tomonidan (ko‘chirilib) tugatildi 1251 (yil).

15. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 1709, 1254=1838/39 yil, 477 varaq. Ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

...محمد على غازى بهادرخان مينك ايكى يوز ايلك تورت تاريخيندا محمد صديق تونقتار ساريغه خطاب ايتب امر
على صدور تابتى كيم نوايى ديوانينى مكتوب ايتماكا بويور غيل فرمان على تائير يدين بيرى شولكيم مدت آلتى آى ايچره اوچ
يوز عدد ديوان مجلد و مشرز بولدى اول مشرز ديوانلاردين بيرى بو نسحه ايورور كيم سنهء مزكور ايچره همت اهتمام و
شرف اتمامه موسوم بولدى

... Muhammad Ali G‘ozi Bahodirxon (Ma‘dalixon)... ming ikki yuz ellik to‘rt tarixinda...
Muhammad Siddiq to‘nqator soriga xitob etib amri oliiy sudur toptikim, Navoiy devonini maktub
etmakga buyurg‘il; farmoni oliy ta‘siridin biri shulkim, muddati olti oy ichra uch yuz adad devon
mujallad va musharraz bo‘ldi. Ul musharraz devonlardan biri bu nusxa erurkim, sanai mazkur
ichra himmat ihtimom va sharaf itmoma mavsum bo‘ldi.

16. Xiva, Shaxsiy kutubxonadan, 1273=1856/57 yil, 299 varaq, ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon:

جواهر تحميدات بدّيعه مبدع موفقى راکه توفيق و استطاعت کرامت فرمود تاتشرف اتمام و شرف اختتام پذيرفت
نسخهء غزليات چهار ديوان امير کبير امير على شير نوايى بابشارت مربع نشين چهاربالش دولت و کامرانى محمدرحيم بيک
بى ولنعمى زاداقباله و دام دولته ١٢٧٣

... Amiri Kabir Amir Alisher Navoiy “Chohordevon” g‘azallarining (bu) nusxasi... davlat
taxtining egasi Muhammad Rahim (I) bek biy farmoni va yordami bilan (ko‘chirilib) tamom
qilindi... 1273.

V Redaksiya – Terma devonlar nusxalari.

17. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 790, 898=1492/93 yil. 102 varaq.

Kolofon:

كتبه العبد المحتاج الى رحمة الله و غفر انه
سلطان على مشهدى تجاور عنه سنه ٨٩٨

Bu devonni muhtoj banda Sultonali Mashhadiy 898-yilda yozdi (ko‘chirdi)...

18. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 3984, XV asr, 186 varaq. Kolofoni yo‘q. Ammo xatining uslubi va boshqa paleografik belgilariga ko‘ra, bu nusxani shubhasiz Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan.

19. Nyu-York, Metropolitayn san‘at muzeyi, inv. № 21. 905=1499/1500-yil, 254 varaq¹.

Kolofon:

كتبه الفقير سلطان على المشهدى غفر ذنوبه فى سنه خمس و تسعمايه الهجرية بدار السالطنه هراقم

Buni faqir Sultonali Mashhadiy hijriyning to‘qqiz yuz beshinchi yili Hirot poytaxtida yozdi.

¹ A. V. Williams Jakson and Abraham Johannan, A Catalogue of the Collection of Persian Manuscripts presented the Metropolitan Museum of Art, New York by Alexander Smith Cochran. New York, 1914 pp 160-63, № 21.

20. Oksford, Oksford universitetining Bodlean nomidagi kutubxonasi, inv. № 283, 915=1509/10 y. 308 varaq. Ko‘chiruvchisi ko‘rsatilmagan.

Kolofon: تمت الكتاب امير نوايي رحمة الله عليه ٢٤ شعبان سنة ٩١٥

Amir Navoiyning bu kitobini ko‘chirish 915-yil, sha‘bon oyining 24-da tamom bo‘ldi.

IV

“Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarini xronologik davrlarga ajratishdagi tajribalarimizga o‘tamiz.

Biz yuqorida “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining taxminan yarim asr davomida yaratilganligini aytgan edik. Endi bu she‘rlarning qaysisi qay davr ichida yaratilganini aniqlashga harakat qilamiz.

Ma‘lumki, sharq xalqlari adabiyotida lirik asarlarning yozilish tarixini she‘r ostida ko‘rsatish, ayniqsa o‘rta asr davrlarida, odat bo‘lgan emas. Hatto ba‘zi shoirlarning o‘z qo‘li bilan yozilgan avtograf devonlaridagi she‘rlarda ham biz zotan tarix ko‘rmaymiz. Turkiy va forsiy tilda she‘r yozgan shoirlarimiz uzoq zamonlardan beri lirik ijodiyotda traditsiya bo‘lib qolgan, g‘azal oxirida shoir tahallusini ko‘rsatish bilan kifoyalanganlar xolos. Bu traditsiya avtor nomini poetik asar tkaniga organik bog‘lab tashlash bilan she‘r avtorining kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan ijobiy bir holat bo‘lsa ham, bu hali masalani hal qilolmaydi. Masalan, biz “Xazoyin ul-maoniy”ning qaysi bir she‘rini olib qaramaylik, avtor Navoiy bo‘lishidan qat‘i nazar, bu she‘r 20 yoshdagi Navoiyniki bo‘lsa bir xil, agar 50 yoshdagi Navoiyniki bo‘lsa ikkinchi xil xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, Navoiy she‘rlarining xronologik chegaralarini aniqlash shoir ijodining g‘oyaviy va badiiy evolyutsiyasini o‘rganishda qanchalik muhim ilmiy ahamiyatga ega ekani o‘z-o‘zidan ravshandir.

“Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining xronologik chegaralarini birinchi martaba Navoiyning o‘zi aniqlagan. Chunki “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining shoir tomonidan o‘z hayotining yuqorida aytilgan to‘rt davriga ko‘ra to‘rt devonga taqsim qilinishining o‘zi shoir lirikasini amalda to‘rt xronologik davrga ajratish demakdir. Afsuski, bu xil davrlarga ajratish, har bir davrning yillari bilan aniqlanishiga qaramasdan, g‘oyat shartli va sun‘iy bo‘ladi.

Navoiy she‘rlarini xronologik davrlarga ajratishda biz uchun birinchi ishonchli asos shoirning XV asrda ko‘chirilgan bir necha devonlari oxirida aniq ko‘rsatilgan qo‘lyozmalarning ko‘chirilish tarixi bo‘lsa, ikkinchisi shoirning o‘zi ko‘rsatib o‘tgan to‘rt xronologik davr bo‘ldi. Ayni vaqtda qo‘lyozmalarni qiyosiy o‘rganish metodi bu masalada ham birinchi tajribalarni o‘tkazishga katta imkon tug‘dirdi. Bu sohada bizning olib borgan tekshirishlarimiz ikki asosiy etapga bo‘linadi.

Birinchidan, biz Navoiy devonlarining XV asr Hirotda ko‘chirilgan yetti unikal nusxalarning ko‘chirilgan yiliga asoslanib, shoirning o‘zbek tilidagi 3166 she‘rining (“Xazoyin ul-maoniy”ga kirmagan 32 she‘r ham shu hisobda) haqiqiy xronologiyasini aniqladik va bu xronologiyani to‘rt asosiy davrga ajratdik¹. Ikkinchidan, biz aniqlagan bu to‘rt xronologik davr “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt devonidagi 3132 she‘rda shoir ko‘rsatgan bolalik, yigitlik, o‘rta yosh va qarilik davrlariga qanchalik to‘g‘ri kelish-kelmasligini birma-bir tekshirib chiqdik².

¹ “Xazoyin ul-maoniy”ning IV tomi – “Favoyid ul-kibar” ilovasidagi “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining haqiqiy xronologiyasi» tablitsasiga qarang (Алишер Навоий «Хазойинул-маоний» // «Фавойидул-кибар», ИВ том. X. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. – Тошкент: «Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти», 1960. – 3-jadval. – O.M.).

² Yana shu IV tomi – “Favoyid ul-kibar” devoni ilovasidagi “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining nisbiy xronologiyasi» tablitsasiga qarang (Алишер Навоий «Хазойинул-маоний» // «Фавойидул-кибар», ИВ том. X. Сулаймонов

Oqibatda shoir o‘z she’rlarini, haqiqiy xronologiyasiga rioya qilmasdan, erkin ravishda, to‘rt devonga taqsim qilishi natijasida “Xazoyin ul-maoniy”dagi ikki mingdan ortiq she’rlar haqiqiy xronologiyasi bilan bir qatorda nisbiy xronologiyaga ham ega bo‘lgan.

Navoiy o‘zbek tilidagi she’rlarini to‘rt qismga ajratib, “Xazoyin ul-maoniy” devonlarini tuzishga kirishganda “Badoe’ ul-bidoya” bilan “Navodir un-nihoya” devonlaridan foydalanganini “Xazoyin ul-maoniy” debochasida bir necha martaba aytib o‘tgan edi. Bundan tashqari, tekshirishlar yana shuni aniq ko‘rsatdiki, “Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan ilk she’rlarni Navoiy biz foydalangan 564-inventar nomerli Leningrad nusxasidan olgan. Bu uch devon (Leningrad, 564, London 401, Toshkent 1995) tarixiga qaraganda, har birining yaratilish davri shoirning “Xazoyin ul-maoniy” debochasida ko‘rsatgan bolalik, yigitlik va o‘rta yosh davrlariga juda ham yaqindir. Haqiqatan ham bu uch devondagi she’rlar shoir hayotining shu uch faslida (yoshlik, yigitlik, o‘rta yosh) yozilganligi shubhasiz. Fikrimizcha, Navoiyning o‘zi ham “Xazoyin ul-maoniy”ning I, II, III devonlarining xronologik chegaralarini aniqlashda shu uch devon she’rlari va ularning yaratilish davrlarini ko‘zda tutgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shu mulohazaga suyanib biz ham Navoiyning o‘zi belgilagan hayotining to‘rt faslini shoir she’rlarining to‘rt xronologik davrlari uchun asos qilib oldik. To‘rt davr she’rlarini Navoiyning o‘zi qo‘ygan nom bilan atadik: I yoshlik lirikasi, II yigitlik lirikasi, III o‘rta yosh lirikasi, IV qarilik lirikasi. Biz aniqlay olgan bu to‘rt xronologik davr mazmuni shulardan iborat:

I davr – yoshlik lirikasi

(1449–1461-yillar yoki 7/8–20 yoshgacha)

Navoiyning yoshlik davrida yaratgan she’rlarini biz faqat uning yuqorida ko‘rsatilgan 870=1465/66 yilda, shoir 25 yoshlarda ekan chog‘ida ko‘chirilgan devon (Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, qo‘lyozma № 564) asosida aniqladik. Bu qo‘lyozma bizgacha yetib kelgan Navoiy devonlarining eng qadimiysi bo‘lib, shoir yaratgan ilk she’rlaridalar boshqalar tomonidan tuzilgan devonlarning biridir. Xuddi shu qo‘lyozma ichidagi 434 she’r (391 tasi g‘azal, 1 tarji’band, 1 muxammas, 41 ruboiy) keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga to‘la kiritilgan. Bu qo‘lyozmani boshqa nusxalar bilan qiyosiy o‘rganish shunday qat’iy fikrga olib keldiki, mashhur san’atkor-xattot Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan, Hirotning mahoratli san’atkorlari tomonidan ziynatlangan bu nodir nusxa Navoiyning o‘z mulki bo‘lgani ehtimoldan uzoq emas. Agar bu nusxa Navoiy mulki bo‘lmagan bo‘lsa, unda ham, “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzish davrida, shoirning bu nusxadan bevosita foydalanganligi to‘g‘risida shubha bo‘lishi mumkin emas. Demak, xulosa qilib aytganimizda, shoir o‘zining 7-8 bilan 20 yoshlar o‘rtasida yaratgan yoshlik she’rlari – ilk lirikasi ustida gapirar ekan, u asosan shu devondagi 434 she’rni ko‘zda tutadi. Biz ham bu she’rlarni shoir lirikasining birinchi davri – yoshlik lirikasi deb atadik.

II davr – yigitlik lirikasi

(1461–1476-yillar yoki 20-35 yoshgacha)

Shoir lirikasining ikkinchi davri – yigitlik chog‘ida yaratilgan she’rlar asosan uning tuzgan birinchi devoni “Badoe’ ul-bidoya”ga joylashgandir. “Badoe’ ul-bidoya”ning hozircha bizga ma’lum bo‘lgan eng qadimiy nusxasi London qo‘lyozmasi bo‘lib, bu nusxa 1482-yil, shoir 41 yoshda ekanida ko‘chirilgan. Ammo “Badoe’ ul-bidoya” devonining o‘zi London nusxasidan 7-8 yil avvalroq tuzilgan bo‘lishi kerak. Chunki Navoiyning o‘zi “Badoe’ ul-bidoya”ga yozgan debochasida o‘zining bu devonini Sulton Husayn hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng (1469)

илмий-танкидий матни асосидаги нашр. – Тошкент: «Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти», 1960. – 4-jadval. – *OM.*)

uning rayi va homiyligi ostida tuzgani haqida xabar bergan edi. Ammo ungacha, deydi o‘z debochasida Navoiy “xotirimga kelmas bu parishon abyotni jam qilmoq, xotirimg‘a kelmas bo‘lg‘ay va ko‘nglumg‘a kechmas bo‘lg‘aykim bu parokanda ash‘orga tartib bermak”¹. Yana “Badoe’ ul-bidoya” devonini tuzishga kirishganini ta’kidlab:

«Bu nav istaydur emdi ra’y oliy,
Ki qilg‘ay fikrating devon xayoli.
Hukm mazmunig‘a qalam chektim,
Safxa tazbinig‘a raqam tektim» degan edi.

Agar biz shoirning, yigitlikdagi she’rlarim 20-35 yoshlar o‘rtasida yaratilgandi, degan xabarini esga olsak (shoirning 35 yoshlik chog‘i 1476-yillarga to‘g‘ri keladi), “Badoe’ ul-bidoya” devonining tuzilish tarixi, yuqorida aytganimizdek, London nusxasidan 7-8 yil avval, taxminan 1470/1476-yillar o‘rtasiga to‘g‘ri keladi. “Badoe’ ul-bidoya” devoni 842 she’rdan tashkil topgan (g‘azal 585, mustazod 3, muxammas 4, musaddas 2, tarji’band 3, qit’a 49, ruboiy 78, chiston 10, muammo 52, tuyug‘ 10, fard 46). Bular ichiga yoshlik lirikasidan (Leningrad, qo‘lyozma № 564) 138 she’r kirib qolgan. Agar shu 138 she’rni chiqarib tashlasak, “Badoe’ ul-bidoya”ning asosiy 704 she’ri shoirning 20-35 yoshlari o‘rtasida (1461–1476), ayni yigitlik davrida, taxminan 15 yil ichida yaratilgani aniq bo‘ldi. Ikkinchi davr she’rlarining umumiy soni – 704 ta.

III davr – o‘rta yosh lirikasi

(1476–1486-yillar yoki 35-45 yoshgacha)

Shoirning “Badoe’ ul-bidoya” devonidan so‘ng yaratgan she’rlari uning o‘zi tuzgan ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya”ni tashkil qilgan. Shuning uchun, “Navodir un-nihoya” devonini biz Navoiy lirikasining uchinchi xronologik davri uchun asosiy manba sifatida qabul qildik. “Navodir un-nihoya” devonining bizgacha yetib kelgan yagona Toshkent nusxasi ham Sulṭon Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilib, Sulṭon Husayn xazinasida saqlangan. Afsuski, qo‘lyozma oxirida kotib bu nusxani qaysi yilda ko‘chirganini ko‘rsatmagan. Biroq shunga qaramasdan, tarixiy manbalarga ko‘ra, bu devondagi she’rlarning “Badoe’ ul-bidoya”dan so‘ng (1486) va “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzishga kirishishdan avval (1492) yaratilganligi aniqdir. Biz bu o‘rinda yana Navoiyning, o‘rta yoshdagi she’rlarimni 35 bilan 45 yoshlar orasida yaratdim, degan so‘ziga diqqat qilsak (shoirning 45 yoshi 1486-yilga to‘g‘ri keladi), “Navodir un-nihoya” devonining tuzilish vaqti “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzishga kirishgan 1492-yildan 6-7 yil avval taxminan 1486-yilga to‘g‘ri keladi. Bu haqiqatga ham yaqindir. Shuning uchun “Navodir un-nihoya” devoni Navoiy lirikasining uchinchi xronologik davri uchun asos qilib olindi.

“Navodir un-nihoya” 693 she’rdan iborat (g‘azal 628, mustazod 3, tarji’band 3, qit’alar 5, ruboiy 46, chiston 1, muammolar 6, tuyug‘ 1). Tekshirish natijasida ma’lum bo‘lishicha, bu she’rlardan 103 tasi ilk lirika (Leningrad, qo‘lyozma № 564) va 36 tasi “Badoe’ ul-bidoya” devonidan “Navodir un-nihoya”ga o‘tib qolgan. Biz ularni chiqarib tashlaganimizda, “Navodir un-nihoya” devonining asosini tashkil qilgan she’rlar soni 554 ta bo‘lib chiqdi. Shu bilan birga qo‘limizdagi “Badoe’ ul-bidoya” devonining 1484-yilda ko‘chirilgani Boku nusxasi va 1486-yilda ko‘chirilgan Toshkent nusxasida shoirning 1482–1486-yillar ichida yozilib, “Badoe’ ul-bidoya”ga kirmagan 76 she’ri topildi. Biz ularni ham, yaratilish davri e’tibori bilan, o‘rta yosh lirikasiga qo‘shdik. Natijada bu she’rlar uchinchi xronologik davrni tashkil qilib, shoirning 35-45 yoshlari o‘rtasida (1476-1486) – o‘rta yosh chog‘ida, taxminan o‘n yil ichida yozilgani ma’lum bo‘ldi. Uchinchi davr she’rlarining umumiy soni – 630 ta.

¹ “Badoe’ ul-bidoya” debochasi, London, Britaniya muzeyi, ko‘lyozma № 401, varaq 6b.

IV davr - qarilik lirikasi

(1486–1499-yillar yoki 45-60 yoshgacha)

Navoiy lirikasining so‘nggi – to‘rtinchi xronologik davrini aniqlashda biz “Xazoyin ul-maoniy”ning ikki nodir nusxasiga suyakdik. Bulardan biri 904=1498/99 yilda ko‘chirilgan Leningrad (inv. № 55) nusxasi, ikkinchisi esa 995=1490/500-yilda ko‘chirilgan Stalinobod (inv. № 1990) nusxasidir. Biz bu ikki nusxa asosida “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt devoniga aralastirib yuborilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi davr she‘rlarini chiqarib tashlaganimizda, Navoiy lirikasining so‘nggi to‘rtinchi davrida yaratilgan she‘rlarining soni 1396 ta ekani ma‘lum bo‘ldi.

Navoiyning qarilik lirikasi yuqoridagi uch davr she‘rlariga nisbatan adad jihatidan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ehtimol, ular o‘rtasida ilgariroq yozilib, avvalgi devonlariga kirmay qolgan bir qism she‘rlar ham bordir. Ammo shundaylari bo‘lgan taqdirda ham nihoyatda oz bo‘lishi kerak. Avvalgi uch davrga nisbatan oxirgi to‘rtinchi davr ichida ko‘proq she‘rlar yozilganini shoirning o‘zi ham eslatib o‘tadi. “Xazoyin ul-maoniy” debochasining bir yerida u: “... ikki murattab bo‘lg‘on devonlardin («Badoe’ ul-bido‘ya” bilan “Navodir un-nihoya”, *H.S.*) yangi aytilg‘on abyot adadi aksar» desa, yana shu debochani ikkinchi joyida “andin so‘ngra yig‘ilg‘on ash‘orning va nazm rishtasig‘a tortilg‘on durri shaxvorning adadi burung‘i devonlardin ortiq chog‘liqdur”, deydi. Agar biz shoirning avvalgi ikki devoni va ilk she‘rlari yoniga uning 50 ming misraga yaqin bo‘lgan “Xamsa”sini (1483–1485) qo‘shsak, uning o‘rta yosh oxirigacha yaratgan poyetik merosi qanchalik buyuk ekanini tasavvur qilish mumkin. Modomiki, shunday ekan, biz shoir hayotining so‘nggi 15 yili ichida 1396 she‘r yaratilishini Navoiy kabi buyuk titan ijodi uchun tabiiy va ishonarli bir hol deb qarashimiz lozim va bu hol bizni hech bir hayron qoldirmasligi kerak (tabl. № 2 ga qarang).

Taxminan yarim asr davomida yaratilgan 3164 she‘rning qo‘lyozma manbalar asosida va shoir tasnifoticha, to‘rt davrga bo‘linganini ko‘rdik. Endi Navoiy bu she‘rlarini “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt devoniga ajratganida yuqorida ko‘rsatilgan she‘rlarning haqiqiy xronologik davrlariga qanchalik rioya qilganini aniqlash mumkin. Buning uchun biz “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt kitobiga joylashtirilgan 3132 she‘rning har birisini yaratilish e‘tibori bilan yuqoridagi xronologik davrning qaysi biriga kirishini birma-bir aniqlab chiqdik. Natija shuni ko‘rsatdiki, shoir o‘z she‘rlarini to‘rt devonga ajratganida ularning haqiqiy xronologiyasiga mutlaqo rioya qilgan emas. To‘rt devonning har biriga kirgan she‘rlar xronologik jihatidan turli davrlarda yaratilgan bo‘lib, devon ichida g‘oyatda aralash holda berilgan. Masalan, 24 yoshgacha yozgan she‘rlaridan 132 tasini “Badoyi’ ul-vasat”da, 146 tasini “Favoyidul-kibar”da ko‘rsak, qarilik davrida yaratilgan she‘rlardan 159 tasini “G‘aroyibus-sig‘ar”da, 359 tasini “Navodir ush-shabob”da va 429 tasini “Badoyi’ ul-vasat”da uchratamiz. Demak, “Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan she‘rlar to‘rt devonning nomiga muvofiq haqiqiy xronologiyaga ega bo‘lgani uchun bu devonlarga shoir tomonidan qo‘yilgan nomlar (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi’ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar”) ham g‘oyatda shartlidir. Bu hol juda ko‘p she‘rlar mazmunidan ham yaqqol ko‘rinadi. Masalan, tubandagi baytlarning “G‘aroyibus-sig‘ar” va “Navodirush-shabob” devonlarida bo‘lmasligi kerak edi:

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,

Qolg‘ani sarf o‘ldi anduhu pushaymonlig‘da hayf¹.

Bosh oqarib, yuz qoralig‘dur yana tarki adab,

¹ “G‘aroyibus-sig‘ar”, g‘azal 303, bayt 1.

Do‘st g‘ayrat aylamasdin burna qil isyonni bas¹.
 Yoshing ellik bo‘ldi, yuz qo‘yg‘il fano tufrog‘ig‘a
 Kim, shabob ayyomi ayshu beadablig‘ chog‘i bas².
 Yoshim ellik bo‘ldi yuz hasrat yesamkim sudi yo‘q,
 O‘zni maydin hush tutay chun o‘tti umrum xushrog‘i³.
 Menki ellik yil chekib g‘am, topmadim xushvaqtliq,
 Topqamenmu umrning emdiki, o‘tmish xushrog‘i⁴.

Biroq biz shoirning “Xazoyin ul-maoniy” debochasida ko‘rsatgan to‘rt davriga amalda hech qanday rioya qilmaganining asli sabablarini hozircha o‘rganib yetganimiz yo‘q. Kelgusi tekshirishlar bu masalani yana ravshanroq yoritishga yordam berar deb o‘ylaymiz. Nihoyat, Navoiy o‘z she‘rlarini to‘rt devonga taqsim qilganida mazkur she‘rlarining haqiqiy xronologiyasi qanchalik chalkashib ketganini, tubandagi tablitsada yana ham aniq ko‘rish mumkin. (tablitsa № 3 ga qarang)

Klassik adabiyotimiz, jumladan Navoiy yaratib qoldirgan lirik merosning badiiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, she‘rning ichki tuzilish qonuniyatlarini to‘g‘ri anglashning bukungacha eng mushkul masalalaridan biri hisoblanib kelayotgan narsa vazn masalasidir. Klassik poeziyamizda hukmron bo‘lib kelgan aruz vazni, tabiiy, Navoiy she‘rlari uchun ham asosiy vazn hisoblangan. Navoiy o‘z ijodiyotida aruz bahrining barcha xillari vaznlaridan deyarlik foydalangan. Hatto bu haqda maxsus asar (“Mezon ul-avzon”) yozib, aruz vazni va aruz haqidagi ilmni boyitishga katta hissa qo‘sha olgandir.

Navoiy she‘rlarida qo‘llangan aruz vaznlarini o‘rganish va ularni ma‘lum ilmiy sistemaga solish ishi bilan sovet adabiyotshunosligida hurmatli olimlarimizdan filologiya fanlari kandidati Sodiq Mirzoyev birinchi bo‘lib shug‘ullandi. U o‘z dissertatsiyasida Navoiy aruzining qator nazariy masalalarini yoritishdan tashqari, “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining har biri aruzning qaysi vaznida yozilganini aniqlab chiqqan. Navoiy aruzi ustida olib borilgan bu katta filologik tadqiqot shoir merosini o‘rganish sohasida qilingan jiddiy ilmiy ishlardan hisoblanishi kerak. Biz Sodiq Mirzoyev aniqlagan Navoiy she‘rlarining hamma vaznlarini “Xazoyin ul-maoniy”ning mazkur nashrida ilova tariqasida berishni zarur deb topdik va har tom oxirida berdik. Bir qism she‘rlar vaznini 1948-yilda filologiya fanlari kandidatlar Sodiq Mirzoyev va G‘ulom Karimovlar tomonidan nashr qildirilgan Navoiy devonidan oldik. Qolgan she‘rlar vaznini esa, avtor ijozati bilan, uning qo‘lyozmasidan berdik⁵.

Navoiy tekstlarini o‘rganishda bergan qimmatli maslahatlari va aniqlagan Navoiy she‘rlari vaznlaridan foydalanishga rizolik bergani uchun aruz ilmining tanilgan mutaxassisi, hurmatli sharqshunos olimimiz Sodiq Mirzoyevga samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Tablitsa № 2

**NAVOIY YARATGAN O‘ZBEK TILIDAGI SHE‘RLARNING XV ASR
 QO‘LYOZMALARI ASOSIDA ANIQLANGAN HAQIQIY XRONOLOGIYASI**

Xronologik davrlar	Har davr she‘rlarining	Har davr ichida yaratilgan	Xronologik davrlar uchun asos qilib olingan qo‘lyozmalar
---------------------------	-------------------------------	-----------------------------------	---

¹ “G‘aroyibus-sig‘ar”, g‘azal 241, bayt 8.

² “G‘aroyibus-sig‘ar”, g‘azal 240, bayt 6

³ “Navodirush-shabob”, g‘azal 586, bayt 6.

⁴ “Navodirush-shabob”, g‘azal 589, bayt 9.

⁵ Содиқ Мирзаев, Навоий арузи. Тошкент, 1948 й. (O‘zFA Sharqshunoslik instituti kutubxonasi, qo‘lyozma № 48).

	yaratilish yillari	she'rlar soni	
BIRINCHI DAVR YoSHLIK LIRIKASI	1449–1461 (7-8–20 yoshgacha)	434	LENINGRAD, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, qo‘lyozma № 564. 870/1465–66 yilda ko‘chirilgan
IKKINCHI DAVR YIGITLIK LIRIKASI	1461–1476 (20–35 yoshgacha)	676+28	LONDON, Britaniya muzeyi, “Badoyi’ ul-bidoya” devoni, qo‘lyozma № 401, 587/1482-yilda ko‘chirilgan
UCHINCHI DAVR O‘RTA YoSh LIRIKASI	1476–1486 (35–45 yoshgacha)	626+4	1. BOKU, Respublika qo‘lyozmalar fondi, qo‘lyozma № 3010.889/1484-yilda ko‘chirilgan. 2. TOSHKENT, O‘zFA adabiyot muzeyi qo‘lyozma № 84. 891/1486-yilda ko‘chirilgan. 3. TOSHKENT, O‘zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozma № 1995. “Navodirun-nihoya” devoni, 1482–1492-yillar o‘rtasida ko‘chirilgan
TO‘RTINCHI DAVR QARILIK LIRIKASI	1486–1499 (45–60 yoshgacha)	1396	1. LENINGRAD, Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, qo‘lyozma № 55. 901/1498–99 yilda ko‘chirilgan. 2. STALINOBOD, Toj. FA Sharqshunoslik sho‘basi, qo‘lyozma № 1990. 905/1499–1500-yilda ko‘chirilgan.

Izoh: “Xazoyin ul-maoniy”ga kirmay qolgan 32 she’rdan 28 tasi shoirning “Badoyi’ ul-bidoya” va 4 tasi esa “Navodir un-nihoya” devonlarida saqlanib kelgan. Bu raqamlar tablitsaning uchinchi ustunida *+28* ham *+4* shaklida ko‘rsatildi.

Tablitsa № 3

“XAZOYIN UL-MAONIY” SHE’RLARINING HAQIQIY VA NISBIY XRONOLOGIASIGA KO‘RA TAQSIMLANISHI

“Xazoyinul-maoniy” she’rlarining shoir tomonidan to‘rt devonga shartli taqsimlanishi natijasida kelib chiqqan nisbiy xronologiyasi	“Xazoyin ul-maoniy” she’rlarining qo‘lyozma yodgorliklar asosida aniqlangan haqiqiy xronologiyasi				“Xazoyinul-maoniy” devonlariga to‘rt xronologik davrdan kirgan she’rlarning umumiy soni
	Birinchi davr yoshlik lirikasi (1449–1461-y.)	Ikkinchi davr yigitlik lirikasi (1461–1476-y.)	Uchinchi davr o‘rta yosh lirikasi (1476–1486-y.)	To‘rtinchi davr qarilik lirikasi (1486–1499-y.)	
“G‘aroyib us-sig‘ar” (7-8–20 yoshgacha)	156	443	82	159	840
“Navodir ush-shabob” (20–35 yoshgacha)	–	110	290	359	759

“Badoyi’ ul-vasat” (35–45 yoshgacha)	132	51	126	431	740
“Favoyid ul-kibar” (45–60 yoshgacha)	146	72	128	447	793
To‘rt xronologik davr she’rlarining umumiy soni	434	676	626	1396	3136

səhifəlik cilddə, 2019-cu ildə “Yeni nəşr” nəşriyyatında 91 səhifəlik cildə 10.000 nüsxə tirajla nəşr edilmişdir.

Əmir Temur təcrübəli hökmdar və mütəfəkkir filosof kimi dövlətin əsaslarını belə təyin edirdi: “Bol xəzinə, tək şah, məğlubedilməz ordu”. Onun dünyəvi mahiyyəti sürünün bir çobanı olduğu kimi, millətin də bir padşah tərəfindən idarə olunmasından məmnunluğunda özünü göstərmişdir. Dramda Teymurun vətəndaşlara münasibəti onun “Hökmdarlar vətəndaşları sevməli, onları ümid və qorxu içində saxlamalıdır” fikrində əks olunmuşdur.

Əsərdə Əmir Temurun düşmənlərinin günahlarını bağışlamağı bacaran şəxsiyyət olması Sultan Bəyazid, həddi aşmış heç kəsi cəzasız qoymayan Əmir Hüseyn, yaxşı əməllərin mükafatını verən Hafiz Şerozi və Qasimbək obrazları vasitəsilə inandırıcı şəkildə təsvir edilmişdir. Bununla yanaşı, eposda Bəyazidin Əmir Temura məktubundakı təhqirlər onu müharibəyə məcbur etmək kimi inandırıcı şəkildə təsvir edilmişdir: “Əgər bizim tərəfə gəlməsən, Teymur bilsin ki, arvadların üç dəfə boşanacaq”. Əgər sənə qalib gələ bilməyərək geri çəkilsəm, mənə arvadlarım üç talaq olsun”. Müəllif Teymurun heç bir müsəlmanın dözə bilməyəcəyi belə nalayiqliyə döyüşlə cavab verməsinin təbiiyini tarixi həqiqətə uyğun olaraq ustalıqla göstərmişdir.

Nəticə. Abdulla Oripov yaradıcılığı ilə Özbək ədəbiyyatını zənginləşdirmiş, yeni bir rəng çaları qatmışdır. Xüsusilə, müstəqil Özbəkistan, ana vətən haqqında yazdığı şeirləri ilə Özbək xalqının qəlbində özünə yer tapmışdır. Əsərləri günümüzdə də oxucular tərəfindən sevilərək oxunur və tanınır.

Ədəbiyyat/ İqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Oripov Abdulla. Tanlangan Asarlar, She'rlar va Dostonlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 2001, s.59-72; 296-299.
2. Yrd. Doç. Dr. Emek Üşenmez. Yeni Özbək Edebiyatı, Akçağ yayınları, Ankara, 2013, s.204-210
3. Orhan Söylemez-Samet Azap. XX Yüzyıl Özbek Edebiyatı. Türk dünyası Çağdaş Edebiyatları. El Kitabı. İstanbul, Kesit Yayınları, 2018, s.321-414..
4. Timur Kocaoğlu. Özbek Türkleri Edebiyatı, Türk Dünyası El Kitabı. Cilt 3, Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları, Ankara.1992.
5. <https://tafakkur.net/sherlar/abdulla-oripov>
6. <https://kun.uz/news/2016/11/05/marum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F05%2Fmarum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi>
7. <https://tafakkur.net/abdulla-oripov.haqida>

ÖZBEK ƏDƏBİYYATINDA ŞAİR RAUF PARFI ÖZTÜRKÜN YERİ

Sayah CƏFƏROVA,

Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti Türkoloji
mərkəzin Türk ədəbiyyatı bölməsinin mütəxəssisi (Azərbaycan),

E-mail: saya.jafarova@mail.ru

ORCID: 0009-0003-7052-8097

Xülasə: Rauf Parfi Öztürk Türk dünyası şeirinin inkişafında önəmli rol oynayan özbək milli şairlərindən biridir. Şair özünə xas üslubla Özbək şeirində fərqli bir yerə sahibdir. Onun “Karvon Yo’li”, “Aks Sado”, “Tasvir”, “Xotiro” adlı şeir kitabları var. Onun “Sukunət”, “Ona Türkiston” kimi əsərləri də var. Şairin şeirlərinin əsas temalarından biri də Türküstan ruhudur. Onun Türküstan adına yazılmış bir çox şeir və şeir kitabları mövcuddur. Rauf Parfinin bu günə qədər nəşr edilməmiş şeirləri qalıb. Rauf Parfi eyni zamanda tərcüməçilik fəaliyyəti ilə məşğul olmuşdur. O, Behçet Kemal Çağların “İstiyorum”, Ercumant Behzat Lavın “İhramın dibi” kimi əsərləri tərcümə etmişdi. Kəlimələrə simvolik mənə yükləmək Rauf Parfi yaradıcılığı üçün əsas özəlliklərdən biridir. Rauf Parfi şeirlərinin yarısı sonelərdən ibarətdir. Sone qısa həcmli əsər olub, az söz işlətməyi sevən sənətkarların yaradıcılığında rast gəlinir. Şairin sonetlərinin onun xəyal düşüncəsinin məhsulu olması və orijinal simvolik tiplərə sahib olmaq kimi özəllikləri şairi digərlərindən fərqləndirən xüsusiyyətdir.

Kalit so‘zlar: *Özbək, şeir, şair, Türk.*

ОТРАЖЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЛОВ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. Рауф Парфи Озтюрк – один из узбекских национальных поэтов, сыгравших важную роль в развитии поэзии тюркского мира. Поэт занял особое место в узбекской поэзии благодаря свойственному ему стилю. У него есть сборники стихов “Караванный путь”, “Эхо”, “Изображение”, “Память”. У него также есть произведения “Тишина”, “Родной Туркистан”. Одна из главных тем стихов поэта – душа Туркестана. Существует множество его стихотворений и сборников стихов, посвящённых Туркестану. На сегодня имеются ещё неопубликованные стихи Рауфа Парфи. Рауф Парфи также занимался переводческой деятельностью. Он перевел такие произведения, как “Я хотел бы” Бехчета Кемала Чаглара и “Суть ихрама” Эркуманта Бехзата Лава. Наделение изречений символическими значениями – одна из главных особенностей творчества Рауфа Парфи. Половина стихотворений Рауфа Парфи состоит из сонетов. Сонет – сжатое произведение, встречающееся в творчестве поэтов, не любящих изобилие слов. Сонеты поэта являются продуктом его воображения и имеют оригинальные символические образы. Это и отличает его от других поэтов.

Ключевые слова: *узбекский, поэзия, поэт, турецкий язык.*

THE PLACE OF THE POET RAUF PARFI OZTURK IN UZBEK LITERATURE

Abstract: Rauf Parfi Ozturk is one of the Uzbek national poets who played an important role in the development of Turkic World Poetry. The poet has a different place in Uzbek poetry with his unique style. He has poetry books “Karvon Yo’li”, “Aks Sado”, “Tasvir”, “Xotiro”. He also has such works as Sukunət”, “Ona Türkiston”. One of the main themes of the poet's poems is the Turkestan soul. There are many books of poems and poems written on his Turkestan name. Unpublished poems by Rauf Parfy have survived to this day. Rauf Parfi was also engaged in translation activities. He translated such works as “Istiyorum” by Behcet Kemal Chaglar and

“İhramın dibi” by Ercumant Behzat Lav. Installing symbolic meaning in words is one of the main features for the creativity of Rauf Parfi. Half of Rauf Parfi's poems are composed of sonnets. Sonnet is a short work and is found in the works of artists who like to use few words. The peculiarities of the poet's sonnets, such as being the product of his imaginative thinking and having original symbolic types, are what distinguishes the poet from others.

Key words: *Uzbek, poetry, poet, Turkish.*

Giriş. Rauf Parfi müstəqillik dövrü özbək şeirinin ən güclü nümayəndələrindən biridir. O, 27 sentyabr 1943-cü ildə Daşkənddə anadan olmuşdur. Ana və atası Fərqanəli olmuşdur. Böyük şairin təxəllüsü Öztürkdür.

Şair özünə xas üslubla Özbək şeirində fərqli bir yerə sahibdir. İlk şeir kitabı 1968-ci ildə “Karvan yolu” adı ilə çap olunmuşdur. Bundan başqa şairin “Karvon Yo’li”, “Aks Sado”, “Tasvir”, “Xotirov”, “**Sabr daraxti**” adlı şeir kitabları da yayımlanmışdır. Onun “Sukunət”, “Ona Türkistan” kimi əsərləri də var. Şairin şeirlərinin əsas temalarından biri də Türküstan ruhudur. Onun Türküstan adına yazılmış bir çox şeir və şeir kitabları mövcuddur. Rauf Parfinin bu günə qədər nəşr edilməmiş şeirləri qalıb.

Əsas. Rauf Parfi Öztürk eyni zamanda Türk dünyası şeirinin inkişafında önəmli rol oynayan özbək milli şairlərindən biridir. Onun şeirlərində görülən anlaşılmaz, müəmmalı sətirlər, rəmz və simvollarla ifadə etmə tərzini şairin sənət və estetik düşünmə tərzinin əsas özəlliklərindəndir. Rauf parfi Əlişir Nəvai əsərlərinə, həmçinin rus, türk, fransız, iran, yapon ədəbiyyatına dərinləndən bələd olub onlardan bəhrələnmişdir. O eyni zamanda Türkiyə türkcəsi ilə bir neçə əsər yazaraq özbək və türk ədəbiyyatı arasında ədəbi əlaqələrin inkişafında mühüm rol oynamışdır.

Rauf Parfi eyni zamanda tərcüməçilik fəaliyyəti ilə məşğul olmuşdur. O, Behçet Kemal Çağların “İstiyorum”, Ercumant Behzat Lavın “İhramın dibi” kimi əsərləri tərcümə etmişdir. Kəlimələrə simvolik məna yükləmək Rauf Parfi yaradıcılığı üçün əsas özəlliklərdən biridir. Rauf Parfi şeirlərinin yarısı sonelərdən ibarətdir. Sone qısa həcmli əsər olub , az söz işlətməyi sevən sənətkarların yaradıcılığında rast gəlinir. Şairin sonetlərinin onun xəyal düşüncəsinin məhsulu olması və orijinal simvolik tiplərə sahib olmaq kimi özəllikləri şairi digərlərindən fərqləndirən xüsusiyyətdir. Şair sonetlərində mənəvi inkişafa doğru irəliləmək istəyən qəhrəmanın daxili aləmini anlatmaq üçün sonelərdən istifadə etmişdir. Parfi özbək sone şeir sənətində önəmli yer tutan şairdir. O, özbək sone məktəbinin banisidir. Parfi sonelərinə alman, bulqur, rus sone yazarlarından Puşkin Aleksander Blok, Anna Ahmatova, Valeri Brüsov kimi şairlərin əsərləri güclü təsir etmişdir. Bundan əlavə Rauf Parfi sonelərinə modern türk şeirinin təsiri də qabarıq şəkildə özünü göstərir. Şairin Tofik Fikrət, Nazim Hikmət, Vaqif Səmədoğlu, Ercument Behzat Lav, Behçet Kemal Çağlar kimi türk və azərbaycan şairlərinin şeirlərini dərinləndən tədqiq etməsi və onları özbək dilinə tərcümə etməsi onun özbək şeirinə böyük töhvəsidir.

Şairin şeirlərindəki lirik qəhrəman dərd və izzət içində qarşımıza çıxır. O heç vaxt quru məddahlıq etməz. Şairin istifadə etdiyi simvollar və modern ifadələr oxucuda ayrı bir iz buraxır. Oxucuda şair sadəcə qəm və qayğıni mədh edir deyə bir fikir oyanmamalıdır. Şairin bu vəziyyətini U. Toyçiev bele izah edir ki, Rauf Parfi hadisələrdən gözəllik axtarar və bunu tapar. Hətta həsrət və nalələr altında gözlənən gözəlliyi də tapır. Şairin lirik qəhrəmanı həyata daha çox qayğıyla baxır. Şairin “Mən birini qəmli halda gözləyəcəm” şeirində həsrətlə qəmli fəryad arasında gözəlliyi kəşf etmə halı əks olunmuşdur.

*Məhsum-məhsum axtarıram nur,
Qaranlıqda bitib tükənirəm.*

*Zənglərin səsi gəlir,
Necə uğursuz bu gözəl səda.*

Rauf Parfi sonələrində bir çox faktorlar simvollaşdırılmışdır. Onda saxtakarlıq və zorakı hallar yoxdur. Şairin “Ağrı”, “Ana dilim” adlı sone məcmuəsi də var. Bundan başqa “Nicat qalası” şeirində şairin əsas qayəsi insanı daha da inkişaf etdirməkdən ibarət idi. Burada şair həm ələmi, həm də sevinci əks etdirir.

Rauf Parfi sonələrində bir çox motiv və simvollarından istifadə etmişdir. Parfi sonələrində rəmizli simvol örnəklərinin orijinal şəkillərinə çox rast gəlinə bilər. İnsan “İnsanı sevdim mən, insanı bildim”, sevgi “Sevgimin ayağında məğlub, taru-mar”, hür ruh “Oyan ey azad ruh, buz olan öc”, təfəkkür “Necə ki təfəkkür hər zaman iztirabdır”, cəsarət “Sadəcə sən cəsarət əlini ver” kimi bir çox motiv və simvollar vardır.

Rauf Parfi qəhrəman yaradanda ədəbi estetik düşüncənin təbiətinə uyğun tərzdə qəhrəmanı hissləri ilə göstərməyi tərcih edirdi. O qəhrəmanın “mən”ini, arzu və istəklərini dərd, həsrət, sevinc və zəhmətləri ilə bərabər yansıdırdı. Amma Rauf Parfi üslubuna görə daha çox dərd vacib ünsür kimi vəzifəni üstlənmişdi. Şairin şeirinin mahiyyətini aydınlaşdırarkən bunu deyə bilərik ki, onun şeirlərindəki dərd, həsrət də insanın gerçək üzü ilə ifadə edilmişdir. Özü yanmayan və zəhmət çəkməyən insan başqalarına təsir göstərə bilməz. Rauf Parfi yaradıcılığında həqiqət və ədalətin qələbəsi heç bir zaman asan olmamışdır. Şairin ana konsepsiyası da bu mücadələlərdə öz qəhrəmanını həqiqətə yönləndirmək, gerçəkçi olmağa dəvət etməkdir. Öztürk qəhrəmanının qəlbində hər zaman ilahi duyğu və məhəbbət hökmrandır. Buna da dünyəvi sevginin ilahiləşdirilən şəkli deyə bilərik.

Şairin sonələrindəki “söz”, “ölüm”, “qara divar” kimi simvollar onun rəmizli sənətində ayrı bir dəyərə sahibdir.

Qandayın sırddır bu, bu qanday tuşdur.

Bu qanday uyqudur, uyg’ongan uyku.

Ko’zlarından qora quzg’unlar uçdı.

Müthiş qora devor ortıda, yohu

Nece bir sirdir bu, necə bir rəya

Bu necə yuxudur, oyanan yuxu.

Gözlərimdən qara quzğunlar uçdu.

Müthiş qara divar ardında yahu.

Meditativ lirikanın dəyişik şəkli sayılan bu şeirdə bir çox poetik rəmizlər simvoldur. Çünki bu şeirdə qarışıq ruhi müddət çeşidli dəyişimlərlə özünü göstərmişdir. Yuxarıdakı misralarda eşqsiz boşluğa dönüşən qəlb üçün onun divarları əngəl olmuş. Lirik qəhrəman bu divarı aşmaq üçün yaradandan yardım diləyərək öz eşqini və mənliliyini geri verməsini istəməkdədir. Qısacası Rauf Parfinin lirik qəhrəmanı dünyəvi problemlərə və millətin dərdlərinə laqeyd deyildir. O daim başqalarının dərdi ilə yaşayan lirik qəhrəmandır. Buna görə də özünə aid sızıntıları hiss etmir.

Nəticə: Rauf Parfi özünü sadəcə öz milləti deyil, bütün insanlıq hüzurunda sorunlu bilir. Şair, tərcüməçi, nasir olan Rauf Parfi “Sabr Daraxtı” adlı əsəri ilə Özbəkistan Yazıçılar Birliyi tərəfindən verilən Hamid Alimcan mükafatına layiq görülmüşdür. Rauf Parfi 2005-ci il 28 martda vəfat edib.

Ədəbiyyat/ İqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Abide Feyzullayeva “Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk”ün Şiir Dünyası” Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi: cilt10, say12.
2. Yrd. Doç.Dr.Ekmek Üşenmez. “Yeni Özbek Edebiyatı” Akçağ yayınları.
3. Hikmet Koraş. “Özbek şairi Rauf Parfi” Konya. Kömen yayınları.

SO‘ZLAR SEMANTIK TARAQQIYOTINING LUG‘ATLARDA AKS ETISHI

JO‘RAYEV Ilyos Ro‘ziqulovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida
katta o‘qituvchisi, PhD (O‘zbekiston),
E-mail: jorayevilyos1@gmail.com
ORCID: 0009-0007-6344-189X

Annotatsiya: So‘zda yangi mavhum va maxsus ma‘noning paydo bo‘lishi o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu jarayon ko‘p hollarda so‘z semantik hajmining kengayishi orqali sodir bo‘ladi. Shuningdek, so‘zlarning o‘zlashishi ham undagi ma‘nolarning ortishi – yangi yondosh va hosila ma‘nolarda qo‘llanishiga sabab bo‘ladi, ya‘ni so‘z o‘zining bir ma‘no qirrasini bilan o‘zlashadi. Yoki so‘zlar o‘zlashish jarayonida o‘zining avvalgi leksik ma‘nosining bir jhati bilan o‘zlashib, mazkur ma‘no asosida saqlanib qolsa, o‘z qatlam sifatida boshqa ma‘no qirrasini bilan shakily va ma‘noviy taraqqiyotga yuz tutadi.

Mazkur maqolada “Charog‘i hidoyat” lug‘atini o‘rganish jarayonida so‘zlarning ma‘noviy taraqqiyoti hodisasidan ayrimlari (og‘o, bojiy, xotun) ni leksikografik manbalar asosida keltirib o‘tish va mazkur so‘zlarning etimologiyasi hamda shakily va ma‘noviy etimonlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *leksikografiya, etimologiya, frazeologik birlik, o‘zlashma so‘z, lug‘at, fors-tojik tili, fonetik xususiyat, so‘zlik, lug‘aviy birlik.*

ОТРАЖЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЛОВ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. Появление нового отвлеченного и специального значения в слове характеризуется своими особенностями. Во многих случаях этот процесс осуществляется через семантическое развитие слова. Также заимствование слова приводит к увеличению значений в нем – оно употребляется в новом смежном и производном значениях, то есть слово заимствуется с одним из семантических значений. Или, если слова заимствуются с одной из прежних семантических значений в процессе заимствования и закрепляются на основе этого значения, то в качестве единиц собственного пласта они могут подвергаться формальному и семантическому развитию.

В данной статье на основе изучения словаря «Чароги хидаят» приведены некоторые случаи семантического развития слов на основе лексикографических источников (og‘o, bojiy, xotun), а также приведена этимология этих слов и указаны формальные и семантические этимоны.

Ключевые слова: *лексикография, этимология, фразеологизм, заимствованное слово, словарь, персидско-таджикский язык, фонетический признак, словник, лексическая единица.*

REFLECTION OF THE SEMANTIC DEVELOPMENT OF WORDS IN DICTIONARIES

Abstract: The appearance of a new abstract and special meaning in a word is characterized by its characteristics. In most cases, this process takes place through expanding the semantic volume of the word. Also, the assimilation of words causes an increase in their meanings - it is used in new relative and derived meanings; that is, the word acquires its meaning edge. Alternatively, if words acquire one aspect of their previous lexical meaning in the process of

assimilation and remain based on this meaning, then as their layer, they undergo a formative and spiritual development with another edge of meaning.

This article presents some of the phenomena of the spiritual development of words (a \mathring{g} o, boji, khotun) based on lexicographic sources in the process of studying the dictionary "Charo \mathring{g} i hidoyat" and shows the etymology, formal and spiritual etymologies of these words.

Key words: *lexicography, etymology, assimilation word, dictionary, Persian-Tadjik language, phonetic feature, lexicon, lexical unit.*

So‘zda yangi mavhum va maxsus ma‘noning paydo bo‘lishi o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. So‘zdagi yangi ma‘noning paydo bo‘lishi ko‘p hollarda so‘zning semantik hajmining kengayishi orqali sodir bo‘ladi [10, 71]. So‘zning semantik tarkibidagi leksik ma‘nolar dastlab ikkita katta guruhga – hozirgi leksik ma‘nolarga va avvalgi leksik ma‘nolarga ajratiladi.

Hozirgi leksik ma‘no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma‘nolar esa til taraqqiyotining o‘tmishdagi bosqichlariga xosdir [1, 160].

Shuningdek, so‘zlarning o‘zlashishi ham undagi ma‘nolarning ortishi – yangi yondosh va hosila ma‘nolarda qo‘llanishiga sabab bo‘ladi, ya‘ni so‘z o‘zining bir ma‘no qirrasini bilan o‘zlashadi. So‘zimiz isboti sifatida “O‘zbek tili leksikografiyasining ba‘zi masalalari” kitobida keltirilgan va o‘zimiz kuzatgan ayrim misollarni keltiramiz. Bunday so‘zlar tilimizda ko‘plab uchraydi. Masalan: *Illat* so‘zining “kasallik” ma‘nosi istemoldan chiqib, “kamchilik, qusur, sabab” ma‘nosini, *molik* – “podsho, mulk egasi” bilan birga abstrakt egalikni, *ayyom* (kunlar) bayram, ramazon va qurbon hayiti bayrami, juma va muborak kun ma‘nolarini ifodalab, birlik ot kabi ko‘plik qo‘shimchasi bilan “ayyomlar” shaklida qo‘llanadi. *Tanaffus* (nafas olish) dam olish, maktablarda dars soatlari orasida qisqa muddatli ta‘tilni, *g‘arib* (vatanidan ayrilgan, chet ellik, yot, o‘zga, notanish) yolg‘iz, nochor, kambag‘al, kimsasiz, qashshoq, faqir ma‘nolarini [10, 71], *g‘alamis* – g‘allamush (mita) yovuz niyatli, fosiq ma‘nolarida qo‘llanmoqda. Ya‘ni bu so‘zlarda avvalgi leksik ma‘nolar hozirgi leksik ma‘nodan farqlanadi.

O‘z tilimizdagi so‘zlar ham vaqtlar o‘tish bilan semantik torayishi yoki o‘sishi mumkin. Qadimda *yemish* so‘zi faqat ho‘l mevalarni, Navoiy davri va undan keyingi vaqtlarda ma‘nodoshi “yemak” so‘zi kabi barcha yegulikni ifodalagan bo‘lsa, hozirda “yem-xashak” so‘ziga ma‘nodosh bo‘lgan. Yoki tiliimizda “aylanmoq, “o‘ralmoq, o‘girmoq” ma‘nosida qo‘llanib, “chiyirilmq”, “chilvir”, “chil ber” so‘zlarining yasalishiga asos bo‘lgan “chavrilmoq” so‘zi, garchi XIV asrning hassos shoiri Xorazmiyning “Muhabbatnoma” (754 h.q. /1353-1354 sh.) [4, 367-368] kabi mashhur asarida bot-bot qo‘llangan bo‘lsa-da [4, 40-66] asl ma‘nosi unutilib ketgan:

Biroz kechti dag‘i majlis isindi,

Qadah chavruldi-yu may boshqa mindi (43).

Qadah chavrildi ush¹ bo‘ston ichinda,

Xush ichkil rohni² rayhon ichinda (46).

Tanim borincha sendan yuz chovurmon,

Eshiking tuproqindin bosh ko‘turmon (60).

Evurmon yuz nechakim kelsa mehnat?

Jafo sizdin, tag‘i bizdin muhabbat (64).

Bu kabi ma‘no jilolari yoxud o‘zi bizga yot bo‘lib ketayotgan *ashnu – oldin, ilgari (60)*, *chimgon – sahro, dasht (56)*, *o‘rom – hayot, atrofi to‘sinlar bilan o‘ralgan joy (55)*, *solma – otma*

¹ Ush – shu, mazkur.

² Roh – rohat, sokinlik; sara, keti uzilmaydigan sharob.

(53) *kizlanmoq* (54) singari inju – nodir qimmatli (62) so‘zlar shu 25 sahifalik matnda yuzlab topildi.

Yuqorida keltirilganidek, so‘z ma’no taraqqiyotini o‘rganishda qadimiy lug‘atlar muhim manba hisoblanadi, jumladan, mazkur maqolada tilimizdan boshqa boshqa tillar, xususan, fors-tojik tiliga o‘zlashgan “og‘o”, “oqo” va “bojiy” so‘zlari haqida lug‘atlar asosida qiyosiy usulda ayrim ma’lumotlar keltirib o‘tishga harakat qilamiz. Shuni ham aytish kerakki, mazkur so‘zlarni tadqiq qilishimizga sabab 1734-yilda Sirojuddin Alixon Orzu tomonidan Hindistonda fors-tojik tilida tuzilgan “Charog‘i hidoyat” izohli lug‘ati bo‘ldi. Shu bois dastlab mazkur lug‘atda ushbu so‘zlarga berilgan izohni keltirib o‘tishni lozim topdik:

ОҒО – даллолазане ки воситаи корсозии занҳои фоҳиша бошад; ва ба ҳиндӣ куттнӣ (کطنی) گۆند (ба кофи тозӣ, ба тои ҳиндӣ расида ва нун ба ёи маъруф). Агарчи лафзи **ОҒО** дар туркӣ дар маҳалли таъзим бар алқоб ва аъломи занон оранд. Ин чо шояд ба сабили танз ва истихфоф бошад, валлоҳу аълам. (Tarjimasi; Og‘o – fohisha ayollar ishini bitkazuvchi dallola – qo‘shmachidir; hindchada *kutniy* (toziy *kof*, hindcha *to* va *nun* hama ma’ruf yo bilan). Garchi og‘o so‘zini turkchada ayollar ismi va amaliga ulug‘lash uchun qo‘shsalar-da, bu yerda tahqirlash va kamsitish mazmunida qo‘llangan, Olloh bilguvchidir [7, 15].

OG‘A 1 ayn. aka. 2 Tug‘ishgan akaday yaqin qadrdon kishi. 3 tar. Yurtning, elning kattasi, hokimi. **Yurt og‘asi** ayn. **og‘a** 3. 4 tar. Turli lavozim va unvon nomlari tarkibiga, mas. *haram og‘asi*, *eshik og‘asi*. 5 O‘zidan kattalarga murojaat shakli [9, 184].

Bu so‘zga turli fors-tojik lug‘atlarida quyidagicha izohlar berilgan: **OFO** *m.* آغا **калимае** ки барои эҳтиром ва бузургдошт ба аввал ё охири номҳо илова карда мешавад; чаноб, соҳиб//OG‘O *t.* ismlardan avval yoki keyin hurmat va ulug‘lash ma’nosida qo‘llanuvchi so‘z; janob, xo‘jayin.

ОҚО *m.* آقا **ниг.** **Ofo** [8, 946-947].

OFO آغا ба маънии худованд ва бародари калон ва ин лафзи туркист (аз “Муайид ва “Мадор”) // Ega (xo‘jayin) va aka ma’nosida va bu turkiy so‘zdir [5, 25]. **ОҚО** آقا (ба коф) ба маънии худованд (аз “Мадор”) ва соҳиби “Баҳори Ачам” навишта, ки ин лафзро чун бар исми шахс муқаддам кунанд барои таъзим бошад ва агар муаххар оранд барои таҳқир бошад; ва ин лафзи туркист [5, 26] – xo‘jayin ma’nosida (“Mador”da) va “Bahori Ajam” muallifi bu so‘zni shaxs ismidan oldin qo‘llansa, ulug‘lash va keyin qo‘llansa tahqirlash ma’nosi borligini yozgan, va bu turkiy so‘zdir.

آغا. (ترکی، ا) خاتون. بی بی. سیده. ستی. بانو. بیگم. خانم. ||زن. حرّم ... ||کلمه احترامی است که بر سر نام خادمان OG‘A (turkiy, ot) Xotun (vazir), beka, sayyida, satti (beva), ...xon, begim, xonim|| Xotin, mahram...||Saroy xodimlari, ya’ni eshik og‘alar ismidan avval hurmat ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaydilar, boshqa xodimlarga nisbatan qo‘llanuvchi *oqo* kabi: *Og‘obashorat*, *Og‘ojavhar* [13,158-1591].

Og‘o = momo (bekach), sayyida, begim, ayol (eriga nisbatan), xotun.

آغا = عنوانی که به دنبال یا در ابتدای اسمی خواجه سرایان افزوده می شود مثل «مبارک آغا» و «آغا الماس» OG‘o = haramog‘alarining ismidan avval yoki keyin qo‘shib aytiluvchi unvon, Muborakog‘a va Og‘a Almos kabi [16, 50]. Shuningdek, mazkur lug‘atda bu so‘zning “Dada Qo‘rqo‘t” kitobida “**og‘a**, ya’ni **aka** ma’nosida hamda **og‘obojiy** – **opa** ma’nosida” qo‘llanganligi haqida ma’lumot keltirilgan, shunday ekan og‘o (og‘a) *katta*, *ulug‘* so‘zi bildirgan ma’no va tushunchani ifodalaydi. “Sangloh”da **og‘aliq** (akalik) ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, yuqori ko‘tarilmoq ma’nosidagi “og‘moq” fe’lidan og‘||oq (asos) va -o/a (qo‘shimcha) asosida hosil qilinganligi haqida ma’lumot

berilgan [6, 255-264-262]. Bizning fikrimizcha ham, mazkur qarash ayni haqiqat hisoblanadi, negaki **og‘a** so‘zining ziddi bo‘lgan **ini** (quyi) va inmoq//enmoq “tushmoq” ma’nosini bildiradi yoki “uya” ma’nosidagi *in* ham qushlarning *qo‘nim topuvchi, pastlovchi* joyini, hashoratlar yashovchi chuqurlik ma’nosini bildiradi. Bu so‘z DLTda ham **aka** so‘zi o‘rnida emas, balki “Erkaklarning o‘zidan katta qiz birodariga اكا aka deyiladi; xotinning o‘zidan kichik qiz birodariga بليز baldiz deyilib, o‘zidan kattasiga اكا aka deyiladi” [11, 325] kabi *opa* ma’nosida qo‘llangan so‘z hozirda *aka* ma’nosida qo‘llanadi. Bizga ma’lumki, o‘zbek tilidagi ko‘pgina so‘zlar fe‘l asosidan paydo bo‘lgan, shu bois bu so‘z etimologiyasi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish uchun DLTga teranroq nazar solishimiz kerak:

[اغدى *a:ğdi* – chiqdi, ko‘tarildi] **ol tağqa a:ğdi** – u tog‘ga va boshqa tepaliklarga ko‘tarildi (*a:ğar, a:ğmaq*).

[اغدى *a:ğdi*] **bulit a:ğdi** – bulut chiqdi, paydo bo‘ldi; **anij yuzi a:ğdi** – uning rangi o‘zgardi [11, 84].

[اغتى *ağitti* yuqori chiqardi] **ol ani tağqa ağitti** - u uni tog‘ga va boshqa yerlarga chiqardi; **Tānri bulit ağitti** - Tangri havoda bulut paydo qildi (*ağitur, ağitmaq*) [11, 95]. Keltirilgan misollardan bu so‘zning “chiqish, katta bo‘lish, yuksalish, ko‘rinish (bu ham aslida katta bo‘lishga mazmunan ma’nodosh)” yo‘naltirilgan, “Farhangi o‘zbekiy – dariy” kitobida ham bu so‘z shu ma’nolarda qo‘llangan:

أغماق - غ - ك [ف] صعود کردن، بلند شدن 2- طیران، پرواز، عروج 3- شر خوردن به سمتی، میل به جهتی 4- لغزیدن 5- کج شدن بار ستور به یک طرف 5- Tarjimasi: Og‘moq – g – k [f] ko‘tarilmoq, turmoq, 2- Uchmoq, parvoz, ko‘tarilish, 3- Bir tomonga egilish, bir tomonga moyillik, 4- Ulovda yuklangan yukning bir tomonga egilishi, 5- Toymoq [12, 82]. Shuni ham aytish kerakki, mazkur so‘z nafaqat yuqoriga harakatlanish, ko‘tarilish, balki yuqoridan quyi tomon yo‘nalishni ham ifodalaydi va bu ham aslida bir so‘zning bir-biriga zid (azdod) ma’noda qo‘llanishidir.

Ko‘rib chiqqanimizdek, DLT bilan deyarli bir xil izohlangan hamda bu so‘zning “k” tovushi bilan ham talaffuz qilinishi keltirilgan. Bu holatni DLTda ham kuzatishimiz mumkin. DLTda: aka – opa; اكا egä - egachi, opa. O‘g‘uzlar *ezä* deydilar [11, 325].

اكا öga – tajribali, aqlli, ko‘p yashagan odam. Suqalardan¹ bo‘lib, tegin mansabidan bir daraja quyi mansab. Buning asosi bor. Bu shundayki, *žū-l-qarnayn Šīn* ga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘lladi. Vazir shohga aytdi: “Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz, aslida katta yoshli, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi, - deganda o‘ga so‘zini “tajribali; katta yoshli” ma’nosida qo‘lladi. Shunda shoh to‘g‘ri deydi va katta yoshli kishilarni yo‘llaydi. Ular kechasi *žū-l-qarnayn* ning oldingi askarlariga hujum qildilar va yengdilar ... [11, 49].

ögä tigit – “oddiy xalqning kattalari; shohning kichik o‘g‘illari” demakdir. Bular (*og‘a tigit*) birga qo‘llanadi. **Ögä** so‘zi aslida *žū-l-qarnayn* zamonida u bilan turklarning bitishuvidan oldin ularning oldingi qo‘shinlari orasidagi to‘qnashuvda yuzaga kelgan [11, 143].

اوك (ög) – aql va ziyaklik. Yoshi ulug‘ va aqllilarga **ögä** laqabi beriladi. Bu so‘z o‘rta yoshga yetib, ulg‘aygan har bir hayvonga nisbatan ham ishlatiladi. Shuningdek, to‘rt yoshdan oshgan otlarga ham **ögä at** deydilar [11, 33]. DLTdagi **ög** (aslida aql va ziyaklik ham ulg‘ayish bilan bog‘liq (J.I.), **ögdi** (maqtadi) [11, 83], **uluğ** (qari, ulug‘) va **uluğlamaq** so‘zlari ham mazkur so‘z bilan bir asosdan hosil bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Demak, DLTda mazkur so‘z bilan

¹ Suqa – odiy xalq.

shakli va ma'nolari mushtarak bo'lgan so'zlarda og'a so'zidagi g||q tovushi, nafaqat “k”, balki “g” tovushiga ham o'zgargan.

Og'moq so'zi O'TILda yuqorida keltirilgan ma'nolarga zid o'laroq “Bir tomonda yotib, qiya holat olmoq, qiyshaymoq, engashmoq, yonboshlamoq; sirg'anib tushmoq; adashmoq; siljimoq; diqqati bo'linmoq; toymoq; eng yuqori nuqta, zenitdan o'tmoq; ma'lum bir vaqt (yarmi) dan o'tmoq; yon bosmoq [9, 191]” kabi ma'nolarda qo'llangan. Bu holat tabiiy, vaqt o'tgani bilan so'zlar zid ma'noda qo'llanishi ko'plab kuzatiladi: fuqaro, mavlo, mamluk, erta, basir, arqadi (alqadi so'zining qarg'adi so'zi kabi yomonlik ma'nosida qo'llangan. Bu so'zdagi *ro tovushi lom* harfiga o'zgargan [11, 108]. Aslida “og'moq” so'zining bu ma'nolari ham “ag', og'” fe'lidan olingan. Bu asosdan esa, ag'nadi – “*ağtildi* – yerga urildi, ag'darildi. Asli *ağtaril*dir. (*ag'tilur, ag'tilmak; ağnatti* – ag'natti” [11, 106]) kabi so'zlar ham hosil qilingan. Aslida bu ham vertikal holatda turgan narsaning bir tomoni ko'tarilib (og'ib) ikkinchi tomonining tushishi (inishi) holatidir. Biz bunda “inish” so'zini qo'llamay, uni o'rniga ham og'di so'zini qo'llaymiz.

Ini, inmoq so'zlarining lug'atlardagi izohi og'o, og'a, ag'a so'zining yuqorida keltirilgan ma'nolarini oydinlashtiradi, DLTda so'zlarning ifodalagan ma'nolarini ham keltiramiz:

ینی ini – ini, kichik birodar, uka [11, 50].

[*اندى indi* – indi, pastga tushdi]. *ul tağdan quzi indi* – u tog' va boshqa yerlardan quyi indi [ya'ni tushdi]. Bu so'zda *nūn* harfi *lām* dan o'zgargan. Bu so'zda nun harfining lom harfiga o'zgarishi DLTda bir necha o'rinda izohlangan: [*الدى ildi / ildī* – ildi; tushdi] [11, 83]; attin *il* (otdan tush), *ilma* (tushma) [11, 84]. Osmoq ma'nosidagi “il” so'zi ham mazkur so'zning ma'noviy taraqqiyoti natijasidir.

Og'o so'zining “yuqori, baland, katta” ma'nosi *katta, qari, ulug', aka* va *opa* ma'nosida qo'llanishiga asos bo'lgan.

Alixon Orzu ta'biri bilan aytganda, “hindlarning ishi teskaridir” [7, 85]. Shu bois, vaqtlar o'tishi natijasida ayollarga xos ulug'likni bildiradigan *og'o* so'zi vazifasini o'zgartirib, tahqirlash va mazax uchun “qo'shmachi” ma'nosida qo'llangan. O'ziga yarashmagan bu ma'no yuklangandan so'ng bu so'zning “unvon va opa” ma'nosi unitilib, “ulug'lik” ma'nosi asosida *aka* so'zi o'rnida qo'llanuvchi kitobiy uslubdagi so'z holiga kelib qolgan. Aslida dastavval *vazir* ma'nosidagi *xvatun* (xotin) so'zi bilan ma'nodosh bo'lgan so'z keyinchalik mazkur so'z ma'nosida bo'lgani kabi ma'no torayishiga uchragan va hozirda faqatgina “o'zidan katta barodar, aka (uka va singilga nisbatan)” hamda fors tilida “xo'jayin, ega” ma'nosida ham qo'llanadigan so'z bo'lib qolgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, mazkur so'zga ayrim fors tilidagi lug'atlarda “mo'g'ulcha so'z” etimologik ishorasi berilgan, jumladan, “Farhangi istilohoti devon va davroni mo'g'ul” kitobida: “Og'o (og'a) /mo'g'ulcha/ – oqo [15, 1].

Oqo /mo'g'ulcha/, og'o; aka¹ ||Kattaroq (yosh jihatdan), qariroq. ||Boshliq, qabila oqsoqoli. ||Ba'zan laqab mazmunidagi qo'shimcha. ||Ulug'lash alomati, xonlar o'zining ba'zi yaqinlariga ehtiromlar ko'rsatish uchun “oqo” der edilar”, – shaklida ma'lumot keltirilgan. Bundan tashqari, ba'zi fors lug'atlarida “turk. mo'g'ul [16, 50]”; “mo'g'ulchadan olingan [14, 34-37]” kabi yanglish etimologik izoh berilgan. Bizningcha, bunga sabab, bu so'zning mo'g'ullar istilosidan keyin forslar orasida tarqalgani bilan bog'liq. Negaki shu davrgacha saroydagi hurmatga sazovor ayollar ismiga “xotun” so'zi qo'shilib murojaat qilingani bizga ta'rixiy kitoblardan ma'lum. Ilk o'rta asrlarda hatto bu so'z “vazir” ma'nosini bildirgan, DLTda: “Qatun – Afrosiyob qizlaridan

¹ “Sanglox” va boshqa lug'atlarda turkcha so'z deb berilgan.

bo‘lganlarning nomi”, – deb izohlanib, “*xan ishi bolsa, qatun (vazir – J.I.) ishi qalir*” maqoli misol qilib keltirilgan. Keyinchalik Navoiy davrida “xotin – ayol, xotin” [2, 422; 3, 271] ma’nosida qo‘llana boshlagan. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin va, ayniqsa, temuriylar davrida hurmatga sazovor va sultonning, “yuqori martabali kishilarning ayollari”ga nisbatan “oqo||og‘o”, sultonning qizlariga “og‘acha” so‘zi qo‘shib murojaat qilingan. Masalan, Temuriy ayollarga Turkon Oqo (opasi), Shodimulk oqo (jiyani), Qutlug‘ Oqo, Tuman Oqo (xotini), Shirinbeka Oqo (singlisi) ismiga *oqo* so‘zi qo‘shilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, og‘o, oqo, aka so‘zlari qadimgi turkiy tildagi “uzoq yasha (o‘sib ulg‘ay, katta bo‘l; sochingga oq tushsin, oqsoqol bo‘lgin – J.I.)” ma’nosini anglatgan aq – fe’liga (harakatni kuchaytiruvchi – J.I.) -a qo‘shimchasini qo‘shish natijasida hosil qilingan bo‘lib, shu birgina so‘z o‘z tarixi davomida “malika, beka, sayyida, beva, ...xon, ...bonu, begim, xonim, xotin, ayol, mahram; opa, xola, amma, momo; aka, amaki, tog‘a, bobo; tajribali-zehnlilik kishi; vazir, sardor, rais, sayyid, boshliq, bek, qabila oqsoqoli; qari, katta, ulug‘; boshliq, xo‘jayin, ega, molik; boy dehqon, askar, eshik og‘asi; hurmatni ifodalovchi qo‘shimcha; atoqli ot, oshiq (O‘g‘uz shevalarida mashuqaga nisbatan)” kabi ijobiy ma’nolarni ifodalagani yetmagandek, bu “musofir” so‘z asl fe’l holida zid ma’nolarni bildirgani hamda hindlarning “teskari odati” mavjudligidan “tahqirlash (kinoya qilib) va haqorat uchun qo‘shmachilik mazmunidagi” salbiy ma’no ham yuklatilgan. Bu “jahongashta” so‘z hozirda barcha turkiy millatlar, fors davlatlari, Iroq (iroqlik fudbolchilardan birining familiyasi Og‘ayniy edi) Hindiston va Mo‘g‘ulistonda faol qo‘llanadi, Misr va usmonli turklarda “og‘ovot” [14, 34] shaklida ko‘plikda ham qo‘llangan. Hatto tarqalish hududining kengligidan arabcha “ax” (aka) so‘zi ham shu so‘z asosida hosil bo‘lganligi ba’zi fors lug‘atlarida keltirib o‘tilgan. Mo‘g‘ullar sulton ma’nosida qo‘llagan *qoon* (xon) hamda hozirda Afg‘oniston va Eronda “amaki” ma’nosida qo‘llanuvchi “koko”, “inson, odam, shaxs” ma’nosida qo‘llanuvchi اكه / اكو / آكو – oku//aku//aka [12, 85], qari ayol, kampir ma’nosidagi غ باشليغ – og‘boshlig‘ [12, 82], shuningdek, اغاچه (og‘acha) – opa, singil, xonim [12, 82], xon saroyi va boylar eshigidagi kanizak, xizmatkor ayol; cho‘ri. 2 boy uyg‘urlar oilasidagi eng kekxa xotin [9, 184]; اغاباجي (og‘obojí) – katta opa, opa; اباقه / آباقه / اباقه (obog‘a//oboqa//abog‘a) [12, 80] so‘zi ham mazkur so‘z asosida hosil qilingani manbalarda keltirilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, mazkur so‘zning deyarli barcha ma’nolarda “katta” semasi mavjud ekanligi kuzatildi.

Bojí – boj va yer solig‘i; hamda opa va singil. Til ahli (til vakillari, xalq tili) dan tahqiqqa olindi. Sa’id Ashraf aytadi:

*Бар ту зебад хароҷ аз ҳама хубон гирӣ,
Шоҳи ҳусниву туро Лайлию Ширин боҷӣ.*

Tarjimasi: *Yarashur Senga, xiroj barcha go‘zaldan olgil,
Ham husn shohisenu Layli va Shirin – singil.*

Lutf boisi ham ikkinchi ma’nodadir va bu turkiy so‘zdir.

O‘TILda: **БОЖА** Опа-сингилнинг эрлари (бир-бирига нисбатан) [9, 297]. FZTda: БОҶА باجه ду марде, ки ду хоҳарро ба занй гирифтаанд, нисбат ба ҳамдигар боҷа ҳисоб мешаванд [8, 239]. O‘TILdagi bilan bir xil ma’noda qo‘llangan. “Farhangi o‘zbekiy va dariy”da “баجه ناق” shaklida mazkur ma’noda qo‘llangan [12, 170], ammo **og‘obojí** (og‘a – kata + boji – singil) – **bojiy** so‘zi ham fors lug‘atlari hamda forsiy turk lug‘atlarida **hamshira va xohar** (opa va singil) ma’nosida “bojiy” shaklida qo‘llanadi. [7, 30; 13, 497; 15, 224]. Dastlab bizning lug‘atlarimizdagi ma’nosida “bojnoq, bojanog‘, bojanoq” shaklida qo‘llangan so‘z vaqtlar o‘tishi bilan “boja” shaklida mazkur ma’noda qo‘llanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tildagi so‘zlar vaqtlar o‘tishi bilan shakl va ma’no taraqqiyotiga yuz tutadi, ayrim so‘zlarda hosila ma’no

bosh ma’no o’rnida qo’llansa, ayrim so’zlarga qo’shimcha ma’no yuklanadi. Shu bilan birga, so’zning birlamchi ma’nosini bilish ham qadimgi lug’atlar va til tarixini chuqur o’rganishni taqozo qiladi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – 272 b.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1983. III жилд. – 624 б.
3. Аттухфатуз закияту фил луғатит туркия. – Т.: Фан, 1968 – 280 б.
4. Хоразмий // Навоийнинг назари тушган... [Тузувчилар: М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова; Сўз боши: М.Али, Б.Қосимовники]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 40–66, 367–368 (400).
5. Ромпурй, Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс-ул-луғот. Ҷ. 1. – Душанбе: Адиб, 1987. – 460 с.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Университет, 2000. – 600 б.
7. Сирочуддин Алихони Орзу. Чароғи ҳидоят. – Душанбе: Ирфон, 1992. – 288 с.
8. Фарҳанги забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидори асри XX): – М.: Сов. энциклопедия, 1969. Ҷ. 1. – 951 с., Ҷ. 2. – 904 с.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: I–V-жилдлар. – Т.: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2008.
10. Ўзбек тили лексикасининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1957. – 140 б.
11. Қошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Т.: Ғафур Ғулом, 2017. – 488 б.
12. ابراهم رحيم (1396) فرهنگى اوزبكى – درى، انتشارات ثقافت، كابل، – 606 ص.
13. دهخدا، على اكبر و همكاران (1377) لغت نامه دهخدا، تهران، 3 جلد.
14. على اكبر نفيسى (1343) غر حنگ نفيسى، وزيرى، تهران 1 جلد.
15. امين شمسى شريك (1357) فرهنگ اصطلاحات ديوانى دوران مغول، فرهنگستان ادب و هنر ايران. معين محمد (1371) فرهنگ فرسى، امير كبير، تهران، 1 جلد.

SUHAYL VA GULDURSUN” DOSTONI SAYFI SAROYI IJODIMI?¹

Samet ONUR,

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Tillar ve global tadqiqotlar kafedrası

katta o‘qituvchi, falsafa doktori (PhD), (Turkiya),

E-mail: samet.onur@univ-silkroad.uz

ORCID: 0000-0001-8675-9840

Annotatsiya: Ayrim tadqiqotchilar XIV asr Oltin O‘rda shoiri Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”dan tashqari “Suhayl va Guldursun” nomli yana bir asari borligini ta’kidlaydilar. Bu masnaviy O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari darsliklari va o‘quv dasturlariga Sayfi Saroyi asari sifatida kiritilgan. Sayfi Saroyiga nisbat berilgan ushbu qisqa masnaviyning bir bayti asosida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi bilim Kopernikdan oldin Oltin O‘rdada mavjud bo‘lganligi haqidagi maqolalar ham yozilgan. Ushbu maqolada filologik ma’lumotlar asosida ikki savolga javob izlanadi:

1. Ushbu masnaviyga asoslanib, geliosentrik koinot modeli Kopernikdan oldin islom olamida ishlab chiqilgan, deb da’vo qila olamizmi?
2. “Suhayl va Guldursun” dostoni XIV asrda Sayfi Saroyi tomonidan yozilganmi?.

Kalit so‘zlar: *Sayfi Saroyi ijodi, “Suhayl va Guldursun”, “Gulistoni bit-turkiy”, Kopernik, geliosentrik koinot modeli, Oltin O‘rda, filologiya, turkiyshunoslik.*

“SÜHEYL VE GÜLDÜRSÜN” DESTANI SEYFİ SARÂYÎ’NİN ESERİ MİDİR?

Özet: Bazı araştırmacılar, Sa’dî-i Şirâzî’nin *Gülistân*’ının ilk Türkçe tercümesi olan *Kitâbu Gülistân bi’t-Türkî* adlı eseriyle tanınan XIV. yüzyıl Altınordu şairi Seyf-i Sarâyî’nin *Süheyl ve Güldürsün* adlı bir eserinin daha bulunduğunu iddia etmektedirler. Özbekistan’da yükseköğretim kurumlarının ders kitaplarında ve müfredatlarında Seyf-i Sarâyî’nin eseri olarak *Süheyl ve Güldürsün* mesnevisine de yer verilmektedir. Seyf-i Sarâyî’ye atfedilen bu kısa mesnevinin bir beytine istinaden dünyanın güneş etrafında döndüğü bilgisinin Kopernik’ten önce Altınordu’da mevcut olduğunu savunan makaleler de yazılmıştır. Bu makalede, filolojik veriler ışığında iki sorunun cevabı aranmaktadır:

1. Bu mesneviye istinaden güneş merkezli evren modelinin İslam dünyasında Kopernik’ten önce geliştirildiğini iddia edebilir miyiz?
2. *Süheyl ve Güldürsün* mesnevisi XIV. yüzyılda Seyf-i Sarâyî tarafından mı yazılmıştır?

Anahtar kelimeler: *Seyf-i Sarâyî eserleri, Süheyl ve Güldürsün, Gülistân bi’t-Türkî, Kopernik, Güneş merkezli evren, Altınordu, Filoloji, Türkoloji.*

IS THE SUHAIL VA GULDURSUN THE WORK OF SAIF-I SARAI?

Abstract: Some researchers claim that the 14th-century Golden Horde poet Saif-i Sarai, known for the first Turkish translation of Sadi’s *Gulistan*, had another work called *Suhail va Guldursun*. In Uzbekistan, *Suhail va Guldursun* is also included in the textbooks and curricula of higher education institutions as a work by Saif-i Sarai. Based on a couplet in this short masnavi attributed to Saif-i Sarai, articles have also been written arguing that the knowledge that the world

¹ Ushbu maqola Modern Türklük Araştırmaları Dergisi’da 2022-yilda chop etilgan “Seyf-i Sarâyî’ye Atfedilen Süheyl ve Güldürsün Mesnevisi Üzerine” sarlavhali maqolani qayta tartibga solish orqali yaratilgan.

revolves around the sun existed in the Golden Horde before Copernicus. This article attempts to answer two questions in the light of philological data:

1. Can we claim that the sun-centred model of the universe was developed in the Islamic world before Copernicus on the basis of this mathnawi?
2. Was the mathnawi of *Suhail va Guldursun* written by Saif-i Sarai in the 14th century?

Key words: *Saif-i Sarai works, Suhail va Guldursun, Gulistan bi't-Turki, Copernicus, Sun-centred universe, Golden Horde, Philology, Turkology.*

Kirish. XIV asr Oltin O‘rda shoiri Sayfi Saroyi hayoti haqida bilganimiz shoirning o‘z asarlarida bergan ma’lumotlari bilan chegaralanib, davr manbalarida uning hayoti va ijodi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Uning eng muhim asari, shubhasiz, XIII asrda Sa’diy Sheroziy tomonidan yozilgan “Guliston” nomli forscha asarning turkcha tarjimai bo‘lgan “Gulistoni bit-turkiy”dir (Bodrogligeti, 1963: 246). 1391-yilda tugallangan va Mamluk sultoni Barquqning hojiblar hojibi (eshikog‘aboshisi). Bathas as-Suduniga taqdim etilgan ushbu asarning ma’lum yagona qo‘lyozmasi Gollandiyadagi Leiden Akademiyasi kutubxonasida (inv. № 1553) saqlanadi (Özkan, 2009: 29). Turkiya, Rossiya, Tatariston va O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarda Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”dan tashqari “Suhayl va Guldursun” nomli yana bir asari borligi aytiladi. Hatto “Suhayl va Guldursun” dostoni Sayfi Saroyi asari sifatida O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari darsliklari va o‘quv dasturlariga kiritilgan (Davron, 1968; Minnegulov, 1972; İşgay, 1978; Matthews ve Bukharaev, 2000: 17; Vohidov va Eshonqulov, 2006: 149; Zaripova Çetin, 2006: 140; Özkan, 2009: 28-29; Galkin, 2011; Bukharaev, 2013: 157; Toprak, 2014; Sadybekov, 2015: 988; Sayfetdinova, 2016: 461; Djurayev ve Zohidova, 2019: 4; Abdullayeva, 2020: 6). Mazkur maqolada “Suhayl va Guldursun” dostonining Sayfi Saroyi ijodiga mansub ekanligi yoki yo‘qligi filologik ma’lumotlar asosida tekshiriladi.

“Suhayl va Guldursun” dostoni

“Suhayl va Guldursun” dostonini ham o‘z ichiga olgan “Yodgornoma” nomli qo‘lyozma O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 311) saqlanadi. U 17x12 sm o‘lchamdagi qo‘lyozma 7 ta varaqdan iborat bo‘lib, suls yozuvida yozilgan. “Suhayl va Guldursun” dostoni 4 a betdan boshlanadi va 7 b gacha davom etadi. Qo‘lyozma O‘zbekistonning Qo‘qon shahridagi kolxozdan Nasrullo Davron tomonidan topilib, uning 1968-yilda chop etilgan maqolasi orqali ilmfan olamiga tanishtirilgan (1968: 61-64). Qo‘lyozmani saqlagan kolxozchi Kamolxon Sultonovning aytishicha, uning katta bobolaridan biri taxminan ikki yuz yil avval hajga borgan va u yerdagi savdogar qo‘lyozmani katta bobosiga sovg‘a qilgan (Minnegulov, 1972: 129).

Til xususiyatlari. “Suhayl va Guldursun” dostonida ko‘rilgan til xususiyatlari “Gulistoni bit-turkiy”da ko‘rilgan til xususiyatlaridan ancha farq qiladi. “Gulistoni bit-turkiy”da XIV asrga oid til xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, “Suhayl va Guldursun”ni XIV asrga to‘g‘rilash mumkin emasdek. Masalan, “Gulistoni bit-turkiy” asarida sifatdosh va olmosh vazifasini bajaradigan *ol* va *uŕ* so‘zlari bo‘lsa, “Suhayl va Guldursun”da hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi *u* va *ŕu* so‘zlari bor (Karamanliog‘lu, 1968: 105-106; R. Öztürk, 2012: 317-318). Yana “Suhayl va Guldursun”da uchinchi shaxs birlik olmoshining qaratqich va jo‘nalish kelishigi shakli *uning* va *unĝe* shaklida, *bu* – ko‘rsatish olmoshining esa *bunĝe* shaklida ham ko‘rish mumkin. “Gulistoni bit-turkiy”da uchramaydigan bu shakllar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xosdir (R. Öztürk 2012: 318):

Bunĝe yoĝtur zulmkārlerde farvā (12), Uning kōnĝlinde solĝunlik hemĝe / Kōrinmes unĝe gulzār-u ne biŕe (19), U yatgen çāh içre yoĝ ŕu la-yi nūr (23), Yürüp bāĝ içre u güller tirermiŕ (28), Uyanip bildi ŕunde tüŕ ekenin (36), ŕu an kēltirdiler çāhĝe Suhaylni (41), U izlep çāra yaĝŕi

çāra tapti (47), Önginde tüş-dekin körgenge u şād (54), Çıkarlsa kimse yoq çāhdın u başın (61), U yalguz şahrā içre kaldı yalguz (69), Süheyl āhidin şu dem qoptı boran (72), Ünge dost bol, uni sevgil, köngül bér (77).

“Gulistoni bit-turkiy”da birinchi shaxs buyruq-istak mayli qo‘shimchalari {-ayım} va {-gayım}, “Suhayl va Guldursun”da esa bu qo‘shimchalar hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi {-(-e)y} va {-(-e)yin} shaklda qo‘llaniladi (Karamanlioglu, 1968: 110; R. Öztürk, 2012: 332):

Mēnge eyt adīngi dā‘im ētey yād (30), Yētey-dēp māvheş dilkeş perīga (34), Şukurler ēteyin Allah-ğa ming bār (31).

“Gulistoni bit-turkiy”da 2-shaxs buyruq-istak mayli qo‘shimchasi: {-gil}, {-kul} va {-gul} shakllarida ko‘rinadi (Karamanlioglu, 1968: 110). “Suhayl va Guldursun”da esa {-gil} qo‘shimchasidan tashqari hozirgi o‘zbek adabiy tilida umumiydashgan {-gin} qo‘shimchasi ham bor (R. Öztürk, 2012: 332):

İlāhī asragin Sayf-i Sarāyīng (81).

“Gulistoni bit-turkiy”da buyruq maylining birinchi shaxs ko‘plik shakli {-alim}dir. “Suhayl va Guldursun”da esa hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi {-aylik} qo‘shimchasi ko‘rinadi (R. Öztürk 2012: 332):

Çkip çāhdın uzaklerge kaçaylik / Bu yerde ağlamay köngül açaylik (60)

“Gulistoni bit-turkiy”da “inkor, rad, bo‘lishsizlik” ma’nosini bildiruvchi *degül ~ dögül* so‘zi bo‘lsa, “Suhayl va Guldursun”da hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi *emes* va *ermes* so‘zlari mavjud (Karamanlioglu, 1968: 78; Tolkun, 1994: 184):

Ėmes efsāne çin uşbu bitilmiş (01), Ölenge-mes (< ölenge emes) tirige érdi bir gūr (23), Ėmes gul yüzi Güldürsünden artıq (39), Kul Ėrmes pādşāh dēp sēzdi özini (53).

“Gulistoni bit-turkiy”da doim {-dur-} ~ {-tur-} shakli bilan qo‘llanilgan fe‘l yasovchi qo‘shimcha, “Suhayl va Guldursun”da hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi {-dir-} ~ {-tir-} shakli bilan qo‘llaniladi (R. Öztürk 2012: 310):

qaldirdi (08), keltirdiler (41).

Ko‘rinib turibdiki, {-pti} qo‘shimchasi “Suhayl va Guldursun”da o‘tgan zamon fe‘lining III shaxs birligi uchun ishlatilgan. “Gulistoni bit-turkiy”da o‘tgan zamon fe‘lining III shaxs birligi uchun {-p} + *turur* ~ *dur* tuzilishi yoki {-ptur} ~ {-pdur} qo‘shimchasi qo‘llangan (Karamanlioglu 1968: 112-113). “Suhayl va Guldursun”dagi shakl yana hozirgi o‘zbek adabiy tiliga yaqinlashadi (R. Öztürk 2012: 324):

ētipti başini ham kaşi üzre (11).

“Gulistoni bit-turkiy”da uchramaydigan, lekin hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilayotgan *-geni* qo‘shimchasi ham xuddi shu ma’nodagi “Suhayl va Guldursun”da uchraydi (R. Öztürk 2012: 340):

Yētalmey körgeni ruhsār-i māvhe / Yıkildi yügrüben pāy üzre çāhge (35)

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fors tilidan olingan *u* predlogi qo‘shimchaga aylanib, undosh tovushlar bilan tugagan so‘zlardan keyin {+u}, unli bilan tugagan so‘zlardan keyin esa {+yu} shaklida qo‘llanadi (Tolkun, 1994: 183). Hozirgi o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan {+yu} enklitikasi “Suhayl va Guldursun”ning 42-, 43- va 59-kuplet (band)larida uchraydi:

kördi-yu (42), bildi-yu, sevdı-yu (43), sēnge-yu (59).

“Suhayl va Guldursun”da *-de* (-da, ham) predlogi ham mavjud bo‘lib, bu hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ko‘rinib turadi, lekin “Gulistoni bit-turkiy”da uchramaydi. Hatto ikki misolda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi oldingi so‘zga qo‘shimcha sifatida qo‘shilganligi ko‘rinadi (Karamanlioglu, 1968: 124; R. Öztürk 2012: 344):

Ağaç-ni de anğa étdiler pābend (20), Özīng guldende kōrkli gul érür-sin (29), ölümde şalmağay bizlere gulğu (57).

“Suhayl va Guldursun”ning 16-baytida uchraydigan *ilinc* soʻzi “Gulistoni bit-turkiy”da va boshqa Mamluk turkiy asarlarida uchramaydi (Toparli va boshq. 2007). Bu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida “umid” maʼnosida qoʻllanadi (Yusuf, 1993: 234):

Érür bar ékmegidin dur ilinci (16).

“Suhayl va Guldursun”da uchrasa-da, lekin “Gulistoni bit-turkiy” va boshqa mumtoz turkiy asarlarida uchramaydigan yana bir soʻz *kette* soʻzidir (Toparli va boshq. 2007). Bu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida “ulkan” maʼnosida qoʻllanadi (Yusuf, 1993: 244):

Ve ani taşlediler kette çāhge (21), Suhayl kōngline taşlep kette ātaş (33).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida “hech” maʼnosida qoʻllangan *sira* soʻzi ham “Suhayl va Guldursun”da uchraydi (Yusuf, 1993: 306). Bu soʻz “Gulistoni bit-turkiy” va boshqa mumtoz turkiy asarlarida uchramaydi (Toparli et al. 2007):

Sira asmey alar gūş āh u vāhge (21).

“Suhayl va Guldursun” uchraydigan soʻzlardan boʻlgan *botqa* soʻzi tarixiy matnlarda uchramaydi, lekin bugungi oʻzbek adabiy tilida mavjud (Sevortyan, 1979: 2011):

“Suhayl va Guldursun” uchraydigan soʻzlardan biri boʻlgan *botqa bol* – “aralashib, ezilib, boʻtqa holiga kelmoq” soʻzi ham tarixiy matnlarda bunday shaklda uchramaydi, lekin hozirgi oʻzbek adabiy tilida mavjud (Sevortyan, 1979: 2011):

Buday savruldi tofrağ boldi botqa (05).

Geliosentrik koinot modeli muammosi

“Suhayl va Guldursun” dostonining 42-bandida dunyo quyosh atrofida aylanganidek, Guldursun ham Suhayl atrofida aylanayotgani bayon qilinadi:

Suhaylni kōrdi-yu aylandi bir dēk

Güneş girdinde yürüen mişl-i yēr tēk (42).

Ayrim tadqiqotchilar ushbu baytga asoslanib, geliotsentrik koinot modeli Kopernikdan ancha oldin islom olamida ishlab chiqilgan, deb hisoblaydilar (Minnegulov, 1972: 136; İşgay, 1978: 24; Malikov, 2020: 42; Zaripova Çetin, 2006: 141; Khayrullin, 1998: 32; Gafarov, 2012: 72; Abyzova, 2019: 9). Hatto rus arxeologi Lev Leonidovich Galkin Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi bilim Kopernikdan ancha oldin Oltin Oʻrdada mavjud boʻlganligi haqida maqola eʼlon qildi. Bu tadqiqotda Galkin tomonidan ilgari surilgan fikrning asosi soʻz yuritilgan baytdir (2011: 24). Biroq daʼvogarlar matn tomonidan taqdim etilgan filologik maʼlumotlarni eʼtiborsiz qoldiradilar. Matnning til xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan boʻlimda koʻrinib turibdiki, “Suhayl va Guldursun” dostonining til xususiyatlari “Gulistoni bit-turkiy”ning til xususiyatlaridan ancha farq qiladi. Matnda keyingi davrlarga oid juda koʻp fonetik, morfologik va leksikologik xususiyatlar mavjud boʻlib, ular “Gulistoni bit-turkiy”da uchramaydi. Oʻzbek lahjasining taʼsiri “Gulistoni bit-turkiy” dostonida yaqqol koʻrinadi.

Daʼvolar manbayi boʻlgan baytda arabcha *mişl* va turkcha *yēr* soʻzlari bilan forsha ibora hosil qilingan, undan keyin turkcha *tēk* predlogi qoʻshilgan. Bunday ibora “Gulistoni bit-turkiy”da ham, oʻsha davrning boshqa asarlarida ham, Navoiy tilida yozilgan klassik davr asarlarida ham uchramaydi. Darhaqiqat, “Gulistoni bit-turkiy”da “oʻxshash, teng” maʼnosini anglatuvchi *mişl* soʻzi hech qachon ishlatilmaydi. Koʻrib chiqilayotgan baytdagi gapga oʻxshash iboralarni birinchi marta XVIII asrdagi Turkiston adiblari ijodida koʻramiz. Masalan, Boborahim Mashrab asarlarida *mişl-i men dik, mişl-i ħar dik, mişl-i ot dik, mişl-i rübā dik, mişl-i iblīs dik, mişl-i Ādam dik* kabi iboralar tez-tez uchrab turadi (Gedik, 2010: 33-34). Yana soʻz yuritilayotgan baytning birinchi

misrasida “lahza, payt” ma’nosida anglashilgan *dék* so’zi bor. Bu so’z yoki uning fonetik variantlari na Navoiy tilida yozilgan klassik davr asarlarida, na “Gulistoni bit-turkiy”da, na boshqa mumtoz turkiy asarlarida bunday ma’noga ega emas. Bu so’zning “payt” ma’nosi Shayx Sulaymon Afandi lug’atida uchraydi (Durgut, 1995: 344). Shayx Sulaymon Afandi ham o’z lug’atiga XIX asr o’zbek shevalaridan ko’p so’zlarni kiritgan (Caferoğlu, 2000: 228). Bizningcha, “Suhayl va Guldursun” dostonida *dék* shaklida, Shayx Sulaymon Afandi lug’atida *dek* shaklida ko‘rilgan “payt” ma’nosidagi so’z ham o’zbek shevalari lug’atiga kiradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, hozirgi o’zbek adabiy tilida fors tilidan olingan *u* predlogi unli bilan tugagan so’zlarga {+yu} shaklida qo‘shiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu quyida zikr etilgan baytning birinchi misrasida qo‘llangan:

Suhaylni kördi-yu aylandi bir dék (42).

Bu barcha filologik ma’lumotlardan kelib chiqib, hozirgi o’zbek adabiy tilining xususiyatlarini ko‘rsatuvchi “Suhayl va Guldursun”dagi ushbu baytning XIV asrda Sayfi Saroyi tomonidan yozilmaganligini aniq aytishimiz mumkin.

Xulosa. Filologiyaning asosiy vazifalaridan biri ma’lum bir tarixiy davrga tegishli deb da’vo qilingan yozma matnlar, ayniqsa, adabiy matnlarni haqiqatda da’vo qilingan davrga tegishli yoki yo‘qligini aniqlashdir (Kampbell, 2020: 366). Nasrullo Davron 1968-yilda yozgan kirish maqolasidan boshlab, “Suhayl va Guldursun” dostonini o‘rgangan yoki u haqida so‘z yuritgan barcha tadqiqotchilar mazkur masnaviyni Sayfi Saroyiga tegishli ekanligi to‘g‘risida bir fikrda. Ammo matnning filologik tahlili bu dostonning na XIV asrda yozilganini, na Sayfi Saroyiga tegishli ekanligini ko‘rsatmoqda. Chunki hozirgi o’zbek adabiy tilining unsurlari matn tilida juda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Matnning hozirgi o’zbek adabiy tili unsurlari ko‘rinib turgan joylarida vazn buzilmasligi, hatto ayrim bandlardagi olmoshlarning hozirgi o’zbek adabiy tiliga xos so‘zlar bilan ifodalanishi Sayfi Saroyi matnining ko‘chiruvchi tomonidan buzib ko‘rsatilishi ehtimolini ham yo‘qqa chiqaradi. Katta ehtimol bilan XIX asr oxiri yoki XX asr boshlarida yozilgan bu dostonga asoslanib, Oltin O‘rdada Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi ma’lumotlar bor, deb da’vo qilish, tabiiyki, to‘g‘ri emas. Bizning fikrimizcha, “Suhayl va Guldursun” dostonida uchragan hijriy 796-(1394) sanasi “Gulistoni bit-turkiy”ning yozilish sanasiga yaqin tanlangan soxta sanadir, bu matnni XIX asr oxiri yoki XX asr boshlarida yozgan shaxs tomonidan ixtiro qilingan bo‘lishi mumkin. Natijada, filologik ma’lumotlarga asoslanib, “Suhayl va Guldursun” dostonini XIV asrda Sayfi Saroyi yozmaganligini aniq aytishimiz mumkin. Shunga qaramay, bu matn hozirgi o’zbek adabiy tilining ilk yozma matnlaridan biri bo‘lgani bilan ahamiyatlidir.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Abdullayeva M. O‘zbek adabiyoti o‘qituvchi sillabusi. (13.05.2021). // <http://navoiyuni.uz/upload/uploads/oquvrejalar/ota/2-%20Ozbek%20adabiyoti.pdf>, 2020,
2. Абызова Р.Р. Становление и развитие татарской педагогической мысли (X – XVI вв.) // Ученые записки университета им. П.Ф.Лесгафта. – 2019. – № 10. – С. 7-12.
3. Bodrogligeti A. A collection of Turkish poems from the 14th century. // *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae*. Vol. 16, 3, 1963. – B. 245-311.
4. Bukharaev R. Islam in Russia: the four seasons. – London, 2013.
5. Caferoğlu A. Türk dili tarihi II. – İstanbul, 2000.
6. Campbell L. Historical linguistics: an introduction. – Cambridge-Massachusetts, 2020.
7. Davron N. Sayfi Saroyining Suhayl va Guldursun dostoni. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2, 1968. – B. 61-64

8. Djuraev M. M., Zohidova D. O‘zbek adabiyoti tarixi fanining ishchi o‘quv dasturi (1-kurs uchun). http://www.kspi.uz/pictures/documents/Ozbek_adabiyoti_tarixi_1-kurs.pdf, 2019, (17.05.2021).
9. Durgut H. Şeyh Süleyman Efendi-i Buhari Lügat-ı Çağatay ve Türki-i Osmani (Cild-i Evvel) adlı eserin transkripsiyonu. Magistr. diss. – Edirne, 1995.
10. Гафаров И.А. От истоков к истине (История Волжской Булгарии и Казанского ханства на перекрестке мнений) – Казань: «Идел-Пресс», 2012. – 256 с.
11. Л. Галкин. Гелиоцентризм был известен в Золотой Орде задолго до Коперника // сборник научных статей, посвященный памяти В. П. Костюкова, 2011. – С. 22-25
12. Gedik S. Baba Rahim Meşreb’in Kitab-ı Mebde-i Nur mesnevisi (inceleme-metin-gramer-dizin). Fan nomzodi. diss. – Ankara, 2010.
13. İşğay İ. Seyf Sarayî’nin yeni bulunan eserleri. // – *Töre*, 83, 1978. – B. 21-24,
14. Karamanlıoğlu A. F. Seyf-i Sarâyî’nin Gülistan Tercümesi’nin dil hususiyetleri. // *Türkiyat Mecmuası*, 15, 1968. – B. 75-126.
15. Гриф Хайруллин, История Татар. http://tatar.kz/hairullin/grif_hairullin_-_istoria_tatar.pdf, 1998, (20.06.2021).
16. Маликов Р. С. Просветительские идеи эпохи Золотой Орде, *Вестник НГПУ*, 2, 2020. – B.40-43.
17. Matthews, D. J., Bukharaev R. Historical anthology of Kazan Tatar verse: voices of eternity. – London, 2020.
18. Minnegulov H. Y. Seyf Sarayinin yana eserlere. // *Kazan Utları*, 6, 1972. –B. 129-139
19. Özkan M. Seyf-i Sarâyî.// *Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi*, Vol. XXXVII, 2009. – B. 28-29.
20. Öztürk R. Özbek Türkçesi.// *Türk lehçeleri grameri*, (ed. Ahmet Bican Ercilasun). – Ankara, 2012. –B. 291-354.
21. Sadybekov K. -Mış / -Miş Sıfat-Fiil ekinin tarihi gelişimi üzerine (Memlük Kıpçak eserleri örneğinde).// *Turkish Studies*. Vol. 10, 16, 2015. –B. 983-994,
22. Сайфетдинова Э. Исламская культура Золотой Орды.// *Золотая Орда в мировой истории*, (ed. Rafael Khakimov and Mari Favero). – Kazan, 2016. –B. 457-453.
23. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букви «Б». М., 1974.
24. Tolkun S. *Özbek Türkçesinin leksikolojisi*. Magistr. diss. – İstanbul, 1994.
25. Toparlı R., Vural H., Karaatlı R. Kıpçak Türkçesi sözlüğü. – Ankara, 2007.
26. Toprak F. Seyf-i Sarâyî.// *Türk edebiyatı isimler sözlüğü*. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/seyfi-sarayi>, 2014, (23.07.2021).
27. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi – o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.
28. Yusuf B. Türkçe-Özbekçe ve Özbekçe-Türkçe sözlük. – Toshkent, 1993.
29. Zaripova Çetin Ç. Tatar edebiyatının gelişimi.// *Akademik Bakış Uluslararası Hakemli Sosyal Bilimler E-Dergisi*, 9, 2006. –B. 138-151.

XV ASR TURKIY ADABIYOT QASIDANAVISLIGIDA AN’ANA VA O’ZIGA XOSLIK

RAYIMOVA Shohsanam,

Samarqand davlat universiteti

Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti (O‘zbekiston)

E-mail: rshohsanam965@gmail.com

ORCID: 0009-0009-8836-3853

Annotatsiya: Maqolada turkiy adabiyot qasidanavisligida qasidaning yuzaga kelishi, ushbu janr bo‘yicha qalam tebratgan ijodkorlar, ularning ijodida qasidaning shakli, mazmuni, o‘ziga xosligi, qasidanavislik an‘anasi tahlil qilinadi. Turkiy adabiyotda dastlabki qasida namunalari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Alisher Navoiy yaratgan va Sulton Husayn Boyqaroning taxtga chiqishiga bag‘ishlangan “Hiloliya” qasidasi va uning ta‘sirida yaratilgan qasidalar o‘zidan avvalgi yaratilgan qasidalarga ayrim jihatlariga ko‘ra umumiy xususiyatlarni kasb etadi va shu bilan birga o‘ziga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: *qasida, turkiy adabiyot, qasidanavislik, Alisher Navoiy, “Hiloliya” qasidasi, XV asr.*

ТРАДИЦИЯ И СВОЕОБРАЗИЕ В ПОЭЗИИ ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XV ВЕКА

Аннотация. В статье проанализированы формирование касыды в тюркской литературе, писатели, творившие в данном жанре, форма, содержание, своеобразие касыды, анализ традиций касыд. Примеры более ранних касыд в тюркской литературе приведены Махмудом Кашгари в «Девону луготит тюрк». Касыда «Хилолия», написанная Алишером Навои и посвященная восшествию на престол султана Хусейна Бойкаро, и касыды, написанные под её влиянием, имеют некоторые общие черты, и в то же время выделяются некоторыми специфическими особенностями.

Ключевые слова: *касыда, тюркская литература, касыдотворчество, Алишер Навои, касыда «Хилолия», XV век.*

TRADITION AND UNIQUENESS IN 15 TH CENTURY TURKISH LITERATURE POETRY

Abstract: The article analyzes the structure of the qasida in qasida writing in Turkish literature, the creators who wrote in this genre, the form, content, and uniqueness of the qasida in documentary creation, and the tradition of qasida writing. Mahmud Kashgari cited examples of previous qasidas in Turkish literature in his work “Devonu lug‘otit Turk.” The qasida “Hiloliya” was created by Alisher Navoi and dedicated to the accession to the throne of Sultan Husayn Baykara, and under its influence, qasidas acquired standard features with previous qasidas due to some factors, and at the same time, stand out uniquely with some of their own.

Key words: *ode, Turkish literature, ode writing, Alisher Navoi, ode "Hiloliya", 15th century.*

Qasida so‘zi arabcha “qasd” so‘zidan olingan bo‘lib, “niyat qilmoq”, “ko‘zlamok” ma‘nolarini anglatadi. Qasidaning yaratilish tarixiga nazar tashlansa, aksariyat hollarda dastlab shohlar, hukmdorlarning hokimiyat tepasiga chiqishi munosabati bilan shohga zamondosh bo‘lgan ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Qasidada hukmdor ulug‘langan va uning hukmdor va inson sifatidagi sifatleri ijobiy jihatlariga boy sifatida ko‘rsatib talqin qilingan. Qasida janriga mansub

bo'lgan dastlabki namunalar Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit” asarida uchraydi. Qasidaning hajm xususiyatlari aniq miqdorda necha bayt bo'lishi belgilanmaganligi tufayli bugungi kunga qadar yaratilgan qasidalar turli miqdordagi baytlardan tashkil topgan. Qasidada “baytlar soni 12 tadan kam bo'lmasligi kerak. Oxirgi chegarasi necha bayt bo'lishi haqida klassik adabiyotimizda ham, hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham barqaror fikr aytilgan emas” (Носиров 1979: 129). Qasidaning takomili, mavzu-mundariyasi turlicha bo'lgan. XV asrga kelib qasidanavislik rivoji o'zining yuqori nuqtasiga erishadi. XV asrda yashab ijod qilgan ijodkorlardan Amiriy, Gadoiy, Sakkokiy kabi adiblar qasida janrida qalam tebratganlar. Namlari qayd etib o'tilgan ijodkorlar orasida qasidanavislikda Sakkokiy ancha muvaffaqiyatli ijod qilgan. Sakkokiyning 10 ga yaqin qasida bitganligi adabiyotshunoslikda ma'lum. Sakkokiy devon tartib qilganida qasidalar ham devondan o'rin oladi. Sakkokiyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab bitgan qasidalari orasida eng mashhurlaridan hisoblanadi. Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab Sakkokiy 4 ta qasida yaratgan. Biz tadqiqotimizda XV asrda Alisher Navoiy tomonidan hukmdor va ijodkor Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan “Hiloliya” qasidasi xususida so'z yuritimiz. “Hiloliya” qasidasi “Badoye ul-vasat” devonidan joy olgan. Qasida o'ziga xos kompozitsiyaga ega bo'lib, u 91 baytdan iborat.

“1468-yil Xuroson hukmdori Abu Said Mirzo Eron uchun bo'lgan jangda halok bo'ladi va 1469-yilning boshida Husayn Boyqaro taxtni egallaydi. U Samarqandga maktub yo'llab, Navoiyni o'z yoniga chaqiradi va Navoiy Hirotga qaytadi. Shu yilning aprelida ramazon hayiti kunlarida shoir unga bag'ishlab “Hiloliya” qasidasini yozadi. U Husayn Boyqaroning taxtga chiqishini yangi oy – hilolga qiyos qiladi:

Yangi oy-u iyd iki qullug'ching o'lsun, aylagan

Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatini” (Sirojiddinov va boshqalar 2018:26).

Husayn Boyqaroni yangi oyga qiyoslashi ostida ko'chma mazmun mujassam. Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelguniga qadar ham toj, taxt, hokimiyat ilinjida temuriy shahzodalar o'rtasida turli shakllarda kurash bo'lib, mamlakat tinchligiga soya solayotgan edi. Tabiiy ravishda tinchlik bo'lmakan o'lkada rivojlanish hech qaysi bir sohada ham mavjud bo'lmaydi. Alisher Navoiy do'sti, shoh va shoirning hokimiyat tepasiga kelishini iliq kutib olganligi, uning Husayn Boyqaroning mamlakatda osoyishtalik o'rnatishiga, tinchlik tufayli hayot har tomonlama taraqqiy etishiga umid bog'lagan. Darhaqiqat, Husayn Boyqaro o'z hukmronligi davrida mamlakatda hayotning turli jabhalarida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga hissa ham qo'shgan. Jumladan, san'at, ilm-fan, madaniyat sohalarida bir qator xalq manfaatiga xizmat qiluvchi islohotlar ham o'tkazgan va natijada hayotning ijtimoiy, siyosiy, madaniy jabhalari ma'lum darajada rivojlangan. “Husayn Boyqaro temuriylar davri adabiyotining anchagina ko'zga ko'ringan namoyandalaridan edi. U she'rlarini «Husayniy» taxallusi bilan yozardi. Hazrat Navoiyning xabar berishicha, har ikki: forsiy va turkiy tilda she'r yaratish iqtidoriga ega bo'lgan Husayn Boyqaro asosan o'zbek tilida ijod qilgan. Shu tilda yozgan she'rlaridan devon ham tuzgan. U boshqalarni ham o'zbek tilida she'r yozishga da'vat etgan. Hatto, u tomonidan, deydi Navoiy, «... iltifot va ehtirom yuzidin ba'zi ma'nilar topib nazm qilurg'a hukmlar ham joriy bo'ldi va so'z uslubig'a ta'yinlar va adosig'a ta'limlar ham izhore bo'ldi” (<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husayn-boyqaro-gazallar-muxammaslar-tortliklar.html>).

Odamiylik olamida gumanizm ruhi ustun bo'lgan Alisher Navoiy ma'lum bir shaxs haqida nimadir so'z desa shunchaki demaydi, u o'z asarlarida tilga olgan ijodkorlar jamiyat uchun yo ijtimoiy-siyosiy yo ma'naviy, madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega sa'y-harakatlarni amalga oshirgan insonlardir. Jumladan, Husayn Boyqaro hokimiyatga kelgach mamlakat siyosiy hayoti uchun ham

ma'naviy hayoti uchun ham shoh sifatida ham shoir sifatida ham dolzarb vazifalarni ado etadi. Alisher Navoiy qasidada yangi hukmdorni mamlakatdan zulmni supurib tashlab, adolat qaror toptirganligini shunday ta'riflaydi:

Ul zamon har sari yuzlansa humoyun mavkabing,
Solib ofoq ichra rustoxez shaynu hinjatin.

Tushsa har yon tig'ing, olg'ay benihoyat xalqning
Jismidin bosh zahmatin, boshtin tamanno zahmatin. (A.Navoiy 1990: 358)

Hukmdorning tig' ushlab qilgan barcha say-harakatlari ortidan ko'zlangan yakka-yu yagona maqsad mavjud bo'lib, u ham bo'lsa mamlakatga, o'z xalqiga tinchlik keltirishdir. Qasidaning yana bir baytida Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni insoniy fazilatlariga yuqori baho berib quyidagicha ta'riflaydi:

Shohlig'da g'oyati darveshlig'din ko'rmayin,
Bo'ryoyi farqcha zarkash sariri rif'atin.

Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, haq
Shoh qildi suvratin, darvesh qildi siyratin. (A.Navoiy 1990 : 356)

Tarix haqiqatlari orasida mavjud haqiqatlardan biri shuki, mamlakatda hukmronlik qilayotgan hukmdor oqil bo'lsa, ilm-fan homiysi sifatida namoyon bo'lsa, mamlakatda ma'naviy hayot rivojlanadi, biroq shoh zolim bo'lsa jamiyatda uning davrida zulm, adolatsizlik avj oladi. Temuriy shahzodalar orasida ziyoli, ilm-ma'rifat egalari ham bo'lgan, biroq shu bilan birga o'z boshqaruvi davrida mamlakatdagi ilm-ma'rifat egalari benihoya tazyiq o'tkazganlari ham yo'q emas. Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro kabi shaxsning shu jihatdan ham taxtga chiqishini olimu ulamolarning istiqboli sifatida qarshi oladi.

Shoh tariqasida o'z ishini dastlab mamlakatda tinchlikni barqaror toptirishdan boshlagan hukmdor, shoir sifatida atrofiga ilm-fan ahlini to'playdi, olim-ulamolarni jamiyatning ma'naviy rivoji uchun qilgan ezgu faoliyatlariga munosib ravishda rag'batlantirib boradi. Husayn Boyqaro ilm-fan yo'lida ijod qilish uchun zarur bo'lgan madaniy muhitni qaror toptirganligi bilan ham o'ziga xos hukmdor sifatida ajralib turadi.

Turkiy qasidanavislik haqida so'z ketganda Ahmad Poshoning qasida janriga oid yaratgan qasidalarini e'tirof etmaslik mumkin emas. Ahmad Posho ijodining asosiy qismi g'azallardan iborat ekanligiga qaramay, qasidanavislikka ham o'z qalamini yurg'izgan ijodkorlardan hisoblanadi. “Ahmad Posho g'azalnavis sifatidagina emas, qasidanavis sifatida ham mashhur bo'lgan. Birinchi yozgan “Saroy qasidasi” 1461 yil Sulton Mehmet Fotih Istanbulda qurdirgan, Yevropada Several nomi bilan mashhur, nihoyatda go'zal saroy xaqidadir. Shoir saroyini fotografik aniqlikda tasvirlash bilan cheklanmay, shohona odob-axloq haqida ham fikr yuritadi. Asar badiiy jihatdan ham, madaniyat obidasi haqida ma'lumot berishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Ikkinchi qasida “Karam qasidasi” olijanoblikni madh etsa, uchinchi “Quyosh qasidasi” Sulton Mehmed II ga bag'ishlangan” (<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/turk-she-riyati/ahmad-posho-1497>).

Alisher Navoiyning she'riy asarlariga naziralar bog'lash turli davrlarda turli ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, shunday ijodkorlardan biri Munisdir. “Munis ancha g'azallarida Navoiydan aynan baytlar olib, ularni o'z she'rlari tarkibida tazmin sifatida keltirib, shu misra va baytlar darajasida badihalar yaratishga erishadi. Nazirai benazir g'azallar, muxammas va qasidalar yaratishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, Munis Navoiyning «Hiloliya» qasidasidagi Ey qoshing mehrobi tarh aylab yangi oy hay'atin, Vaqf ango qilmish maloyik xayli naqdi toatin — matla' baytini keltirib, so'ng unga javob ayta olish shoirning balog'ati mezonidir, — deydi va shu

bayt izidan borib, unga mos tushuvchi «Iyd» qasidasini yarata olganligidan faxrlanadi” (Orzibekov 2006:135).

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Носиров О. ва бошқалар. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –б. 129.
2. Sirojiddinov Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. –Т.: Tamaddun, 2018. 26-b.
3. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Т.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 135-b.
4. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik.Т. 5.Хазойин ul-maoniy: Badoe’ ul-vasat. Т.: «Fan», 1990.
5. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/40-alisher-navoiy-asarlari>

O‘ZBEK TILIDA SLENGLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA TASNIFI

BEKMURADOVA Iroda Zokir qizi,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti magistranti (O‘zbekiston)
E-mail: irodabekmuradova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi slenglarning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan. Tilda mavjud slenglarning etimologik, morfologik, semantik, tematik xususiyatlari o‘rganilib, umumlashtirilgan hamda o‘zaro moslik asosida guruhlangan. Slenglar tasnifining bugungi kun ilm-fanidagi ahamiyati tavsiflangan. O‘zbek tilidagi slenglarning lingvistik, sotsiolingvistik va nutq vaziyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda maqolada o‘zbek tilidagi slenglarning kelib chiqishi (etimologiyasi) va hosil bo‘lish usuliga ko‘ra tasnifi berilgan. Maqolada slenglarning ma‘noviy bo‘yoqdorligi ham o‘rganilib, ularning ijobiy, salbiy va neytral baho formasiga ega ekanligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, maqolada slenglarning mavzuviy tasnifi berilgan. Mazkur qarashlar o‘zbek tilida slenglarning o‘rni va funksiyalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *sleng, guruh, ma‘no ko‘chishi, ko‘chma ma‘no, so‘zlashuv nutqi.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И КЛАССИФИКАЦИЯ СЛЕНГОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье раскрываются лингвистические особенности сленгов в узбекском языке. Изучены, обобщены и классифицированы по определённым признакам этимологические, морфологические, семантические, тематические особенности сленгов в языке. Определено значение классификации сленгов в современной науке. Проанализирована лингвистическая, социолингвистическая функции и ситуативная роль сленгов в узбекском языке. Кроме того, в статье приведено происхождение (этимология) и классификация сленгов в узбекском языке по способу образования. Также в статье исследована семантическая окраска сленгов и установлено, что они имеют положительную, отрицательную и нейтральную оценочную формы. Также в статье представлена тематическая классификация сленгов. Данные размышления помогают лучше понять роль и функции сленга в узбекском языке.

Ключевые слова: *сленг, группа, перенос значения, переносное значение, разговорная речь.*

LINGUISTIC CHARACTERISTICS AND CLASSIFICATION OF SLANGS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Abstract. This article reveals the linguistic features of slangs in the Uzbek language. Etymological, morphological, semantic, thematic features of slangs in the language are studied, summarized and grouped based on mutual compatibility. The significance of slang classification in today's science is described. The role of slangs in the Uzbek language in linguistic, sociolinguistic and speech situations is analyzed. In addition, the article describes the origin (etymology) and classification of slangs in the Uzbek language according to the method of formation. The article also studies the spiritual coloring of slangs and shows that they have a positive, negative and neutral evaluation form. The article also provides a thematic classification of slangs. These views help to better understand the role and functions of slang in the Uzbek language.

Keywords: *slang, group, meaning transfer, figurative meaning, colloquial speech.*

Kirish. Bugungi kunda so‘zlashuv nutqida slenglar tobora ko‘p qo‘llanilib, ularning ma‘nosi kun sayin hammaga tushunarli bo‘lib bormoqda. Sleng va jargonlar so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanish bilan bir qatorda internet nashrlari, ommaviy axborot vositalari materiallarida ham keng qo‘llanilmoqda. Shu munosabat bilan bunday so‘zlarning lingvistik xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, slenglarni tasniflab o‘rganish kabi masalalar tadqiqotchilar oldiga bu boradagi dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Demak, til va jamiyatning o‘zaro ta‘sirini turli ijtimoiy qatlamlarda, xususan, ijtimoiy va professional guruhlar tomonidan foydalaniladigan til birliklarini chuqur o‘rganmasdan tadqiq etish mumkin emas. Slenglarni xususiyatlariga ko‘ra tasniflash tilshunosligimiz, xususan, sotsiolingvistika uchun yangi ilmiy xulosalar tomon yetaklaydi. Slenglar – norasmiy, noan‘anaviy va ko‘pincha muayyan ijtimoiy guruhlar yoki jamoalarga xos bo‘lgan so‘zlar va iboralar to‘plami. Ular ma‘lum bir guruh a‘zolari uchungina tushunarli bo‘ladi. Slenglar ko‘proq yoshlarning nutqida uchraydi. Masalan, *yedirdi* – “qoyillatdi, bopladi”, *g‘isht* – “xunuk” va h.k. Slenglarning ko‘p so‘zlari va iboralari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Masalan, *g‘ijim* (o‘ziga qaramaydigan, o‘ziga bee‘tibor odam) *shkaf* (barvasta, gavgdali, norg‘ul), *shlang* (bo‘yi uzun, novcha) kabilar.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Umumiy tilshunoslikda slenglar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib amalga oshirila boshlandi. XX asrning 70-90-yillarida zamonaviy jahon tilshunosligida “kodlanmagan” noadabiy leksikaga qiziqish kuchaydi. Rus tilshunosligida XX asrning oxiri, XXI asrning boshlariga kelib, Y.G.Borisova-Lukashanets, K.I.Dubrovina, V.Yelistratov, P.V.Lixolitov, V.M.Mokiyenko, L.A.Radzixovskiy, P.G.Mazurova, R.I.Rozina, M.A.Grachyov, L.I.Skvorsov kabi olimlar tomonidan zamonaviy rus yoshlari nutqidagi slenglar, ularning izohi va qo‘llanish xususiyati tadqiq qilina boshlandi.¹

Ingliz tilshunosligida slenglarning lingvistik, sotsiolingvistik va nutq vaziyatidagi o‘rni bo‘yicha tadqiqotlar Eric Partridge², Robert Chapman³, Francis Grose⁴, Albert Barrere⁵, John Stephen Farmer, William Ernest Henley⁶ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ko‘rinib turganidek, ingliz olimlarida slengning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishdan ham ko‘ra, ularning lug‘atlarini ishlab chiqish va chop qilish ishlari ko‘p amalga oshirilgan. Bu boradagi ilmiy ishlar hajmi slenglarni o‘rganish nafaqat tilshunoslikning leksikologiya bo‘limiga doir, balki sotsiologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi tarmoqlarining ham o‘rganish obyekti hisoblanishini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Slenglar tasnifiga oid qarashlarni bugungi kunda yoshlar nutqida ko‘p ishlatiladigan slenglar asosida quyidagicha tavsiflash mumkin.

I. O‘zbek tili slenglarining kelib chiqish (etimologiyasiga ko‘ra tasnifi)

O‘zbek so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan slenglarning ko‘pchiligi boshqa tildagi muayyan tushunchani qanday bo‘lsa shundayligicha tilga olib kirish asosida hosil bo‘lgan bo‘lsa ham, tilimizda o‘zbekcha slenglar ham keng qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqib, slenglarni tahlil qilish

¹ Матюшенко Е. Современный молодежный сленг: формирование и функционирование. автореф. дисс. кандидата филологических наук – Волгоград, 2007. – 4 б.

² Eric Partridge, *Slang today and yesterday* – London, “Routledge & Kegan Paul Ltd”, 1933. 496 p. *A dictionary of slang and unconventional English* – London, “Routledge & Kegan Paul Ltd”, 1937.

³ Chapman Robert. *American slang* – “Harper Perrenial”1998, 598 p.

⁴ Grose F. *Lexicon Balatronicum: A dictionary of Buckish slang, university wit and pickpocket eloquence* – London, 1811, 260 p.

⁵ Barrere A. *Argot and slang: a new slang French and English dictionary.*

⁶ Farmer J., Henley W. *Slang and its analogues.* – 1904, 2736 p.

asosida etimologiyasiga ko‘ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin degan xulosaga keldik (*Qarang: 1-jadval*):

No	Etimologiyasi	Xususiyati	Misol
1	O‘zbekcha slenglar	O‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan so‘zlarning ma’no ko‘chish hodisalari asosida yangi ma’no kasb etishi.	<i>qovun, saqich, uxlatmoq, kiydirmoq</i> va h.k.
2	Chet tillaridan kirib kelgan slenglar	Bunday slenglar ko‘pincha yangi so‘zlar, qisqartmalar yoki boshqa tillardan olingan so‘zlar orqali yaratiladi. O‘zbek tilida, masalan, rus, ingliz va boshqa tillardan olingan sleng so‘zlar ko‘plab uchraydi.	<i>lipuchka, macho, tild, krinj, tresh</i> va h.k.
3	Aralash slenglar	Chet tilidagi slengning yoniga o‘zbek tilidagi qilmoq, bo‘lmoq, bermoq kabi fe’llarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan slenglar:	<i>hayp qilmoq, bortini bermoq, feyk tarqatmoq, gazini bermoq</i> va h.k.

1-jadval

O‘zbekcha slenglar tilimizda keng qo‘llaniladigan so‘zlarning ma’no ko‘chish hodisalari asosida yangi ma’no kasb etishidan hosil bo‘ladigan slenglar hisoblanadi. Bunday slenglar qatoriga *g‘isht, lag‘mon, uxlatmoq, kiydirmoq, yedirmoq, ketmon* kabilarni kiritish mumkin.

Chet tillaridan kirib kelgan slenglarga yangi so‘zlar, qisqartmalar yoki boshqa tillardan olingan so‘zlar kiradi. O‘zbek tilida, masalan, rus, ingliz va boshqa tillardan olingan sleng so‘zlar ko‘plab uchraydi. Masalan, *krinj, tresh, bratishka, lipuchka, tild, solti* va h.k.


Tilda shunday slenglar borki, ularni til jihatdan muayyan tilga mansub deyish qiyin, ya’ni ularning bir qismi o‘zbekcha bo‘lsa, bir qismi boshqa tillarga oid so‘zdan tuzilgan bo‘ladi. Bunday slenglarni uchinchi aralash slenglar guruhiga birlashtirish mumkin. Masalan, *hayp qilmoq, bortini bermoq, feyk tarqatmoq, gazini bermoq*.

II. O‘zbekcha slenglarning hosil bo‘lish (yasalish, kirib kelish) usuliga ko‘ra tasnifi:

Tilimizda mavjud o‘zbekcha slenglar odatda muayyan so‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi natijasida hosil bo‘lgan, ammo shu o‘rinda ular bir so‘zning turli ma’nolari bo‘lsa, unda nega alohida til birligi sifatida ajratish kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy. Barcha til birliklari kabi so‘zning ma’nosi ham muayyan matnda va muayyan nutqiy sharoitda voqelashishi sababli u aniq va ravshan bo‘ladi. So‘zning ma’nosi faqat imkoniyat tarzida mavjud bo‘lgan semema sifatida xilma-xillikka, umumiylikka ega emas. Turlicha matn va sharoitlarda bitta leksemaning voqelanishi sifatidagi yuzlab so‘zlarda yuzlab ma’no bo‘yoqlari, jilvalari bo‘lishi mumkin. Ayni vaqtda bu ma’no bo‘yoqlari, agar u bir semema orqali voqelashgan bo‘lsa, bir sememaning turlicha nutqiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Semema nutqda ikki xil voqelanishi, namoyon bo‘lishi mumkin. Birinchidan, so‘zning ma’nosida semema aloqador bo‘lgan tushunchaga munosabat saqlanib, uning tarkibidagi atash, ifoda va vazifa semalari munosabatida keskin o‘zgarish yuz bermaydi. So‘zning ko‘chma ma’nosi, asosan, sememadagi atash semalarini qisman chetlashtirish, yo‘ldosh va ifoda semalarini esa kuchaytirish orqali hosil bo‘ladi. Atash semalari qancha ko‘p chetlashtirilsa, so‘z ma’nosidagi yo‘ldosh va ifoda semalari shuncha ko‘p kuchaytiriladi.¹ Ko‘rinadiki, ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari o‘rtasida uzviy bog‘lanish bo‘ladi. Slenglarda esa so‘zning asl ma’nosi bilan ma’noviy bog‘liqlik juda zaif. Masalan *ajal*

¹ Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 73-b.

slengi. *Ajal* so‘z sifatida o‘lim ma‘nosida ishlatilsa, sleng sifatida ijobiy ma‘no ottenkasiga ega “maftunkor, gapga usta, qizlar bilan tezda chiqishib ketadigan” kabi ma‘nolarda ishlatiladi. Yoki *ketmon* slengiga nisbatan ham shunday deyish mumkin. So‘zning qishloqlik yigit ma‘nosida qo‘llanilishini hech qanday ma‘no ko‘chish deb bo‘lmaydi. Shu jihatiga ko‘ra slenglar ko‘p ma‘noli so‘zlardan farq qiladi, ammo ma‘no ko‘chish hodisalarining slenglar hosil bo‘lishida o‘rni nihoyatda beqiyos. O‘zbekcha slenglarni hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ma‘no ko‘chish asosida hosil bo‘lgan slenglar hamda yangi so‘z hosil qilish orqali hosil bo‘lgan slenglar tarzida guruhlashtirish mumkin. (*Qarang: 1-rasm*):



1-rasm

Ma‘no ko‘chish asosida hosil bo‘lgan slenglar. Sof o‘zbek tilidagi slenglarning aksariyat qismi asosan ma‘no ko‘chishi, ayniqsa metafora hodisasi natijasida paydo bo‘ladi. Unga ko‘ra so‘zning ayni ma‘nosidagi u yoki bu xususiyatning o‘xshashlik sabab boshqasiga ko‘chishi orqali uning yangi ma‘nosi asosida sleng paydo bo‘ladi. Masalan, *Ona kun bo‘yi u yoqdan bu yoqqa yuraverib charchagan bolasini alla aytib uxlatdi* gapidagi uxlatmoq fe‘lini olaylik. Ushbu so‘z gapda bolani uxlatish, uxlagan holatga solish ma‘nosini bildirib kelgan. Odam uxlagan paytda hech narsani sezmaydi, atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan xabarsiz vaziyatda bo‘ladi. Ushbu xususiyatga ko‘ra *uxlatmoq* so‘zi sleng sifatida aldamoq, chuv tushirmoq ma‘nosida keladi. Fikrni yanada oydinlashtirish uchun quyidagi misollarga qaraymiz: *MIBning soxta xodimi fuqaroni 31 000 dollarga “uxlatdi”*. [kun.uz] *Shuncha pulga “uxlabsan”, jo‘ra!* [ijtimoiy tarmoqdan]. Gaplarda *uxlatmoq* so‘zi aynan biz yuqorida keltirgan so‘zning sleng bo‘lib kelgandagi ma‘nosida kelgan. Yoki *saqich* so‘zini olsak, izohli lug‘atda ushbu so‘z “chaynash uchun mum va archa shirasidan maxsus tayyorlanadigan texnologiya bilan tayyorlanadigan modda”¹ deb izohlangan. Yopishqoqlik xususiyati mavjudligiga ko‘ra saqich so‘zi odamlarga nisbatan qo‘llanganda odamga yopishib oladigan, holi-joniga qo‘ymaydigan ma‘nosini bildiradi: *“Saqich” bo‘lma, yoqmayapsan* [ijtimoiy tarmoqdan] // *Endi “saqich”likka o‘tgan, bir minut xoli yashashga bermaydi*. [ijtimoiy tarmoqdan]

Ayrim slenglarning hosil bo‘lishida ikki tushuncha o‘rtasidagi metonimik ma‘no ko‘chishi asos bo‘lgan deyish mumkin. Masalan, *qovun* slengini olaylik. Ushbu sleng hamisha qovun tushirib yuradigan, laqma odamlarga nisbatan ishlatiladi. Tushunchaning qovun tushirib yuradigan odam shaklidagi ifodadan qovun holiga o‘tishi metanomiya asosida hosil bo‘lgan.

Yangi so‘z hosil qilish orqali hosil bo‘lgan slenglar. Tilimizda shunday slenglar borki, ular alohida so‘z holida mavjud emas. Bunday so‘zlar til vakillarining yaratuvchan ijodkorligi asosida hosil qilinib, bugungi kunda sleng sifatida keng qo‘llaniladi va faqat muayyan guruh vakillari uchun tushunarli bo‘ladi. Masalan: *cho‘qintoy*, *chumbul*, *niftema* va hokazo. Bunday slenglar odatda ayrim so‘zlovchilar guruhi o‘rtasida paydo bo‘lib, keyinchalik ommalashish natijasida

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 532-b.

boshqalarga ham tushunarli bo‘lib boradi. Yuqorida keltirilgan *cho‘qintoy* so‘zi qizlardan hech narsani ayamaydigan, nima desa qiladigan yigitlarga nisbatan ishlatiladi. Asosan o‘smir yoshlar orasida ko‘p qo‘llaniladigan sleng hisoblanadi.

III. Slenglarning ma‘noviy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ko‘ra turlari

Slenglarga uslubiy baho berilar ekan, ham ijobiy, ham salbiy munosabatga duch kelamiz. Ayrim olimlar sleng tilning adabiy normalariga qarshi qo‘llaniluvchi so‘zlar deb ta‘riflaydi. Boisi slenglarning adabiy tilda ma‘lum sinonimlari mavjud bo‘ladi, ularning o‘rniga qo‘pol, hazil mazmunidagi faqat shu ijtimoiy guruhgagina tushunarli bo‘lgan so‘zlar qo‘llaniladi.

T.I. Arbekova slengni izohlar ekan, turg‘un birikma bo‘lib, hissiy bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadigan til birliklari slengni tashkil qiladi, deydi.¹ Shu jihatdan olib qaraganda o‘zbek tilidagi slenglar chuqur ilmiy tadqiq qilinishi hamda sleng namunalarini bir lug‘atga birlashtirish tilshunoslik fani uchun katta yangilik bo‘ladi, sababi tildagi birliklar har bir tilning xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflanadi va bir umumiy sistemaga birlashtiriladi.

Tadqiqot davomida to‘plangan slenglarni o‘rganish orqali shunga amin bo‘ldikki, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan aksariyat slenglar so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan ichki, ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi. Salbiy xulosa ifodalovchi slenglar doimo subyektiv munosabat, ya‘ni so‘zlovchining ironiyali simpatiyasini ifodalaydi. Ijobiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan slenglar esa, fikr borayotgan tushuncha yoxud xulosaga nisbatan so‘zlovchining ijobiy bahosini bildiradi. Ko‘pchilik holatlarda slenglar aniq ma‘no ottenkasini ko‘rsatib tursa-da, tilda mavjud slenglar orasida neytral baho formasiga egalari ham bor. Ulardan kelib chiqqan holda so‘zlovchining vaziyatga bahosini aniqlash qiyin. (*Qarang: 2-jadval*):

№	Ijobiy bo‘yoqdor	Salbiy bo‘yoqdor	Neytral
1	<i>Bomba</i>	<i>Tapochka</i>	<i>Sakramoq</i>
2	<i>Udar</i>	<i>Lipuchka</i>	<i>Paxan</i>
3	<i>Ajal</i>	<i>Turshak</i>	<i>Vozduxan</i>
4	<i>Macho</i>	<i>G‘ijim</i>	<i>Lag‘mon</i>

2.2-jadval

IV. Slenglarni mavzuviy tasnifi.

O‘zbek so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan slenglarni qo‘llanilish mavzulariga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin, chunki ularning mavzuviy xususiyatlari xilma-xil. Masalan ayrim slenglar muayyan kasb egalari doirasida qo‘llaniladi va shu kasb egalari gagina tushunarli bo‘ladi. Bunday slenglarni umumlashtirib, professional slenglar deb atash mumkin.


Kundalik turmush bilan bog‘liq muloqotda ko‘p qo‘llaniluvchi, bunday jarayonlarni ifodalab keluvchi slenglar guruhiga ham alohida mavzuviy nom berish mumkin. Yana tilimizda shunday slenglar borki, ular asosan, ijtimoiy tarmoqlardagi xabar almashinuv jarayonida qo‘llaniladi. Bunday slenglarni ham internet va ijtimoiy tamroqlar slengi guruhi atrofida birlashtirish mumkin.

Slenglarning mavzuviy guruhlari ularning lug‘atini shakllantirish, mavzusidan kelib chiqqan holda izohini oson topish yoki tushunish imkonini beradi. Qolaversa, so‘zlarni mavzuviy

¹ Pardayeva B. O‘zbek tilidagi slenglar va ularning kelib chiqish sabablari//International scientific journal “Modern science and research”.

guruhlarga ajratish orqali ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni va ma’noviy munosabatlarni aniqlash, tilning boyligini va turli xil sohalarda ishlatilishi, vaqti o‘tishi bilan tilning qanday rivojlanishini va yangi so‘zlarning paydo bo‘lishini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, o‘zbek so‘zlashuv nutqida foydalaniladigan slenglarni mavzuviy xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin (*Qarang: 2-rasm*):



2-rasm

Professional slenglar: Bu turdagi slenglar muayyan kasb yoki soha vakillari tomonidan ishlatiladi. (masalan, dasturchilar slengi, sportchilar slengi, musiqachilar slengi va sh. k.) Kundalik muloqotda turli kasb egalari fikr almashish jarayonida maxsus “kodlangan” so‘zlardan ham foydalanadi. Bunday so‘zlar o‘zaro muloqotda ko‘proq qulaylik va ayrim axborotlarni boshqalardan yashirish uchun xizmat qiladi. Masalan, IT sohasida *bug* (xatolik) slengi.

Kundalik turmushga oid slenglar: Bunday slenglar keng doirada va ko‘plab odamlar tomonidan ishlatiladi. Masalan, *super, donat, uxlatmoq, kiydirib ketmoq, qovun* kabilar. Bugungi kunda mazkur slenglar ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lib ketgan, alohida izoh talab qilinmaydi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar slenglari: Qo‘llanilish doirasi ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar bo‘lgan bir turkum so‘zlar borki, ularni mazkur guruhga biriktirish mumkin, chunki bunday so‘zlarning mavzuviy xususiyati internet tarmoqlari atrofida bo‘lib, ko‘proq ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat va axborotlarning u yoki bu xususiyatini ifodalaydi. Misol uchun, *feyk, krinj, tresh, mem, DM, LOL, AUF*.

Ijtimoiy guruhlar slenglari. Muayyan yosh yoki xususiyat atrofida birlashgan ijtimoiy guruhlarga tegishli slenglarni o‘z ichiga oladi. Masalan talabalar slengi, “ko‘cha” slengi va hokazo.

V. Slenglarning semantik tasnifi

Tadqiqot davomida yig‘ilgan slenglarning ma’noviy xususiyatlarini o‘rganib chiqib, ularni quyidagi semantik guruhlariga bo‘lish mumkin degan xulosaga keldik. (*Qarang: 3-jadval*):

№	Semantik guruh	Misol
1	Harakat-holat bildiruvchi slenglar	<i>Patini yulmoq, gazini bermoq, uxlatmoq, kiydirmoq</i>
2	Narsa-buyum va mavhum tushunchalarni bildiruvchi slenglar	<i>Vozdux, buxanka, lapsha,</i>
3	Xususiyat bildiruvchi slenglar	<i>Ketmon, do‘ppi, g‘isht, turshak</i>

3-jadval

Slenglar og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar bo‘lgani uchun ular orasida xususiyat bildiruvchi slenglar miqdor jihatdan ko‘p uchraydi. Bunday slenglar misol qilib, *saqich, shkaf, shlang, nol besh, lipuchka, cho‘qintoy, bomba, udar, paskuda, ketmon, g‘ijim* kabi so‘zlarni misol qilib keltirish mumkin.

Tilimizda harakat-holat bildiruvchi slenglar ham talaygina bo‘lib, ular o‘z nomi bilan u yoki bu xatti-harakat yoxud faoliyatni obrazli tarzda o‘ziga xos yashirin ifodalaydi. Narsa-buyum va mavhum tushunchalarni bildiruvchi slenglar nisbatan kam bo‘lsa-da, o‘ziga xos ifoda hosil qilishda, nutqqa maxfiylik berishda keng ishlatiladi.

Slenglarni o‘zlari ifodalab kelgan ma‘noviy xususiyatga ko‘ra bunday guruhlash nisbiy bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan yangi paydo bo‘lgan yoxud boshqa tillardan kirib kelgan slenglarning xususiyatlariga qarab, yangi guruhlar paydo bo‘lishi mumkin.

VI. Slenglarning morfologik tasnifi

Slenglar tasnifida ularning morfologik tomonlama ham guruhlashtirish muhim ahamiyatga ega. Morfologik tasnif tilning grammatik tuzilishini tushunishga, so‘zlarning qanday qilib bir-biriga bog‘lanishini va jummalarni qanday qilib shakllantirishni tushunishga yordam beradi. Qolaversa, morfologik tahlil tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, matnni tahlil qilish, tarjima qilish, ma‘lumotlarni qidirish va boshqa ko‘plab vazifalarni bajarishda foydalaniladi. Tilni o‘rganish jarayonida so‘zlarning grammatik kategoriyalarini va shakllarini tushunish o‘quvchilarning tilni tushunishini yaxshilashga yordam beradi. Shunday qilib, morfologik xususiyatiga ko‘ra, slenglarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin. (*Qarang: 2.4-jadval*):

№	Morfologik guruhi	Misol
1	Ot slenglar	<i>Ajal, chayon, paxta, olmaxon, quyon</i>
2	Sifat slenglar	<i>Blatnoy, g‘ijim</i>
3	Fe‘l slenglar	<i>Uxlamoq, sog‘moq, hayp qilmoq</i>
4	Son slenglar	<i>Nol besh</i>

2.4-jadval

Mazkur morfologik tasnif ham nisbiy bo‘lib, yangi slenglarning xususiyatlariga qarab, yangi morfologik guruhlar paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa. Til va jamiyat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini shakllantiradi. Tilning ijtimoiy qatlamlarga va professional guruhlariga ta‘sirini, ayniqsa, slenglarni o‘rganish orqali aniqroq ko‘rinadi. O‘zbek tilidagi slenglar uning dinamikligini va o‘zgaruvchanligini aks ettiradi. Slenglar nafaqat tilni boyitadi, balki ijtimoiy muloqotda ham muhim rol o‘ynaydi. Ularning lingvistik xususiyatlari va tasnifi, o‘z navbatida, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida qiziqarli tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Slenglarni tasniflab o‘rganish eng avvalo, ularning lingvistik xususiyatlarini yanada aniqroq o‘rganish, o‘zaro taqqoslash orqali ma‘nolarini oydinlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Slenglarni xususiyatlariga ko‘ra tasniflash orqali biz tilning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga qanday moslashishini, turli guruhlar o‘rtasidagi aloqani va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunamiz. Bunday birliklarning og‘zaki nutqda tutgan o‘rni, amalga oshiradigan vazifalarini yanada teranroq anglaymiz. Slenglarni tasniflash tilshunoslikda tilning o‘zgaruvchanligini, ijtimoiy o‘zgarishlarni va madaniy o‘ziga xoslikni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning kelib chiqishi, ma‘nosi va ishlatilishi haqidagi ma‘lumotlar tilni qayta ishlash

texnologiyalarini rivojlantirishga, tilni o‘rganish va ta’lim berish jarayonini boyitishga yordam beradi. Bunday birliklar ma’lum bir ijtimoiy guruhning madaniyati, qadriyatlari va hayoti haqida ma’lumot beradi, shuning uchun ham ularning tasnifi ijtimoiy o‘zgarishlarni, yangi guruh va submadaniyatlarning paydo bo‘lishini, shuningdek, jamiyatdagi o‘zgarishlarning tilga ta’sirini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan tasniflar, tadqiqot davomida so‘zlashuv nutqidan yig‘ilgan slenglar misolida xulosalangan. Mazkur guruhlash slenglarni chuqur ilmiy tahlil qilish orqali yanada boyishi, kengayishi, yangi xilma-xilliklarga ega bo‘lishi slenglarni kompyuterga “tanitish” vazifasi bilan chambarchas bog‘liq. Zero, avtomatik tahlilda, slengga xos barcha xususiyatlarni izoh sifatida foydalanuvchiga taqdim etish sleng ma’nosining oydinlashishiga olib keladi, tarjima jarayonidagi turli noaniqlik va g‘alizliklarning oldini oladi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Barrere A. Argot and slang: a new slang French and English dictionary.
 2. Chapman Robert. American slang – “Harper Perrenial”1998, 598 p.
 3. Eric Partridge, Slang today and yesterday – London, Routledge & Kegan Paul Ltd, 1933.496 p.
 4. Farmer J., Henley W. Slang and its analogues. – 1904, 2736 p.
 5. Grose F. Lexicon Balatronicum: A dictionary of Buckish slang, university wit and pickpocket eloquence – London, 1811, 260 p.
 6. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 73-b.
 7. A dictionary of slang and unconventional English – London, “Routledge & Kegan Paul Ltd”, 1937.
 8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 532-b.
 9. Pardayeva B. O‘zbek tilidagi slenglar va ularning kelib chiqish sabablari//International scientific journal “Modern science and research”.
- Матюшенко Е. Современный молодежный сленг: формирование и функционирование. автореф. дисс. кандидата филологических наук – Волгоград, 2007. – 4 б.

ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

**ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING USMONLI SHOIRI SHAYH G‘OLIB
IJODIGA TA’SIRI**

Rohila RUZMANOVA,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti huzuridagi

Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti,

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

E-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6539-0511

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy adabiyotning buyuk mutasavvuf shoiri Alisher Navoiy adabiy merosining usmonli turk adabiyoti vakillari, xususan shoir Shayh G‘olib ijodiga ta’siri masalasi tahlil qilindi. Shayh G‘olib hayoti va ijodiga to‘xtalinib, shoir ijodining turk adabiyotidagi o‘rni, devoni haqidagi ma’lumotlar keltirildi. Alisher Navoiy ijodi ta’sirida usmonli turk adabiyotida rivojlangan lirik janrlardan biri qasidanavislik misolida “Hiloliya” va “Mehtab (Mohtob)” va “Çerağ (Chiroq)” qasidalarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinib, ijodiy izdoshlik va adabiy ta’sir masalasi yoritildi.

Kalit so‘zlar: *turkiy adabiyot, adabiy ta’sir, qasida, janr, ijodiy izdoshlik, usmonli turk adabiyoti.*

**ВЛИЯНИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ
НА ТВОРЧЕСТВО ОСМАНСКОГО ПОЭТА ШЕЙХА ГАЛИБА**

Аннотация: В данной статье проанализирован вопрос о влиянии литературного наследия великого суфийского поэта тюркской литературы Алишера Навои на творчество представителей Османской турецкой литературы, в частности поэта Шейха Галиба. В статье освещена жизнь и творчество Шейха Галиба, приведена информация о роли поэта в турецкой литературе, и его диване. Обосновано, что касыда в турецкой литературе получило развитие благодаря влиянию творчества Алишера Навои, с точки зрения идейно-художественного содержания проанализированы касыды “Hiloliya”, “Mehtab (Луна)” и “Çerağ (Светильник)”, освещены вопросы творческого подражания и литературного влияния.

Ключевые слова: *тюркская литература, литературное влияние, касыда, жанр, творческое подражание, Османская турецкая литература.*

**THE INFLUENCE OF ALISHER NAVOI'S LITERARY LEGACY ON THE WORK OF
THE OTTOMAN POET SHEIKH GALIB**

Abstract: This article analyses the influence of the literary heritage of Alisher Navoi, the great Sufi poet of Turkic literature, on the works of Ottoman Turkish literature representatives, particularly the poet Sheikh Ghalib. The life and works of Sheikh Ghalib are discussed, along with information about the poet's place in Turkish literature and his divan. The article analyzes the ideological and artistic aspects of the odes "Hilaliya," "Mehtab (Mohtob)," and "Çerağ (Chiroq)," which exemplify one of the lyrical genres that developed in Ottoman Turkish literature under the influence of Alisher Navoi's work. The issue of creative succession and literary influence is also explored.

Key words: *Turkic literature, literary influence, ode, genre, creative succession, Ottoman Turkish literature.*

Alisher Navoiy hayoti va ijodi o‘z davridayoq zamona olimlari va keng jamoatchilik e‘tiborini qozongan. Xususan, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” va Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” va “Bahoriston” kabi asarlari hamda boshqalar Navoiy ijodi va adabiy merosi haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

Tarixchi Xondamirning ma’lumotlariga ko‘ra, XV asr oxirida Hirotga turli o‘lkalardan Alisher Navoiy asarlarini yuborishlari so‘ralgan maktublar kelgan. Shoirning devonlari podshohlarga, sultonlarga, amir va ma’murlarga eng qimmatbaho hadya sifatida taqdim etilardi.

Alisher Navoiy turkiy til asoschisidir va manbalarga ko‘ra “Navoiy tili”, “Navoiy tarzi” sifatida qo‘llanilgan¹.

Anado‘lida so‘nggi asrlarda ijod qilgan ko‘plab shoirlar Navoiyni hurmat-ehtiram bilan tilga olishadi. Alisher Navoiy asarlari yozilgan yillardan boshlab O‘rta Osiyoda hamda Usmonli turk davlatida katta shuhrat qozonadi. G‘azallari o‘zi hayotligidayoq usmonli shoirlarining e‘tiborini qozonadi va ularga nazira bog‘lash an‘anaga aylanadi. Bu haqdagi ma’lumotlar manbalarda tez-tez tilga olinadi.

Hazrat Navoiy an‘analarini davom ettirgan usmonli turk adabiyoti vakillaridan biri Shayx G‘olibdir.

Mumtoz turk adabiyotining buyuk shoirlaridan biri Shayx G‘olib haqida hozirgacha turk adabiyotida ham tahliliy izlanishlar yetarlicha olib borilgan emas. Fuod Ko‘pruluning “Servet-i Funun”, Ahmet Hikmetning “Turk Yurdu Eserleri”, Abdulboqi Go‘lpinarlining “Husn-u Ishq” va “Shayx G‘olib devonidan namunalar”, Sedit Yukselning “Shayx G‘olib asarlarining til va san‘at qimmatini” va bu mavzuda prof. Orhan Okay va prof. Husayn Ayanning “Husn-u Ishq”i va prof. Naji Okjuning “Shayx G‘olib devoni”dan boshqa jiddiy tadqiqotlar uchramaydi. Naji Okju Shayx G‘olib devonining tanqidiy matnini nashrga tayyorlab, shoirning devon she‘riyatiga olib kirgan yangiliklari, g‘oyalari, she‘rlarining tasavvufiy xususiyatlari haqida tahliliy tadqiqotni amalga oshiradi. Shuningdek, Shayx G‘olib mumtoz she‘riyatning so‘nggi vakillaridan bo‘lganligi, she‘rlarida tasavvufiy tushunchalarning ustunlik qilganligi ham bu ishda o‘z aksini topadi. Tadqiqot tahlil va matn shaklida ikki qism holida tartiblanadi. Birinchi bo‘limda shoirning hayoti, asarlari, ikkinchi bo‘limda esa Shayx G‘olibning adabiy shaxsiyati va ifoda xususiyatlari tahlil qilinib, she‘rlaridan misollar keltirilib, izohlanadi. Uchinchi bo‘limda diniy tushunchalari, to‘rtinchi bo‘limda shoir she‘rlarida xoh talmeh yo‘li bilan, xoh oddiy usulda iqtibos keltirilgan oyat va hadislar, beshinchi bo‘limda sevgili yorga oid go‘zallik unsurlari, oltinchi bo‘limda esa, tasavvufiy ta‘birlar, mashhur so‘fiylar haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Bu xususiyatlarning barchasi G‘olibning o‘sha davr jamiyat hayotidagi ahamiyatini aks ettirishi jihatidan e‘tiborga molikdir.

Shayx G‘olib ijodida Alisher Navoiy an‘analarining ta‘siri masalasini yoritishdan oldin, shoirning hayoti haqida qisqacha to‘xtalmoqchimiz.

¹ Çetindağ, Yusuf. Ali Şir Nevai’nin Osmanlı şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006, S. 12.

Mehmet Es’ad (G’olib) 1171/1757-58-yillarda Istanbulda tug’iladi. Otasi Mustafó Rashid afandi bo’lib, manbalarda tasavvufiy tarbiya olganligi va she’riyat bilan shug’ullanganligi keltiriladi¹.

Boshlang’ich bilimlarini otasidan olgan G’olib bir g’azalida uning yo’lini davom ettirganligini, duo va sog’liq tilab quyidagicha ifodalaydi:

Peyrev oldum ben de Galib valid-i zi-şanıma
Küm dua vü medhi hem farz elzendir bize
Mustafa nam u Reşid ü mürşid-i üstad-ı küll
Her nigah-ı himmeti iksir-i a’zamdır bize
Farkımızda sayesin Allah memdüd eylesin
Alem ancak zat-ı valasıyla alemdir bize

(G.108/10-12).

Shoirlar “Es’ad” taxallusini bergan, otasi Mustafó Rashiddan o’tgan she’riyatga bo’lgan zavqini quvvatlantirgan va unga bu yo’lda boshchilik qilgan ustozı Hoja Nesh’etdir². G’olib o’ziga “Es’ad” taxallusini bergan ustozı Hoja Nesh’etga:

Söz bir gühar-i ulvi-i lahut mekandır
Mebde’le me’ad ana veli guş ü zebandır

(K. 31/1).

deya boshlanuvchi 37 baytlik qasida bilan minnatdorchiligini ifodalaydi. Turk adabiyotining ulug’ ustozlari ijodini puxta o’rgangan G’olib, fors shoirlari ijodini ham chuqur o’rganib, tasavvuf adabiyoti, xususan, Mavlono ijodi bilan yaqindan tanishadi. Shuningdek, Mavlonoing “Masnaviy”si shoir dunyoqarashining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi.

Shoir o’zidan oldingi va zamondosh bir qancha shoirlar tomonidan qo’llanilgan ism anglashilmovchiligini bartaraf etish maqsadida ilk taxallusi bo’lgan “Es’ad”ni tashlab, “G’olib” taxallusini tanlaydi. Shoir avvalgi she’rlarida “Es’ad” taxallusi bilan, keyingilarida esa “G’olib” taxallusi bilan ijod qiladi. Iste’dodli shoir 1195/1780-yilda, yigirma to’rt yoshida devon tartib etadi. Ikki yildan so’ng, 1782-83-yillarda masnaviy tarzidagi yirik asari “Hüsñ ü Aşğ (Husn-u ishq)”ni yaratadi. O’z davrida shuhrat qozonib, zamona shoirlari orasida yuqori mavqega erishadi. Shoirning bugungi kungacha saqlanib kelayotgan devonining yagona nusxasi 1252/1836-yilda Misrda nashr qilingan bo’lib, 380 sahifadan iborat. Shundan 124 sahifasi qasidalar, 164 sahifasi g’azallar, 92 sahifasi esa “Husn-u ishq” masnaviysini tashkil qiladi.

Devondan 30 qasida, 71 ta’rix, 13 tarje’band, 1 soqiynoma, 8 musaddas, 19 taxmis, 2 muxammas, 1 tardu rakb, 11 qo’shiq, 11 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 tazkira, 317 g’azal, 1 marsiya, 2 lug’z, 43 qit’a, 63 ruboiy, 70 bayt va 4 misra joy olgan. Istanbul universiteti Turkiyot tadqiqotlari instituti turk tili va adabiyoti bo’limi dotsenti Muslum Yilmaz 2022-yilda Shayx G’olibning Salim III ga bag’ishlab yozgan nashr etilmagan bir qasidasini ilm ahliga taqdim etdi. “Ko’rdim” radifli ushbu qasida To’pçopi saroyida TSMA.E.843/119-361/2/26 raqami bilan qayd etilgan. Qasida aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo’lib, 46 baytdan iborat³.

¹ Sedit Yüksel, Şeyh Galib Eserlerinin Dil ve Sanat Değeri, Ankara, 1963, S. 3.

² Asl ismi Sulaymon. XVIII asrning birinchi yarmida mashhur mutasavvuf shoir sifatida tanilgan Hoja Nesh’et, o’z davrining yoshlariga she’r va adabiyot sohasida ustozlik qiladi. Bir qator yosh shoirlar qatori G’olib ham ba’zi she’rlariga naziralar yozgan.

³ Yilmaz M. Şeyh Gâlib’in III. Selim’e Yazdığı Yayınlanmayan Bir Kasidesi // Korkut Ata Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 2022, 8, S. 398.

Shayx G‘olibga ulkan shuhrat keltirgan “Husn-u ishq” masnaviysi 2101 baytdan iborat bo‘lib, devon tarkibida nashr qilinadi.

Shayx G‘olib adabiyot olamiga kirib kelgan XVIII asrning oxirlarida devon she‘riyati asosan shoir Nabiy ta‘sirida edi. Shayx G‘olib “Husn-u ishq” asarida devon she‘riyatining barcha ustozlari ijodini puxta o‘rganganligini, turkiy manzumalari bilan Navoiydan uzoq qolmaganligini ko‘rsatib, Farididdin Attor, Mavlono Rumi, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Soib va buxorolik Shavkat kabi ko‘plab asli turkiy bo‘lgan shoirlar merosini tadqiq etadi¹.

Shoir keng fikrli va yuksak salohiyat egasi bo‘lib, san‘atning o‘ziga xos yangilik ekanligini, boshqalarga taqlid qilish bilan san‘at asari yaratib bo‘lmasligini yaxshi tushunadi. Ungacha yashab o‘tgan ulug‘ ijodkorlar she‘riyatning turli janrlarida ijod qilib, go‘zal namunalar yaratishgan edi. Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Naf‘iy, Nadim kabi ulug‘ shoirlardan na masnaviyda, na qasidada va na g‘azalda ulardan o‘tib bo‘lmasdi. Bu jihatdan imkon topmagan shoir, mutlaqo yangilik yaratish ehtiyojini his qilib, uzoq vaqt izlanadi. Iste‘dodli shoir bu imkonsizliklarga qaramay, nihoyat o‘ziga xos yo‘l ochishga muvaffaq bo‘ladi. O‘zidan avvalgi shoirlar qo‘llagan mazmun va ifodalarni yangi ranglarga bo‘yab, yangi nisbatlar doirasida ifodalab, o‘ziga xos uslubini shakllantiradi. Shayx G‘olib devon she‘riyatiga yangilik olib kirganligi “Devon”idagi ko‘plab manzumalarida, ba‘zi qasidalari boshlang‘ichlarida, musammat va g‘azallarida yaxlit ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, Ziyosho “Harabat” asari muqaddimasida Shayx G‘olib haqida:

Gelmiştir o şair-i yegane

Güya bu kitab için cihane

deya e‘tirof etadi.

Turkiy adabiyotning buyuk shoiri Alisher Navoiyning Onado‘li turk adabiyotiga ta‘siri masalasi Namik Kemal, E.Gibb, E.Braun, Fuod Ko‘prulu, Ali Nihat Tarlan, Osman Fikri Sertkaya, Mustafa Isen kabi olimlar tadqiqotlarida o‘rganilganligi ma‘lum. Alisher Navoiy adabiy merosining Onado‘li shoirlariga, xususan Ahmad Posho, Saydi Ali Rais Kotibiy ijodiga ta‘siri, ular tomonidan yozilgan naziralar avvalgi ishlarimizda yoritilgan edi.

Ilmi balog‘at kitoblari va tazkiralarda adabiy ta‘sirga tegishli bir qator atamalar uchraydi. Nazirnavislik ulardan keng tarqalgani va qonun-qoidalari qat‘iy bo‘lgan aniq va belgili ta‘sirlanish shakli hisoblanadi. Badiiy ijodda bir shoirning boshqa bir ijodkordan ilhomlanishining bir qancha yo‘llari mavjud va ularning chegaralarini qat‘iy belgilash mushkul. Mumtoz shoirlar ijodida boshqa ijodkordan ta‘sirlanish holati fikrlarni o‘xshatma yo‘li orqali ifodalashda ko‘rinadi. Ammo bevosita mavzuga aloqador fikrlar ifodalanganda tafsilotga berilmasdan o‘ziga xoslikka intilishgan.

Shu o‘rinda Alisher Navoiy ijodi ta‘sirida usmonli turk adabiyotida bir qator janrlar rivojlanganligiga alohida e‘tibor qaratmoqchimiz.

Alisher Navoiydan bizgacha 1 ta turkiy, 10 ta forsiy qasida yetib kelgan. Shoirning forsiy tilda yozgan qasidalari mukammal asarlar to‘plamida chop etilgan «Devoni Foni»ga kiritilgan. Turkiy tilda yozgan yagona mashhur qasidasi «Hiloliya» deb nomlanib, u «Xazoyin ul-maoniy»ning uchinchi kitobi «Badoye’ ul-vasat»dan o‘rin olgan².

1469-yil aprel oyida (hijriy yil hisobi bilan 873-yil iydi ramazon oyida) ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan tantanali marosimda Alisher Navoiy do‘sti Husayn Boyqaroni tabriklab, unga bag‘ishlab yozilgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi. «Hiloliya» qasidasi Alisher

¹ Eski Şairlerimiz, Divan Edebiyatı Antolojisi, Şayh Galib, Muallim, A.Halit Kitabhanesi, Ist. 1931, S. 584-585.

² Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1987, 487-495-betlar.

Navoiy ijodida hajman Sayyid Hasan Ardasheriga yozilgan maktub-masnaviydan so‘ng yozilgan ikkinchi yirik asaridir.

Ushbu qasida 91 baytdan iborat bo‘lib, Salmon Sovajiyning yangi oy ta‘rifida yozilgan qasidalar uslubi hamda Zahir Foryobiyning shu nomdagi qasidasining ta‘sirida yozilgan. “Hiloliya” qasidasida ramal bahrining ramali musammani mahzuf vazni qo‘llanilgan. Bu qasidada 96 ta qofiyadan foydalanilgan. Qasida janrga xos **aa-ba-da...** tarzidagi qofiyalanish tizimiga ega, lekin ba‘zi o‘rinlar, masalan, Utorud, shoir, ma‘shuqa va Husayn Boyqaro tilidan matla‘lari keltirilgan baytlar **aa** shaklida qofiyalangan. Bu jihatni bevosita Alisher Navoiyning turkiy tildagi qasida janriga kiritgan yangiligi sifatida e‘tirof etishimiz mumkin.

Shu bilan birga, “Hiloliya” qasidasida yettita so‘z 2 martadan (diqqat, ziynat, riqqat, suvrat, tal‘at, hayrat, shavkat), bitta so‘z 3 marta (hay‘at) takrorlanganligi kuzatiladi. Demak, 87 ta qofiyadosh so‘z faqat bir marta ishtirok etayapti va ularning barchasi tub so‘zlar hisoblanadi.

Qasida limonga o‘xshash yaltiroq quyoshning chehrasini yashirishi va falakning bag‘bag‘a xalqasini ko‘rsatishi, ya‘ni yangi oy – hilolning chiqishi tasviri bilan boshlanadi. Odatda ko‘pchilik shoirlar yorning qoshini hilolga o‘xshatsa, Navoiy mazkur qasidaning uchinchi baytida an‘anaviy tashbihga o‘zgartirish kiritib, hilolni dilbarning qoshiga va o‘zining hijrondan egilgan qaddiga qiyoslaydi:

Chun nihon qildi turunji mehr raxshon tal‘atin,
Oshkor etti falak bir tavqi g‘abg‘ab hay‘atin.

Bas xayoli ravshani erdi vale andoq daqiq
Kim, nazargoh anglar erdi gah yo‘q oning diqqatin.

Uyla zohir bo‘ldikim, qilg‘ay ani ko‘rgan kishi,
Dilbarim qoshig‘ayu mening qadimg‘a nisbatin¹.

Alisher Navoiy tomonidan rivojlantirilgan turkiy qasidanavislik usmonli turk adabiyotida XVIII asrda Shayx G‘olib tomonidan davom ettirildi. 1203/1789-yilda adabiyot va musiqaga katta e‘tibor qaratgan sulton Salim III taxtga chiqqach, Shayx G‘olib ijodi muxlisi bo‘lib, shoir devonini katta mablag‘ berib ko‘chirtiradi². Shoir podshohning bu iltifot va ehsoniga minnatdorlik mazmunida quyidagi matla‘ bilan boshlanuvchi qasidani yozadi. Shoir sultonning saxovatini ulkan baholab, uni baxt ulashuvchi deya sifatlaydi, “jahonning baxti”, “qiymati butun dunyoga teng maxsus xazina”ni hadya etganligini g‘ulu‘ san‘ati orqali ta‘riflaydi:

Bana Sultân Selîm-i kâmvêr kâmi-cihân verdi
Bütûn dünyâ deđer bir genc-i hâs u râygân verdi³.

Shunday qilib, podshohning doimiy iltifot va ehsonlariga sazovor bo‘lgan shoir biror sabab bilan minnatdorligini ifodalardi. Shayx G‘olib uchun sulton Salim III Xusravi sohibqironga teng bo‘lib, uning shoirga ulashgan baxtini hatto Husayn Boyqaro ham Abdurahmon Jomiyga baxsh etmagandi. Mazkur baytda turk shoiri Husayn Boyqaro, Mulla Jomiy, Xusravi sohibqiron kabi tarixiy shaxslarning nomlarini tilga olish orqali talmih san‘atidan unumli foydalangan:

Hüseyn Baykara bahş etmemişdi Monlâ Câmiye

¹ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 487-bet.

² Genç İlhan. Tezkire-i Şuarâ-yı Mevleviyye. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Yayınları, 2000, S. 24.

³ Şeyh Gâlib Dîvânı (Hayatı, Edebî Kişiliği, Eserleri; Şiirlerinin Umûmî Tahlili). Prof. Dr. Naci Okcu. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2023, S.94.

Bana ol kâmi kim bu Hüsrev-i sâhib-kırân verdi¹.

Shoir she'rlari tahlil qilinganda, uning podshoh va sultonlarga bo'lgan samimiy munosabatlarini ko'rsatuvchi bir qancha ifodalar uchraydi. Bahoming kelishi, mahtob olami, qish, bayram, harbiy muvaffaqiyat, shuningdek, Xadicha sultonning Neshatabad nomli saroyi haqida yozilgan manzumasi, Beyhan sultonning Charog'on va Ferahza qasrlari haqidagi ta'rixlar, shoir tuyg'ularini ifodalashga sabab bo'ladi. Shayx G'olib sulton Salim III ga atab 11 qasida bitadi. Shulardan biri "Mahtob" qasidasidir.

Mazkur qasida 36 baytdan iborat bo'lib, hazaji musammani mahzuf vaznida yozilgan. Bu qasidada "etar mahtob" radifi 37 marta qo'llanilgan. Shuningdek, qasidada 37 ta qofiyadosh so'z mavjud. Jumladan, "zang" so'zi 3 marta, "rang-rang", "jang", "tang" so'zlari 2 martadan takrorlanganligi kuzatiladi. Demak, 28 ta qofiyadosh so'z faqat bir marta ishtirok etayapti va ularning 31 tasi tub so'z hamda 6 tasi yasama so'z hisoblanadi. Qasidaning ilk baytida shoir eski tuzumni "zulmat lashkari"ga, sulton Salim III ni "mahtob"ga, zaminni esa "yo'lbars naqshining gulshani"ga qiyoslash orqali tashbihning go'zal namunalarini yaratgan:

O şeb ki leşker-i zulmetle cenk eder mehtâb
Zemîn-i gülşen-i nakş-ı pelenk eder mehtâb

Gelirse cünbiş-i pervâze bâz eder eşheb-veş
Sufûf-ı ebri katâr-ı külenk eder mehtâb

Şemîm-i gül getirir bâğa kârbân-ı bahâr
Sadâ-yı ra'dı derâ-yı peşeng eder mehtâb².

Alisher Navoiyning "Hiloliya" qasidasidagi **nasib** va **gurizgoh** muayyan syujet asosiga qurilganligi bilan diqqatni tortadi. Unga ko'ra, shoir oydin kechalardan birida ko'kka sayr qilib, u yerda 7 qavat falakda joylashgan Oy, Utorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhal kabi sayyoralar uchratadi. Ushbu sayyoralarning har biri shohning taxtga o'tirish marosimiga tayyorgarlik ko'rayotgandi. Navoiy kotiblarning homiysi Utorudning huzuriga borganida, Utorud unga Husayn Boyqaroning madhiga bag'ishlangan she'rini o'qib beradi. Uning matla'si quyidagicha edi:

Ey, sening qoshing qilib zohir yangi oy xijlatin,
V-ey, yuzung sharmanda aylab iydi akbar tal'atin³.

Ushbu matla'ni tinglagan shoir, o'zining quyidagi matla'li baytini o'qiydi:

K-ey qoshingning rashki aylab xam yangi oy qomatin,
Iydi ruxsoring qilib nobud bayram ziynatin⁴.

Utorudni uyaltirgan shoir uyga kelib, shohning marosimiga tayyorgarlik ko'rayotgan va uni kutib o'tirgan yorini uchratadi. Yoriga o'zi va Utorud yozgan she'rlarning matla'sini o'qib beradi. Nazm musobaqadan chetda qolishni istamagan sohibjamol ham qo'liga qalam va qog'oz olib, ushbu baytni yozadi:

K-ey, yuzung zohir qilib bayram sabohi safvatin,

¹ Şeyh Gâlib Dîvânı (Hayatı, Edebî Kişiliği, Eserleri; Şiirlerinin Umûmî Tahlîli). Prof. Dr. Naci Okcu. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2023, S. 94.

² Şeyh Gâlib Dîvânı (Hayatı, Edebî Kişiliği, Eserleri; Şiirlerinin Umûmî Tahlîli). Prof. Dr. Naci Okcu. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2023, S. 79.

³ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 490-bet.

⁴ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 490-bet.

Anda qoshing aylabon paydo yangi oy hay’atin¹.

Navoiy uchala baytni ham Husayn Boyqaroga taqdim etganida, shoh ularni ma’qul ko’radi va o’zi ham mazkur matla’larga quyidagi javobni yozadi:

K-ey, hiloling mayli aylab toq ko’nglum toqatin,
Jon berib, yod aylagach iydi visoling jannatin².

Shu tarzda nasib va gurizgoh tugab, qasidaning asosiy qismi – madh boshlanadi. Madhda Husayn Boyqaro “shohlarning shohi” deb ta’riflanib, Navoiy o’zi orzu qilgan surati shoh-u siyrati darvesh hukmdorni Husayn Boyqaro siymosida ko’rishni istaydi³. Navoiy shohning adolati, saxovati, tab’i nazmi va janglardagi shijoatini baland pardalarda tasvirlaydi; istiora, tashbih, mubolag’a, talmih, san’atlari vositasida shoh timsolining o’ziga xos namunasini yaratadi. Qasidaning oxirgi to’rt bayti qasd (xotima)ni o’z ichiga olib, shoir Husayn Boyqaroga quyidagicha niyat bildiradi: unga baxtli va Zuhal davroni kabi uzoq umr tilaydi, yangi oy va hayit bayramining uning ikki qulluq qiluvchisi bo’lishiga ishonch bildiradi:

Lek umrung tuli yuz navbat Zuhal davronicha,
Farz eta olsa xirad ming yil aning har navbatin.

Yangi oyu iyd ikki qullug’ching o’lsun, aylagan
Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin⁴.

An’anaviy qasidalar kabi Shayx G’olibning “mahtob” radifli qasidasi ham quyidagi qismlardan iborat:

1. **Nasib (Tashbib):** Qasidaning kirish qismi. Unda oy nuri timsolida sulton Salim III kuch-qudratiga, iqtidoriga, salohiyatiga bo’lgan hayrat va mahliyo bo’lish tasviri yoritiladi. Shoir tabiat go’zalliklarini ta’riflab, o’quvchini xayoliy dunyoga olib kiradi.
2. **Gurezgoh:** Asosiy mavzuga o’tish qismi. Oy nuri orqali ilohiy go’zallik va ishqning tasviriga yo’naltiriladi.
3. **Madh:** Qasidaning ulug’lash qismi. Ilohiy ishq yoki tasavvufiy bir tushuncha madh etiladi.
4. **Tag’azzul:** Qasida ichidagi g’azal bo’limi bo’lishi mumkin. Bu bo’lim ko’proq lirik va hissiyotga boy bo’ladi.
5. **Faxriya:** Shoir o’z san’atini va salohiyatini madh etgan qism. Shayx G’olib bu yerda o’zining ijodiy kuchini ta’kidlaydi.
6. **Duo:** Qasidaning yakuniy qismi. Bu qismda shoir tilak va duo bilan she’rni tugatadi.

Shayx G’olib ma’naviy ustoz Alisher Navoiydan farqli ravishda “mahtob” qasidasining oxirgi baytlaridan birida o’z taxallusini keltirgan. Buni turk shoirining qasidanavislikka kiritgan yangiligi sifatida e’tirof etishimiz mumkin. G’olib mahtobning vasfini charxning bayoziga yozayotganida kerakli qofiyalarni topa olmay chorasiz ahvolda qoladi va buning sababini mahtobning nazm qofiyasini tang ahvolga qo’yishi sifatida dalillab, husni ta’lil san’atining go’zal namunasini yaratadi:

Beyâz-ı çarha yer eylerdi Gâlib evsafin
Ne çâre kâfiye-i nazmı teng eder mehtâb⁵

¹ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 491-bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 491-bet.

³ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019, 321-bet.

⁴ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990, 494-495-betlar.

⁵ Şeyh Gâlib Dîvânı (Hayatı, Edebî Kişiliği, Eserleri; Şiirlerinin Umûmî Tahlili). Prof. Dr. Naci Okcu. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2023, S. 81.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, XV asr birinchi yarmida rivojlanish yo‘liga kirgan turkiy qasidalar XV asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiyning «Hiloliya» qasidasi orqali o‘zining qiyomiga yetdi. XVIII asrga kelib usmonli shoiri Shayx G‘olib nafis va purma’no qasidalar bilan turkiy qasidanavislik an’anasini munosib davom ettirib, yangi g‘oya va mazmunlar bilan boyitdi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990. – 528 b.
2. Ciğa Ö. Şeyh Gâlib’in Kaside Ve Gazellerinde Redif Kullanım Analizi. Dicle Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2015, 13, s.240-256.
3. Çetindağ Yusuf. Ali Şir Nevai’nin Osmanlı şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006. – 277 s.
4. Eski Şairlerimiz. Divan Edebiyatı Antolojisi. Şayh Galib. Muallim. – İstanbul: A.Halit Kitabhanesi, 1931. – 636 s.
5. Genç İlhan. Tezkire-i Şuarâ-yı Mevleviyye. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Yayınları, 2000. – 596 s.
6. Hasanova M. Alisher Navoiyning “Hiloliya” qasidasida yetti sayyora timsoli // So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2020, № 3, 619-625-betlar.
7. Sedit Yüksel. Şeyh Galib Eserlerinin Dil ve Sanat Değeri. – Ankara: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 1980. – 189 s.
8. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – 520 b.
9. Şeyh Gâlib Dîvâmı (Hayatı, Edebî Kişiliği, Eserleri; Şiirlerinin Umûmî Tahlîli). Prof. Dr. Naci Okcu. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2023. – 520 s.
10. Yılmaz M. Şeyh Gâlib’in III. Selîm’e Yazdığı Yayınlanmayan Bir Kasidesi // Korkut Ata Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 2022, 8, s.395-404

ТЕРМИНЫ РОДСТВА: КОНТРАСТИВНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

РАСУЛОВА Истода Абдулатифовна,
доцент кафедры узбекского языкознания
Самаркандского государственного
университета, (PhD) (Узбекистан)
E-mail: istoda.87@gmail.com
ORCID: [0009-0002-3553-8479](https://orcid.org/0009-0002-3553-8479)

Аннотация: статья посвящена сравнительно-типологическому анализу систем терминов родства в узбекском и русском языках. В рамках контрастивной лексикологии и лексикографии автор исследует семантические соответствия и расхождения в обозначении брачных родственных связей. Исследование выходит за рамки чисто лингвистического анализа, затрагивая аспекты культурологии, истории и когнитивной лингвистики. Особое внимание уделяется полисемии узбекских терминов родства и сравнивается с более дифференцированной системой русского языка. В статье также рассматривается роль компонентного анализа и эквонимии в изучении лексико-семантических полей терминов родства.

Ключевые слова: *контрастивная лингвистика, лексикология, лексикография, термины родства, узбекский язык, русский язык, полисемия, компонентный анализ, эквонимия, сопоставительная лингвистика, когнитивная лингвистика, культурология, семейные отношения.*

QAVM-QARINDOSHLIK TERMINLARI: O‘ZBEK VA RUS TILLARINING KONTRASTIV TAHLILI

Annotatsiya: maqola o‘zbek va rus tillaridagi qarindoshlik terminlari tizimining qiyosiy-tipologik tahliliga bag‘ishlangan. Kontrastiv leksikologiya va leksikografiya doirasida muallif nikohdan keyin vujudga kelgan qarindoshlik munosabatlarini belgilashda semantik muvofiqlik va tafovutlarni tadqiq etadi. Tadqiqot sof lingvistik tahlil doirasidan chiqib, madaniyatshunoslik, tarix va kognitiv tilshunoslik jihatlariga to‘xtalib o‘tadi. O‘zbek tili qarindoshlik terminlari polisemiyaiga alohida e‘tibor qaratilib, rus tilining yanada differensial tizimi bilan qiyoslanadi. Shuningdek, maqolada qarindoshlik terminlarining leksik-semantik sohalarini o‘rganishda komponent tahlil va ekvoniymiyaning o‘mi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *kontrastiv tilshunoslik, leksikologiya, leksikografiya, qarindoshlik terminlari, o‘zbek tili, rus tili, polisemiya, komponent tahlil, ekvoniymiya, kontrastiv tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, madaniyatshunoslik, oilaviy munosabatlar.*

KINSHIP TERMINOLOGY: A CONTRASTIVE STUDY OF UZBEK AND RUSSIAN

Abstract: the article is devoted to the comparative typological analysis of the systems of kinship terms in the Uzbek and Russian languages. Within the framework of contrastive lexicology and lexicography, the author examines semantic correspondences and discrepancies in the designation of marital kinship ties. The study goes beyond purely linguistic analysis, touching upon aspects of cultural studies, history and cognitive linguistics. Particular attention is paid to the polysemy of Uzbek kinship terms and is compared with a more differentiated system of the

Russian language. The article also considers the role of component analysis and equonymy in the study of lexical and semantic fields of kinship terms.

Key words: *contrastive linguistics, lexicology, lexicography, kinship terms, Uzbek language, Russian language, polysemy, componential analysis, equonymy, comparative linguistics, cognitive linguistics, cultural studies, family relations.*

Язык – инструмент коммуникации и познания мира, позволяющий формировать, выражать и передавать мысли. Изучением коммуникации как специфической формы человеческого взаимодействия занимаются специалисты из разных областей знания: филологи, философы, культурологи, социологи, педагоги и политики.

Данная статья затрагивает ряд актуальных вопросов современного языкознания, в частности, контрастивной лексикологии, лексикографии и грамматики. Исследование выходит за рамки лингвистики, охватывая философию, культурологию, историю и генеалогию. Работа также демонстрирует межпредметные связи с лингвокультурологией и лингводидактикой.

Исследование сопоставляет лексические системы узбекского (тюркская семья) и русского (славянская семья) языков. Сравнительно-типологический подход позволил выявить общие закономерности, объединив сходные явления. В лингвистике существуют различные термины для обозначения такого сравнительного анализа. В середине XX века сформировалось направление сопоставительного изучения языков для выявления их сходств и различий. Контрастивная лингвистика, развившаяся из этого направления в 60-80-е годы, ориентировалась на практическое применение в преподавании иностранных языков. К этой области внесли вклад работы В. Д. Аракина, Л. С. Бархударова, Ю. Н. Караулова, В. М. Мокиенко, Р. А. Будагова, В. Г. Гака, Р. С. Гинзбурга, В. Н. Ярцевой и других.

Исследования определили объект и цель контрастивной лингвистики: объектом стали отдельные языковые явления и единицы родного языка, сопоставленные с их эквивалентами в изучаемом языке; целью – сравнительный анализ переводных соответствий для выявления сходств и различий. Существуют различные взгляды на предмет контрастивной лингвистики: некоторые исследователи разграничивают её и сопоставительную лингвистику, в то время как В.Н. Ярцева рассматривает эти термины как синонимы. [9.11]

В данном исследовании, ограничивающемся сравнением отдельных лексических единиц (терминов родства) в узбекском и русском языках, мы считаем целесообразным различать контрастивную и сопоставительную лингвистику. Мы используем термин “контрастивная лингвистика”, а целью исследования является описание корпуса терминов брачного родства в этих языках, выявление семантически эквивалентных и неэквивалентных единиц.

Исследование сталкивается с рядом трудностей. Во-первых, необходимо разобраться в сложной системе родственных связей, не являясь специалистом-генеалогом. Во-вторых, некоторые термины, обозначающие родственные отношения, устарели и вышли из употребления. Это объясняется, например, ослаблением внутриродовых связей (в сравнении с патриархальными семьями) и неточностью, расплывчатостью значений терминов.

Термины родства подробно описаны в учебном пособии «Основы науки о родстве».[3] Родство делится на кровное и свойственное (родство по браку). В широком смысле, родство – это связь между людьми, основанная на общем происхождении, браке и рождении детей. Кровное родство – это связь между членами семьи, основанная на происхождении от одного предка. Свойственное родство возникает в результате брака и объединяет одного супруга с родственниками другого, а также родственников обоих супругов.

В русском языке насчитывается 16 терминов свойства [1.8], хотя некоторые исследователи исключают “муж” и “жена”, оставляя 14. Мы считаем эти два термина базовыми и ключевыми для системы терминов свойства и включаем их в полный список: муж, жена, свекор, свекровь, тесть, тёща, зять, сноха, невестка, деверь, золовка, шурин, свояченица, свояк, сват, сватья. В русской лингвистике родство по браку подразделяется на двухродное (родственники данного лица и его супруги) и трехродное (родственники данного лица, супруги и родственники супруга брата).

Перед представлением узбекских терминов свойства необходимо отметить важность указания пола лица, обозначаемого термином. В узбекском языке: грамматический род понятийно связан с биологическим полом, в отличие от русского языка, где род – это классификационная категория, выражаемая окончанием. В русском языке род не выражен только у существительных без формы единственного числа. Таким образом, в славянских языках наблюдается регулярная связь между существительным и родом, чего нет в тюркских языках, где род определяется семантически, что отражается и в узбекской терминологии родства. Узбекский язык, принадлежащий к тюркской группе, демонстрирует в своей системе терминов родства по браку заметные отличия от русского языка, представляющего славянскую ветвь индоевропейской семьи. Корпус узбекских терминов свойства включает 26 наименований, что уже само по себе указывает на потенциальную сложность сравнительного анализа с русским языком [6.4], где их значительно меньше.

В отличие от русского языка, где каждый термин родства по браку четко указывает на конкретную связь и пол человека, узбекский язык демонстрирует тенденцию к обобщению и использованию полисемантических терминов. Это проявляется в существовании терминов, охватывающих сразу несколько родственных связей, которые в русском языке требуют отдельных лексических единиц.

Например, термин *boja* в узбекском языке обозначает одновременно мужей двух или более сестер. В русском языке для выражения этого понятия потребуются несколько слов, уточняющих родственную связь каждого из этих мужчин по отношению к говорящему. То же самое наблюдается с термином *uanga*, обозначающим жен двух или более братьев. Здесь вновь виден контраст с русским языком, где для каждого из этих родственных отношений необходим отдельный термин.

Однако, наиболее ярким примером полисемии в узбекской терминологии родства является термин *qida*. Этот термин обозначает сразу четыре родственных связи: свекра, тестя, свекровь и тёщу, объединяя их в одну лексическую единицу. Это принципиальное отличие от русского языка, где для каждой из этих связей используется отдельный термин, учитывающий не только родство, но и пол лица. В узбекском же языке родственные связи, обозначенные термином *qida*, группируются по отношению к брачному союзу, не акцентируя внимание на гендерных различиях.

Таким образом, сравнение корпусов терминов свойства в узбекском и русском языках демонстрирует принципиальные различия в когнитивных моделях родства. Узбекский язык проявляет тенденцию к обобщению и объединению родственных связей под одним термином, не всегда учитывая гендерные различия. Русский язык, напротив, характеризуется большей дифференциацией и детализацией, четко обозначая каждую родственную связь с учетом пола. Это указывает на разные способы кодирования и представления семейных отношений в этих двух языках и отражает особенности культурного восприятия семьи и родственных связей.

В словаре И. А. Исмоилова «Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. (O‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida) [2.11] термины родства делятся на следующие типы:

Современные узбекские и уйгурские термины родства по своему происхождению и значению в основном подразделяются на три большие группы:

I. Термины кровного родства.

II. Термины родства, возникшие после брака.

III. Термины близости.

В качестве пояснения:

I. К терминам кровного родства в узбекском и уйгурском языках, а также в других тюркских языках относятся термины, обозначающие *ona*, *ota*, *aka*, *tog‘a*, *xola*, *buva* (*bobo*), *buvi*, *amma*, *nabira* и т.д.

II. Термины родства, возникшие после брака, включают в себя такие термины, как *er*, *xotin*; *kuyov*, *kelin*, *pochcha*, *boja*, *ovsin*, *qayin ona*, *qayin ota*, *quda*, *quda xola*, *quda buva*; *o‘gay ota*, *o‘gay ona*, *o‘gay bola*.

III. Группа, называемая терминами близости, свойственна в основном узбекскому и уйгурскому языкам. Эти термины принципиально отличаются от терминов двух предыдущих групп. К ним относятся термины, образованные с помощью слова «*tutingan*» (воспитанник, приёмный): *tutingan ota*; *tutingan ona*; *tutingan o‘g‘il* и т.д.

Исследование Л. А. Покровской [5] охватывает исторический аспект терминологии родства в тюркских языках, но узбекскому языку уделено недостаточно внимания. В отличие от этого, настоящее исследование сосредоточено на современном состоянии узбекской лексики брачного родства, дополняя работу Х.Х.Эгамназаровой [8. 13-18]. Сравнение узбекского и английского языков выявляет интенсивную эволюцию терминологических систем родства. В частности, в английском языке широко распространена конверсия (изменение части речи без изменения морфем), чего практически нет в узбекском. Изучение семантической микроструктуры, включая синонимию, антонимию и конверсию, показывает, что эквонимы (слова с частично совпадающими значениями) представляют собой значимый элемент лексической системы.

Несмотря на важность эквонимии (семантической связи между словами одного уровня обобщения при общем гиперониме) для понимания лексической структуры, специальных исследований этого явления недостаточно. М.В.Никитин определяет эквонимы как гипонимы одного уровня обобщения (например, “отец” и “мать” как гипонимы “родитель”), взаимосвязанные между собой. Эквонимы представляют собой слова или словосочетания с родовым значением по отношению к видовым (например, “писатель” и “романист”). В некоторых случаях эквонимия совпадает с гипонимией (видовое понятие по отношению к родовому). “Father” и “mother” являются эквонимами,

подчиненными гиперониму “parent”. Эквонимическая связь основана на общей семантике, соответствующей значению ближайшего гиперонима, и тесно связана с отношениями гипонимии и гиперонимии. В узбекском языке слово «семья» (oila) является гиперонимом для гипонимов «муж» (er) и «жена» (xotin), а слово «дети» (farzand) – для гипонимов «сын» (o‘g‘il) и «дочь» (qiz). Ранее такие пары слов, как «сын»/«дочь», «отец»/«мать», «муж»/«жена», рассматривались как лексические антонимы. Однако анализ терминов родства в узбекском языке показывает наличие эквонимических отношений. Например, термин qarindosh («кровный родственник») включает в себя значения слов bobo (дед), ota (отец), amaki (дядя по отцовской линии), tog‘a (дядя по материнской линии), amma (тетя по отцовской линии), xola (тетя по материнской линии), roshcha (муж старшей сестры), qaunog‘a (старший брат мужа/жены), qauni (младший брат мужа/жены). Эти слова являются гипонимами к qarindosh, но одновременно и эквонимами друг к другу. Аналогично, термины qaunog‘a и qauni обозначают как старшего/младшего брата мужа, так и старшего/младшего брата жены, являясь эквонимами. То же относится к термину qaunisingil («сестра мужа/жены»). Таким образом, в узбекской системе терминологии родства явления эквонимии и гипонимии тесно переплетаются. Это же касается терминов og‘il jiyan (племянник) и qiz jiyan (племянница), которые являются гипонимами к jiyan («племянник/племянница»), но и эквонимами между собой, так же, как и многочисленные другие производные от jiyan, обозначающие различные варианты племянников и племянниц. В узбекском языке эквонимические отношения наблюдаются не только у отдельных слов, но и у словосочетаний, обозначающих родство [8. 10]. Например, термин nabira («внук/внучка») представлен словосочетаниями o‘g‘il nabira (внук), qiz nabira (внучка), o‘g‘ilning o‘g‘li yoki qizi (внук/внучка по сыну), qizning o‘g‘li yo qizi (внук/внучка по дочери), katta nabira (старший внук/внучка), kichik nabira (младший внук/внучка) и др. Эти словосочетания являются эквонимами и одновременно гипонимами к nabira. В традиционных учебниках узбекского языка [7] эквонимы часто ошибочно отождествлялись с антонимами. На самом деле, такие пары слов, как o‘g‘il/qiz (мальчик/девочка), kecha/kunduz (ночь/день), opa/singil (старшая/младшая сестра), являются не антонимами, а эквонимами, поскольку они обозначают понятия одного уровня обобщения, но с дифференциальными семами [7]. Эквонимия, наряду с синонимией, омонимией, антонимией и многозначностью, представляет собой разновидность функционально-семантических связей [4.93]. Хотя эквонимия и антонимия имеют сходство в коррелятивном характере составляющих их элементов (противопоставление друг другу), между ними существуют важные отличия. Антонимы характеризуются различными семантическими структурами, тогда как эквонимы различаются лишь наличием или отсутствием одной семы в семантической структуре. У антонимов же почти все семы семантической структуры противоположны. Эквонимы, в отличие от антонимов, не имеют противоположных значений, а различаются лишь одной или несколькими семами. Их значения подчинены и зависят от значения гиперонима, не имея самостоятельного денотативного смысла (например, “сын” и “дочь” – гипонимы по отношению к “дети”). В то время как значения антонимов независимы и определяются в рамках тематических полей, значения эквонимов напрямую связаны со значением более широкого понятия.

Значения слов issiq («горячий») и sovuq («холодный») зависимы от значения тематической группы, обозначающей температуру; baland («высокий») и past («низкий») – от тематической группы, обозначающей высоту; qalin («толстый») и ingichka («тонкий») –

от тематической группы, обозначающей толщину; ko‘p («много») и oz («мало») – от тематической группы, обозначающей количество. Несмотря на определенное сходство в значениях, эквонимы и антонимы принципиально различаются: антонимы обладают целостным значением, тогда как значение эквонима представляет собой лишь часть, компонент более широкого значения, определяемый дифференциальной семой. Рассмотрим примеры: o‘g‘il («сын») и qiz («дочь»). Оба слова имеют общие семы: «человек», «несовершеннолетний», «кровный родственник прямой линии», «относится к детям». Дифференциальной семой для o‘g‘il является «мужской пол», для qiz – «женский пол». Поскольку остальные семы идентичны, и отсутствует оппозитивность значений, o‘g‘il и qiz не являются антонимами, а эквонимами по отношению к гиперониму farzand («дети»). Эквонимия и эквонимические отношения в системе терминов родства представляют собой обширную область исследования, требующую отдельного изучения для глубокого понимания семантической структуры языка.

Заключение. Сравнительный анализ систем терминов брачного родства в узбекском и русском языках выявил существенные различия, отражающие особенности когнитивных моделей и культурного восприятия семейных связей в этих языках. Узбекский язык демонстрирует тенденцию к обобщению и полисемии, объединяя несколько родственных связей под одним термином. Русский язык, напротив, характеризуется большей дифференциацией и детализацией, с четким обозначением каждой связи с учетом пола. Эти различия подчеркивают важность междисциплинарного подхода, включающего лингвистику, культурологию и когнитивные науки, для адекватного понимания и описания языковых систем. Применение методов компонентного анализа и исследования эквонимических отношений способствует более глубокому пониманию семантической структуры лексических полей, связанных с родством.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Гусейнзаде, В. Р. (2013). Корпус русских и азербайджанских терминов свойства в аспекте контрастивной лингвистики. *Актуальные вопросы социальных исследований и социальной работы*, 12.
2. Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. (Ўзбек, уйғур, козок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). Ташкент: Фан, 1966. 156 с.
3. Калистратова Э. А. Основы науки о родстве: учеб. метод. пособие. Екатеринбург: [б. и.], 2002. 66 с.
4. Никитин М. В. *Основы лингвистической теории значения*. Москва: Высшая школа, 1988. С. 93–163.
5. Покровская Л. А. Термины родства в тюркских языках // Покровская Л. А. *Историческое развитие лексики тюркских языков*. Москва, 1961.
6. M.Tuxtasinova.(2022). Qarindoshlik terminlarining L.Budagov lug‘atida izohlanishi. “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. 2022, 4(4).
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология, лексикология. Филология факультетларининг сиртқи бўлимлари учун қўлланма*. Ташкент: Ўқитувчи, 1965. 142 с.
8. Эгамназаров, Х. Х. Отношение терминов родства и свойства к явлению эквонимии (на материалах таджикского, узбекского и английского языков). *Вестник Педагогического университета*, 2020, (2 (85)), 13-18.
9. Ярцева В. Н. *Контрастивная грамматика*. Москва, 1981.

HOZIRGI O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING AYRIM MA’NOVIY VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

RASULOVA Inobat Ilhomovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti
kafedrası katta o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

E-mail: ilxomovna1992@gmail.com

ORCID: 0009-0001-4128-085X

Annotasiya: Ushbu maqolada yordamchi so‘zlarning o‘zbek va ingliz tillaridagi ayrim ma’nolari hamda uslubiy xususiyatlari yoritib beriladi. Yordamchi so‘zlar grammatika tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning maqsadi va vazifalari asosiy so‘zlarni to‘ldirish, ularga qo‘shimcha ma’no berish, gapda mustaqil bo‘lak bo‘lib keluvchi so‘zlarni bog‘lash yoki ularga grammatik (sintaktik) tavsif berishdan iboratdir. Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi yordamchi so‘zlarning o‘xshashliklari va farqlari chuqur tahlil qilinadi, xususan, har ikkala tildagi ko‘makchi, bog‘lovchi, predlog hamda yuklama kabi yordamchi so‘zlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *yordamchi so‘zlar, o‘zbek tili, ingliz tili, ma’noviy xususiyatlar, uslubiy xususiyatlar, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, predlog.*

НЕКОТОРЫЕ СЕМАНТИЧЕСКИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются семантические и стилистические особенности служебных слов в узбекском и английском языках. Служебные слова играют важную роль в грамматической структуре этих языков; их функции заключаются в дополнении значений основных слов, придании дополнительных оттенков значений, связь самостоятельных слов в предложении и оформление их грамматических или синтаксических характеристик. В статье приводится глубокий анализ общих и отличительных особенностей служебных слов в обоих языках, в частности, анализируются такие служебные слова, как предлоги, союзы и частицы.

Ключевые слова: *служебные слова, узбекский язык, английский язык, семантические особенности, стилистические особенности, союз, частица, предлог.*

SOME SEMANTIC AND STYLISTIC FEATURES OF AUXILIARY WORDS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract: This article provides an exploration of the meanings and stylistic features of auxiliary words in both Uzbek and English. Auxiliary words play a crucial role within the grammatical framework of these languages; their functions include complementing main words, imparting additional meanings, linking independent words within a sentence, and offering grammatical or syntactic descriptions. The analysis presented herein delves into the similarities and differences of auxiliary words across both languages, with a focus on auxiliary, preposition, conjunction, and particles.

Key words: *auxiliary words, Uzbek language, English language, meanings, stylistic features, conjunction, particles, preposition.*

Kirish. Jahon va o‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar masalasi ko‘plab ilmiy asarlarda o‘rganilgan hamda tahlil qilingan. Jumladan Noam Chomskyning “Syntactic Structures” (1957)

asari tilshunoslikda inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lib, yordamchi so‘zlarni o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Chomsky yordamchi so‘zlarni gap tuzilishidagi grammatik strukturaviy elementlar sifatida ko‘rsatgan va ularning sintaksisdagi o‘rnini tushuntirgan. U “transformatsion-generativ grammatika” (transformational-generative grammar) metodologiyasida yordamchi so‘zlar yordamida gaplar tuzilishini tahlil qilgan[1]. Mikhail Bakhtin esa “The Dialogic Imagination” (1975) asarida yordamchi so‘zlarning kommunikativ roli haqida yozgan. Uning fikriga ko‘ra, yordamchi so‘zlar faqat grammatik funktsiya bajarmay, balki gapdagi ma‘no va kontekstni yaratishda muhim o‘rin tutadi[2].

O‘zbek tilshunosligining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy “O‘zbek tilining sintaksisi” (1950) asarida yordamchi so‘zlar va ularning sintaksisdagi o‘rnini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Uning asarida o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar, ularning vazifalari va gap tuzishda tutgan o‘rni batafsil tahlil qilingan. Avloniy yordamchi so‘zlarning grammatik tizimdagi ahamiyatini, ayniqsa fe‘l, bog‘lovchi so‘zlar va ko‘makchilarning rolini yoritgan[3]. Gulchehra Karimovaning “O‘zbek tilining sintaksisi” (1982) asari esa o‘zbek tilining sintaksisiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yordamchi so‘zlarning ishlatilishi va ularning gapdagi grammatik funktsiyalari haqida keng ma‘lumotlar berilgan. U yordamchi so‘zlarni fe‘l, ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalar sifatida ajratib, ularning gap tuzishda qanday aloqalar o‘rnatishini tushuntirgan[4]. Yuqorida keltirilgan olimlar hamda mutaxassislar fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, yordamchi so‘zlar leksik ma‘no anglatmaydi va gapning alohida bo‘lagi vazifasini o‘tamaydi. Ular so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni ta‘minlab, ularga qo‘shimcha ma‘no yoki tuzilma qo‘shadilar. Boshqacha aytganda, yordamchi so‘zlar gapda boshqa so‘zlarning o‘zaro munosabatini belgilaydi yoki ularga grammatik funktsiya yuklaydi.

Bu toifadagi so‘zlar tizimi turli tillarda bir-biridan aniq darajada farq qiladi, yoki qisman o‘xshashligi mumkin, ya‘ni qiyoslanayotgan tillarda yordamchi so‘zlarning tuzilishi va ishlatilishi o‘ziga xos bo‘ladi. Har bir tilning o‘ziga xos grammatik tizimi, sintaksisi va semantik xususiyatlariga qarab, yordamchi so‘zlarning vazifasi va shakllari farqlanadi. Yordamchi so‘zlar, jumladan ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalar, asosan so‘z va gaplarni o‘zaro bog‘lash vazifasini bajaradi. Ularning asosiy funktsiyasi – ma‘lum bir bog‘lanishlarni o‘rnatishdir. Bu so‘zlar yoki gaplar o‘rtasida aloqalarni ta‘minlab, ularni mantiqiy yoki grammatik jihatdan birlashtiradi. Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar aynan shu maqsadda ishlatiladi, ya‘ni ular gaplar va so‘zlar o‘rtasida bog‘lovchi rolini o‘ynaydi.

Materiallar va usullar

Ko‘makchilar

Ko‘makchilar o‘zbek tilida yordamchi so‘zlar sifatida, tilning sintaktik tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular ot va otlashgan so‘zlardan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lab, ma‘no va grammatik tuzilmani shakllantiradi. Ko‘makchi so‘zlar gapdagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ularning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatadi. Masalan, *“Qo‘li bilan chizdi”* degan jumlada **“bilan”** so‘zi ko‘makchi sifatida ishlaydi. Bu so‘z **“qo‘li”** so‘ziga bog‘lanib, ikki so‘zning birlashgan holda bir ma‘noni ifodalashiga yordam beradi. **“Qo‘li bilan”** ifodasi bir xil savolga javob beradi va bitta gap bo‘lagini tashkil qiladi.

Ko‘makchi so‘zlar ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. Sof ko‘makchilar — bu so‘zlar, o‘zlarining lug‘aviy ma‘nolarini butunlay yo‘qotib, gapda grammatik vazifani bajarish uchun ishlatiladi. Ular kelishik qo‘shimchalari bilan o‘xshash bo‘lib, gapdagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, ularning o‘rtasidagi sintaktik aloqani ta‘minlaydi. Sof ko‘makchilarning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular juda kam miqdorda bo‘lib,

yodlash oson, chunki son jihatidan cheklangan va oddiy ifodalarga ega. Misol sifatida, *bilan, uchun, kabi, sari, singari, tufayli, sayin, uzra, qadar, yanglig‘, orqali, haqida* kabi so‘zlar sof ko‘makchilarga kiradi. Bundan tashqari, sof ko‘makchilarning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ular gapda urg‘u olmaydi, ya‘ni ular tilning intonatsion tuzilmasiga ta‘sir qilmaydi. Urg‘u ko‘makchidan oldingi so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Masalan, “**Qo‘li bilan chizdi**” degan jumlada “**bilan**” so‘ziga urg‘u tushmaydi, balki “**qo‘li**” so‘zining oxirgi bo‘g‘iniga (ya‘ni “**li**” bo‘g‘iniga) urg‘u tushadi. Bu sof ko‘makchilarning urg‘usiz ishlashini va gapda sintaktik vazifani bajarishini ko‘rsatadi.

2. Vazifadosh ko‘makchilar — bu so‘zlar o‘zining atama ma‘nosini butunlay yo‘qotib, boshqa so‘zlar bilan birgalikda grammatik vazifa bajaradi. Ular ot, sifat, fe‘l, ravish kabi mustaqil so‘zlarga tegishli bo‘lgan, ma‘lum bir so‘roqqa javob bermaydigan so‘zlardir. Bu turdagi ko‘makchilar gapda har xil ma‘no va sintaktik funktsiyalarni bajaradi. Ot turkumiga oid vazifadosh ko‘makchilar quyidagi so‘zlar orqali ifodalanadi: *old, o‘rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, qosh, yoqa, ro‘para, tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo‘sinda*. Bu so‘zlar, o‘zining lug‘aviy ma‘nosini yo‘qotgan holda, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, ularga grammatik va semantik ma‘no qo‘shadi. Misol tariqasida, ko‘makchi sifatida ishlatilgan gapni ko‘rib chiqamiz: “**Kecha o‘tilgan mavzu ustida savol javob bo‘lyapdi.**” Bu yerda “**ustida**” so‘zi o‘zining to‘liq lug‘aviy ma‘nosini yo‘qotgan va gapda grammatik vazifani bajaradi, ya‘ni mavzu bilan bog‘liq gapni tashkil qiladi. Boshqa bir misolda, **mustaqil so‘z** sifatida ishlatilgan “**ustida**” so‘ziga diqqat qaratamiz: “**Stolning ustida kitob turibdi.**” Bu yerda “**ustida**” so‘zi o‘zining aniq lug‘aviy ma‘nosini ifodalaydi va so‘roqqa javob beradi. “**Nimaning ustida?**” degan savolga javob sifatida “**Stolning ustida**” ifodasi ishlatiladi. Shuningdek, ravish turkumiga oid vazifadosh ko‘makchilar ham mavjud bo‘lib, ular gapda vaqt, joy yoki holatni belgilaydi. Bu turdagi ko‘makchilar orasida *oldin, avval, so‘ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan* kabi so‘zlar bor. “**Gapirmasangdan avval yaxshilab o‘yla.**” Bu yerda “**avval**” so‘zi kelishik qo‘shimchasini olgan so‘zdan keyin kelib, vaqtni ifodalovchi vazifani bajaradi, ya‘ni biror harakatdan avval o‘ylash kerakligini bildiradi. “**Avval o‘yla, keyin so‘yla.**” Bu yerda “**keyin**” so‘zi esa vaqtni ko‘rsatib, biror ishni bajarishdan so‘ng o‘ylash kerakligini bildiradi.

Ingliz tilida esa predloglar ko‘makchi so‘zlar vazifasida ishlatiladi. Predloglar odatda, boshqa so‘zlar (odatda ot yoki zamon ifodalovchi so‘zlar) bilan birgalikda, ularning o‘rtasida joylashgan munosabatni ko‘rsatadi. Predloglar gapdagi elementlar orasida ma‘no aloqasini o‘rnatadi va *joy, vaqt, sabab, vosita* kabi tushunchalarni ifodalaydi. Misol uchun “**I put the book on the table.**” (Men kitobni stolning ustiga qo‘ydim.) Bu yerda “**ustiga**” so‘zi “**stolning**” so‘ziga bog‘lanib, joyni ko‘rsatadi va **predlog** sifatida ishlatilgan. “**Ustiga**” ko‘makchi so‘zi, o‘zining lug‘aviy ma‘nosini yo‘qotib, bu gapda grammatik vazifani bajaradi. Ingliz tilida predloglar bir necha vazifalarda ishlatiladi:

- Joyni ko‘rsatish: “on,” “in,” “under” kabi predloglar joyni ifodalaydi.
- Vaqtni ko‘rsatish: “at,” “on,” “in” kabi predloglar vaqtni ifodalashda ishlatiladi.
- Sababni ko‘rsatish: “for,” “because of” kabi predloglar sabablarni ifodalaydi.
- Vosita yoki usulni ko‘rsatish: “by,” “with,” “on” kabi predloglar vosita yoki usulni ko‘rsatishda ishlatiladi.

Bundan tashqari ingliz tilida ko‘makchi fe‘llar (auxiliary verbs) mavjud bo‘lib bu so‘zlar asosiy fe‘lga yordam beradi va ularning grammatik ma‘nosini o‘zgartiradi, masalan, **vaqt, shart, so‘roq yoki inkor** funksiyalarini bajaradi. Ingliz tilida ko‘makchi fe‘llar “**do,**” “**be,**” “**have,**” va modal fe‘llar (“**can,**” “**will,**” “**may,**” va boshqalar) sifatida ishlatiladi. Misol uchun : “**Be**”

(**bo'lmoq**): “She is going to the store.” (U do'konga borayapdi.) — Bu yerda “is” ko'makchi fe'li hozirgi davomiy zamoni ko'rsatadi. **“Have” (ega bo'lmoq)**: “They have finished their homework.” (Ular o'z uy vazifalarini yakunladilar.) — Bu yerda “have” ko'makchi fe'li o'tmish zamoni bildiradi. **“Do” (qilmoq)**: “I do not like coffee.” (Men qahvani yoqtirmayman.) — Bu yerda “do” ko'makchi fe'li inkor funksiyasini bajaradi. **Modal fe'llar**: “I can swim.” (Men suza olaman.) — “Can” modal fe'li qobiliyatni ifodalaydi.

Bog'lovchilar

Yordamchi so'zlar, xususan, bog'lovchilar tilshunoslikda muhim o'rin tutib, ularni o'rganish mutaxassislar tomonidan alohida e'tiborga olingan. Masalan, so'z turkumlarining tizimida bog'lovchilarga xos xususiyatlar va ularning tasnifi masalasi bir qator mashhur olimlar tomonidan o'rganilgan. F.Sossyur, Sh.Balli, V.V.Vinogradov, A.A.Potebnya, N.Y.Shvedova va A.M.Peshkovskiy kabi ilmiy xodimlar bog'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishgan. Bog'lovchilarning terminologik tavsifi esa N.Medvedeva, A.S.Belousova, N.V.Vasileva kabi olimlar tomonidan nashr etilgan ensiklopediya, lug'at va qo'llanmalarda yoritilgan. Rus tilida zamonaviy murakkab bog'lovchilar, ularning sintaktik roli va sinonimiyalari M.Y.Getmanskaya, N.O.Grigoreva, M.S.Bunina, A.F.Priyatkina, T.M.Redkozubova kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, rus tilidagi bog'lovchilarning evolyutsiyasi, qiyoslovchi va differensiyalovchi bog'lovchilar tarixining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, turkiy tillar (qo'miq, ozarbayjon, lezgin tillari)dagi “bog'lovchi so'zlar va ularning qiyosiy xususiyatlari”[5] monografik ishlar doirasida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar bog'lovchilarning til tizimidagi o'rni va ularning boshqa tillarda qanday o'zgarishlarga uchrashini yoritishga qaratilgan. O'zbek tilida bog'lovchilar gapdagi so'zlarni bir-biriga bog'lash orqali ularning o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ular qo'llanilishiga ko'ra ikki turga ajraladi: yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar va takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilar.

1. Yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar — bu bog'lovchilar gapda faqat bir marta ishlatiladi va alohida so'zlarni birlashtiradi. Ushbu turdagi bog'lovchilarga quyidagilar kiradi: **va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, balki**. Masalan: “U o'qiydi va ishlaydi.” “Ular yaxshi o'rganishdi, ammo imtihondan o'ta olishmadi.”

2. Takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilar — bu bog'lovchilar bir-birini takrorlaydi va har safar gapda bir xil elementni bog'lab turadi. Ushbu turdagi bog'lovchilarga **bir bir, goh goh, ba'zan ba'zan, yo yo, yoki yoki** kabi ifodalar kiradi. Masalan: “U bir birini ko'rib turadi.” “Goh goh yaxshi, goh goh yomon.”

Bog'lovchilar o'z vazifasiga ko'ra yana ikki turga bo'linadi: Teng bog'lovchilar — bu bog'lovchilar teng holatdagi so'zlar yoki gaplarni bog'laydi. Masalan, “**va**”, “**hamda**” kabi bog'lovchilar. Ergashtiruvchi bog'lovchilar — bu bog'lovchilar bir so'z yoki gapni boshqa so'z yoki gapga bog'laydi, ammo ular o'rtasida ma'no bo'linishi mavjud. Masalan, “**ammo**”, “**lekin**”, “**biroq**” kabi bog'lovchilar.

Ingliz tilida bog'lovchilar narsa va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi va ular gap tuzilishida muhim rol o'ynaydi. Bog'lovchilar turli shakl va vazifalarni bajaradi, ammo ular faqat so'zlarni, iboralarni yoki gaplarni bog'lash uchun ishlatiladi, shuningdek, ular mustaqil gap bo'lagi sifatida ishlatilmaydi. Bog'lovchilarni morfologik tuzilishiga ko'ra quyidagi shakllarga ajratish mumkin:

• **Soda bog'lovchilar (simple)** — bu bog'lovchilar oddiy va o'zgarmas shaklga ega. Masalan: **and, or, but, va boshqalar**.

• **Yasama bog'lovchilar (derivative)** — bu bog'lovchilar, ma'lum bir ildiz so'zdan yasalmish va qo'shimchalar yordamida yaratilgan. **Masalan: until, unless,** va boshqalar.

• **Qo'shma bog'lovchilar (compound)** — bu bog'lovchilar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan. **Masalan: however, whereas,** va boshqalar.

• **Murakkab bog'lovchilar (composite)** — bu bog'lovchilar bir necha so'zdan tashkil topgan va ularning tuzilishi murakkabroq. **Masalan: as well as, in case,** va boshqalar.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Teng bog'lovchilar (coordinating) — bu bog'lovchilar ikkita teng bo'lg'an so'zlar, iboralar yoki gaplarni birlashtiradi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

Biriktiruvchi bog'lovchilar (copulative): bu bog'lovchilar ikki yoki undan ortiq fikrni birlashtiradi. **Masalan: and, nor, both...and.**

Zidlovchi bog'lovchilar (adversative): bu bog'lovchilar qarama-qarshi fikrlarni ifodalaydi. **Masalan: but, while, whereas.**

Ayiruvchi bog'lovchilar (disjunctive): bu bog'lovchilar tanlov yoki farqni ko'rsatadi. **Masalan: or, either...or.**

Sabab bog'lovchilari (causative – consecutive): bu bog'lovchilar sabab yoki natijani ifodalaydi. **Masalan: so, for.**

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar (subordinating) — bu bog'lovchilar bir gapni boshqa bir gapga bog'lab, ularga asosiy yoki qo'shimcha ma'no beradi.

Yuklamalar

O'zbek tilida yuklamalar grammatik ma'no ifodalaydi, lekin ular leksik ma'no anglatmaydi. Yuklamalar ma'nolari, ko'rinishi va yozilishi bo'yicha oltita turga bo'linadi. Har bir tur o'ziga xos grammatik ma'noga ega va gapdagi so'zlar yoki gap bo'laklari bilan birgalikda ishlatilganda ma'nolarini ifodalaydi. Yuklamalar ba'zan so'z va qo'shimchalar ko'rinishida bo'lib, ba'zi hollarda so'zga qo'shib, ayrim hollarda esa so'zdan ajratib chiziqcha bilan yoziladi. Bu turli xil ko'rinishlar yuklamaning grammatik funksiyasini aniqroq ko'rsatadi va gapdagi ma'no ifodasini shakllantiradi. Yuklamalarning quyidagi turlari mavjud:

- So'roq-taajjub yuklamalari -mi,-chi,-a,-ya
- Kuchaytiruv ta'kid yuklamalari - axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, ham, g'irt
- Aniqlov yuklamasi- naq, xuddi, qoq, -ki, -kim
- Ayiruv chegaralov yuklamasi- faqat (yolg'iz), gina(-kina, qina)
- Imkor yuklamasi- na-na, hech, sira
- Gumon yuklamasi- -dir

Ingliz tilida esa yuklamalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

• **Ayiruv-chegaralov yuklamalari (Limiting particles):** Bu turdagi yuklamalar biror fikrni cheklash yoki chegaralash vazifasini bajaradi. **Masalan: only, just, merely.**

• **Kuchaytiruvchi yuklamalar (Intensifying particles):** Ushbu yuklamalar ma'noni kuchaytirish yoki ta'kidlash uchun ishlatiladi. **Masalan: very, extremely, totally.**

• **Inkor yuklamasi (Negative particle):** Bu turdagi yuklamalar ma'no anglatishda inkor yoki salbiy ma'no qo'shadi. **Masalan: not, never, no.**

• **Fikrni to'ldirishga chorlovchi yuklama (Additive particle):** Bu yuklamalar gapda fikrni to'ldirish, yangi ma'lumot qo'shish yoki qo'shimcha fikr bildirish uchun ishlatiladi. **Masalan: also, too, as well.**

• **Biriktiruvchi yoki umumlashtiruvchi yuklamalar (Connecting particles):** Ushbu yuklamalar gapdagi turli qismlarni birlashtiradi yoki umumiy ma’noni ifodalaydi. **Masalan: and, or, so, therefore.**

Natija va muhokama. Kuzatishlar hamda materiallar shuni ko’rsatadiki, ingliz va o’zbek tillarida yordamchi so’zlar analitik grammatik vosita sifatida ishlatiladi va har ikki tilda ham umumiy tipologik vosita bo’lib xizmat qiladi. Qiyoslanayotgan tillarda, ingliz tilida yordamchi so’zlar orasida predloglar, bog’lovchilar, va modal so’zlar mavjud bo’lsa, o’zbek tilida esa bu rolni bog’lovchilar, yuklamalar, ko’makchilar, bajaradi. Har ikkala tilning yordamchi so’zlari o’zaro grammatik munosabatlarni ifodalashda, gaplarni aniq va to’liq tushunishga yordam beradi. Tilshunos B.N. Aksenenko “Предлоги английского языка” nomli asarida predlogning asosiy vazifasini va grammatik holatini aniq va tushunarli tarzda ta’riflaydi. U predlogni odatda ot yoki uning o’rnini egallovchi so’zdan oldin keladigan yordamchi so’z sifatida belgilaydi. Ba’zi hollarda predlog fe’l, ot, ravish yoki bu so’zlarning biridan foydalanib, ularning o’rnini egallaydi. Aksenenko, shuningdek, predloglarning mustaqil ma’nosi bo’lmagan so’zlar o’rtasidagi aloqani ifodalashiga, shuningdek, ularning tarkibini aniqlashga va bu jarayonni tushuntirishga ham alohida e’tibor qaratadi[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bizning grammatikamizda ham oddiy, ham murakkab jihatlar mavjud. Ba’zi tushunchalar oson tushuntirilgan, boshqalari esa juda murakkab. Yordamchi so’z turkumlaridagi o’ziga xosliklar bizni hayratda qoldiradi. Mening fikrimcha, bir xil turdagi so’z turkumlarini bir xil nomlash va ularni o’rganishni biroz osonlashtirish zarur. Masalan, ko’makchilarning sof yoki vazifadosh turlari mavjud, shuningdek, bog’lovchilarning sof yoki vazifadoshliligi kelib chiqishiga qarab belgilanadi. Yuklamalar bilan bog’liq tushunchalar esa ko’proq “Yuklamalar ham sof yoki vazifadosh bo’lishi mumkin” tarzida oddiyroq ifodalangan. Ingliz tilida zamon tizimi ko’proq yordamchi fe’llar orqali amalga oshiriladi va zamonlarning ko’pligi aniq ifodalanadi. O’zbek tilida esa yordamchi so’zlar yordamida zamon tushunchalari ko’proq sodda va umumiy shaklda ifodalanadi. Yordamchi so’zlarning semantik va stilistik xususiyatlari ikki tilda ham tilning o’ziga xos imkoniyatlarini ko’rsatib, nutqning aniq va to’g’ri ifodalanishiga yordam beradi. Ingliz tilida yordamchi so’zlar yordamida ko’proq modallik va ehtimollik ifodalansa, o’zbek tilida bu tushunchalar ko’proq kontekstga bog’liq va sintaksis yordamida ifodalanadi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Noam Chomsky. Syntactic Structures (1957) Mouton & Co.
2. Mikhail Bakhtin The Dialogic Imagination (1975) Texas University Press
3. Abdulla Avloniy O’zbek tilining sintaksisi (1950) Toshkent
4. Gulchehra Karimova O’zbek tilining sintaksisi (1982) Toshkent
5. Р Кузнецова Р.Л. История подчинительных союзов в русском языке:(1979) Автореф. дис. д-ра филол, наук. – Калинин
6. Ахманова О.С., Микаэлян Г.Б. Современные синтаксические теории (2012)–М.: Либраком
7. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. London: Longman.
8. Kovalenko, T. (2010). The role of auxiliary verbs in the formation of modality in the English language. Kyiv: Kyiv University Press.
9. Malikova, S. Sh. (2015). O’zbek tilida modallik va yordamchi fe’llar. Toshkent: Sharq.
10. Ernazarov, T. (2018). O’zbek tilidagi yordamchi so’zlar va ularning ma’no xususiyatlari. Toshkent: Akadem nashr.
11. Kachalova V.A. (2002) Grammatika angliyskogo yazika. M.

KITOB TANITUVI / KİTAP TANITIMI / BOOK REVIEW

Cusup Abdurahmonov, *Kirgizistan: Turanchilikdan Hükümlü Bir Liderin Ülkesine ve Geleceğine Bakışı*, Mavi Gök Yayınları, 1. baskı, İstanbul 2024, 145 sayfa, ISBN: 9786259449364 (Yusuf Abdurahmonov, *Qirg‘iziston: Turonchilikda ayblangan yetakchining mamlakat va kelajak haqidagi qarashlari*, “Mavi Gök” nashriyoti, 1-nashr, Istanbul - 2024, 145 sahifa, ISBN: 9786259449364).


Qisqacha mazmuni: Yusuf Abdurahmonovning (Qirg‘iziston) “Turonchilikda ayblangan yetakchining mamlakat va kelajak haqidagi qarashlari” kitobi XX asrning boshlarida Qirg‘izistonning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kitobda Sovet Qirg‘izistoni davrida amalga oshirilgan islohotlar batafsil tahlil qilinadi. Asarning asosiy mavzusi qirg‘iz xalqining o‘zligini tiklash, qishloq xo‘jaligida kollektivlashuv jarayonlari, sanoatning boshlang‘ich bosqichdagi taraqqiyoti va ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlardir. Abdurahmonov 1928-yilda yozgan bu kitobida, Qirg‘izistonning tabiiy imkoniyatlarini ko‘rsatib, mamlakatni “Osiyoning Shvetsariyasi”ga aylantirish g‘oyasini ilgari surgan. Kitob, Sovet hokimiyatining bosimiga qaramasdan, muallifning xalqiga bo‘lgan sadoqati va milliy rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini yoritadi. Shuningdek, unda milliy til va madaniyatning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu asar, Aiday Kubatovaning tarixiy yondashuvi va krill alifbosiga o‘girishdagi aniqligi tufayli zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Yusuf Abdurahmonov, Qirg‘iziston tarixi, Sovet siyosati, qishloq xo‘jaligi, sanoat taraqqiyoti, madaniy islohotlar, milliy liderlik.*

Özet: Cusup Abdurahmonov’un “*Kirgizistan: Turanchilikdan Hükümlü Bir Liderin Ülkesine ve Geleceğine Bakışı*” adli eseri, XX. yüzyılın başlarındaki Kirgizistan’ın sosyal, ekonomik ve siyasal gelişimini ele alır. Kitap, Sovyet Kirgizistanı döneminde gerçekleştirilen reformların detaylı bir analizini sunmaktadır. Kitabın ana temaları arasında Kirgiz halkının kimlik arayışı, tarımda kolektifleştirme süreçleri, sanayinin ilk gelişim aşamaları ve eğitim reformları yer alır. Abdurahmonov, 1928 yılında kaleme aldığı bu eserde Kirgizistan’ın doğal potansiyelini vurgulayarak ülkeyi “Asya’nın İsviçre’si” yapma vizyonunu ortaya koyar. Eser, Sovyet rejiminin baskılarına rağmen, yazarın halkına olan bağlılığını ve ulusal kalkınmaya yönelik çabalarını anlatır. Ayrıca, millî dil ve kültürün geliştirilmesi kitabın önemli bir konusu olarak ele alınmıştır. Aiday Kubatova’nın, eseri Kiril alfabesine çevirerek modern araştırmalara kazandırması, bu kitabı değerli bir tarihi kaynak hâline getirmiştir.

Anahtar Kelimeler: *Cusup Abdurahmonov, Kirgizistan tarihi, Sovyet politikası, tarım reformları, sanayi gelişimi, kültürel reformlar, ulusal liderlik.*

Yusuf Abdurahmonovning “Qirg‘iziston” asari, nafaqat tarixiy va siyosiy ma‘lumotlarni yetkazib berishi, balki muallif tomonidan qo‘llangan til va uslub orqali Qirg‘izistonning XX asr boshidagi madaniy-milliy holatini ham aks ettiradi. Bu asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri, muallifning qirg‘iz tilida yozishni tanlagan birinchi davlat arbobi bo‘lganidir. Uning til ishlatish uslubi faqat o‘sha davr qirg‘iz tili boyligini saqlab qolmasdan, balki o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lmagan ravon va ilmiy nutq yaratishga intilganini ko‘rsatadi. Asarda eski qirg‘iz tili unsurlarining keng qo‘llanilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, "Rossiya" so‘zining "Orusya", "statistika" so‘zining "hisob-kitob" shaklida ishlatilishi milliy tildagi o‘ziga xos fonetik shakllarning saqlanib qolganidan dalolat beradi. Bu, muallifning xalq tiliga yaqin turishga bo‘lgan



urinishining bir ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Asar dastlab arab alifbosida yozilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi qirg‘iz yozma adabiy tilining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Bu jihat, ayniqsa, Sovet hukumatining alifbo islohotlari tufayli qirg‘iz yozuvining tezkor ravishda o‘zgarishiga guvoh bo‘lgan o‘quvchilar uchun muhimdir. Muallifning qirg‘iz tilidan foydalanishi, xalqining o‘zligini saqlash va milliy merosni boyitish maqsadini ko‘rsatadi. Sovet davrida rus tili hukmron bo‘lishiga qaramay, Abdurahmonovning qirg‘iz tilida yozish qarori, uning o‘z xalqiga xizmat qilishga bo‘lgan sadoqatining ifodasidir. U xalqni milliy ong va iqtisodiy bilim bilan boyitishni maqsad qilgan.

Kitobning Kirish (11–13) bo‘limida, muallif o‘zining asarni yozish maqsadini ochib beradi. 1928-yilda yozilgan bu asar, Qirg‘izistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish yo‘lidagi yutuqlari va muammolarini o‘z ichiga oladi. Muallif, bu asarni oktabr inqilobining 11 yilligiga va

Qirg‘izistonning avtonom davlat sifatida to‘rt yillik faoliyatiga bag‘ishlagan. Tarixiy asoslar (15–41) bo‘limida Qirg‘izistonning XX asr boshidagi siyosiy tarixini yoritadi. Abdurahmonov, qirg‘iz xalqining milliy o‘zligini tiklash yo‘lidagi kurashini va Sovet rejimi sharoitida davlatni shakllantirish jarayonlarini tasvirlaydi. U Kara-Qirg‘iz avtonom oblastining tashkil etilishi va Qirg‘izistonning Sovet Respublikasi sifatidagi rivojlanishini muhim tarixiy bosqich sifatida ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi (48–59) bo‘limida muallif, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar va yer-suv munosabatlaridagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Abdurahmonov, kollektiv xo‘jaliklarni tashkil qilish jarayonlarini yoritib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning Qirg‘iziston iqtisodiyotidagi ahamiyatini ochib beradi. Sanoat taraqqiyoti (62–64-) deb nomlangan qisqa bo‘limda, muallif Qirg‘izistonning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashdagi yutuqlar va kamchiliklarni ko‘rsatadi. U mavjud sanoat tarmoqlarining rivoji va kelajakdagi imkoniyatlar haqida fikr bildiradi. Ilm va madaniyat (67–69-) bo‘limi ta‘lim tizimidagi islohotlarga bag‘ishlangan. Muallif yangi usuldagi maktablarning joriy etilishi, savodsizlikni bartaraf etish va milliy madaniyatni rivojlantirish yo‘lidagi harakatlarni tahlil qiladi. U milliy ongni shakllantirishda ta‘limning o‘rni haqida so‘z yuritadi. Sog‘liqni saqlash (69–73) bo‘limida muallif sog‘liqni saqlash tizimidagi yutuqlar va muammolarni ochib beradi. Abdurahmonov, ayniqsa, qishloq hududlaridagi shifokorlar va tibbiy xizmatlarning yetishmasligi haqida qayg‘uradi va bu masalani hal qilish uchun tavsiyalar beradi. Sovet tashkilotlari (73–77) muallif ushbu bo‘limda Sovet hokimiyati tuzilmalari va ular tomonidan olib borilgan islohotlarni tahlil qiladi. U Sovetlarning Qirg‘izistonni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashdagi rolini tanqidiy baholaydi. Asarning tarixiy matni (77–113) bo‘limida muallifning 1928-yilda yozilgan asl matni keltirilgan. Bu matn, o‘sha davr til va uslubining noyob namunasidir. Muallifning o‘sha davr

iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muammolarga bo‘lgan yondashuvi, milliy ong va madaniyatni shakllantirishga intilishi aks etgan. Xulosa va tavsiyalar (113–118) bo‘limida muallif, Qirg‘izistonning kelajagini ijobiy baholab, uni "Osiyoning Shvetsariyasi"ga aylantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. U milliy til, madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirishda davom etish zarurligini ta’kidlaydi. Ilovalar va izohlar (122-betdan boshlab) asarning oxirida arab yozuvidan krill yozuviga o‘tkazish jarayoni, eski qirg‘iz tili so‘zlarining izohlari va muallif hayoti haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar keltirilgan. Bu qism, o‘quvchilar uchun asarni chuqurroq tushunish imkonini yaratadi.

Abdurahmonovning yozuv uslubi o‘quvchi bilan bevosita muloqotni eslatadi. Asarda ko‘plab dalillar va statistik ma’lumotlar berilib, ular oddiy tilda tushuntiriladi. Bu uning ilmiy va siyosiy murakkab tushunchalarni xalq tiliga moslashni maqsad qilganini ko‘rsatadi. Muallifning kundalik hayotdan olingan misollarni keltirishi, xalq so‘z boyligiga asoslangan iboralarni ishlatishi, asarni qirg‘iz jamiyatining keng qatlamlariga mos keladigan universal manba sifatida yaratadi. Masalan, "yer-suv islohoti" kabi murakkab siyosiy jarayonlarni sodda tilda ifodalashi uning keng auditoriya bilan bog‘lanish qobiliyatini ko‘rsatadi. Abdurahmonov, Qirg‘izistonning rasmiy ish yuritish tili sifatida qirg‘iz tilini rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. U davlat ishlarida faqat rus tilidan foydalanish siyosatiga qarshi chiqib, milliy tilni himoya qilish muhimligini ta’kidlagan. Asarda milliy tilni saqlash bilan bog‘liq siyosiy kurashning aks etishi, uni nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki milliy ongni shakllantiruvchi asar sifatida qadrlashga imkon beradi.

1920-yillarda Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan milliy respublikalar ko‘plab madaniy va siyosiy bosimlarga duch kelar edi. Rus tili davlatning rasmiy tili sifatida mustahkamlanar ekan, mahalliy tillarning roli cheklanib qoldi. Bu siyosiy fon qirg‘iz tilining ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini saqlab qolishini qiyinlashtirdi. Abdurahmonov o‘z kundaliklarida va rasmiy hujjatlarida mahalliy tillarning ahamiyatini doim ta’kidlab kelgan. U qirg‘iz tilining faqat milliy madaniyatning ramzi emas, balki davlatning rasmiy faoliyatida ishlatilishi kerakligini qat’iyat bilan ilgari surdi. Uning fikriga ko‘ra, Qirg‘iziston kabi respublikalarda mahalliy tilning rasmiy hujjatlar, ta’lim va boshqaruvda ishlatilishi xalqning o‘z taqdirini belgilashiga xizmat qiladigan eng asosiy omil edi. “Qirg‘iziston” asarida Abdurahmonov Qirg‘izistonning ijtimoiy va siyosiy muammolarini muhokama qilar ekan, mahalliy til masalasiga alohida e’tibor qaratadi. U til siyosatini ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rgan. Masalan, u qishloq hududlaridagi davlat idoralarida ishlatiladigan til masalasiga e’tibor qaratib, shunday yozadi: *“Ko‘plab tumanlarda rus aholisi yo‘q, lekin davlat idoralarida faqat rus tilida ish yuritiladi. Bu ahvol tuman boshqaruvining xalq uchun emas, balki rus tilini biladigan mansabdorlar uchun xizmat qilishini ko‘rsatadi.”* Bu fikr orqali Abdurahmonov davlatning o‘z xalqiga xizmat qilishi uchun milliy tilning ahamiyatini ochib beradi. U qirg‘iz tilini qishloq xo‘jaligi, sanoat va madaniyat sohalarida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Sovet davrida amalga oshirilgan til siyosati ko‘p hollarda milliy tillarning rivojlanishiga qarshi bo‘lgan. Rus tili birlashtiruvchi vosita sifatida ilgari surilib, mahalliy tillar chekka joylarda qoldirilgan. Abdurahmonov bu holatga qarshi chiqib, xalqning o‘z tili va madaniyatini rivojlantirish orqali milliy ongni mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. Uning asarlarida qirg‘iz tilining saqlanishi faqat lingvistik masala emas, balki siyosiy va ijtimoiy masala sifatida ko‘riladi. Bu til orqali xalq o‘zini anglaydi, o‘z tarixini biladi va o‘z kelajagini quradi. Abdurahmonov uchun til siyosati faqat davlat ishlarida tilni ishlatishdan iborat emas edi. U tilni milliy o‘zlik va xalqning birligini mustahkamlash vositasi sifatida ko‘rgan. Bu jihat, ayniqsa, uning Sovet bosimlariga qarshi turib, qirg‘iz tilida yozishni tanlaganida yaqqol ko‘rinadi. Uning

fikricha, Qirg‘izistonning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, faqat milliy til va madaniyatni rivojlantirish bilan amalga oshishi mumkin edi.

Yusuf Abdurahmonovning til siyosati bo‘yicha ilgari surgan fikrlari va amaliy harakatlari, uning xalqiga sadoqati va milliy madaniyatni saqlashga bo‘lgan intilishining yorqin namunasidir. Qirg‘iziston asari nafaqat tarixiy hujjat, balki qirg‘iz tilining himoyasi va rivojlanishi yo‘lidagi kurashning ramzidir. Bu asar va undagi til siyosati haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va Qirg‘izistonning madaniy merosida mustahkam o‘rin egallagan.

O‘zbek tiliga Qirg‘iziston-Turkiya Manas universiteti magistranti Erdem Yilmaz tomonidan o‘g‘irildi. E-mail: erdmylmz1944@gmail.com ORCID: 0000-0001-5863-0337.

Özbekçeye Aktaran: Erdem YILMAZ, Yüksek Lisans Öğrencisi, Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi, **E-mail: erdmylmz1944@gmail.com ORCID: 0000-0001-5863-0337.**

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiyal

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK
TADQIQOTLAR” XALQARO
JURNALINING AXBOROT
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
- 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
- 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
- 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefon raqami, electron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
- 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
- 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
- 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
- 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
- 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 27-dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2024-yil 28-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturasini.

Offset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i –10.

Adadi 15 nusxa. Buyurtma №189

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229